

297(073)  
I-10

# ISLOMDAGI MAZHABLAR VA OQIMLAR

O'QUV QO'LLANMA

715  
10  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

# ISLOMDAGI MAZHABLAR VA OQIMLAR

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent islom universiteti	
Axborot-resurs markazi	
Inv. №	21867
20	__ yil __ "

"Toshkent islom universiteti"  
nashriyot-matbaa birlashmasi  
Toshkent - 2012

UDK: 297.1(575.1)

KBK: 86.38

S16

Saidjalolov S.

Islomdagi mazhablar va o'qimlar o'quv qo'llanma / S.Saidjalolov; mas'ul muharrir A.Hasanov; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. – Toshkent: 2012. – 128 b.

KBK:86.38

**Muallif:**

*S.Saidjalolov Toshkent islom universiteti Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish YUNESKO kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Mas'ul muharrir:**

*A.Hasanov tarix fanlari doktori, professor*

**Taqrizchilar:**

*M.Alimova tarix fanlari nomzodi,*

*I.Bekmirzaev tarix fanlari nomzodi*

O'quv qo'llanma islomda mazhab va o'qimlarning yuzaga kelish tarixi, sabablari va asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Hidoyat va zalolat borasida turli qarashlar ilgari surilayotgan bir paytda islom aqidasi va fiqhiga taalluqli maktab va mazhablar, o'qim va harakatlar mohiyatini anglashning ahamiyati ortib bormoqda. "Islomdagi mazhablar va o'qimlar" o'quv qo'llanmasi mazkur masalalarga bag'ishlangan bo'lib, undan dinshunoslik, islomshunoslik, fiqhshunoslik, islom tarixi va manbashunosligi sohalarida istifoda qilish mumkin.

*Toshkent islom universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2012-yil 20 martdagi 5-sonli bayonnomasi hamda Ilmiy Kengashining 2012-yil 30 martdagi 8-sonli bayonnomasi bilan nashrga tarsiya etilgan.*

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2012-yil 2 aprel № 674-raqamli ruxsati bilan chop etildi.*

ISBN: 978-9943-390-52-2

© "Toshkent islom universiteti"  
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012

## KIRISH. "ISLOMDAGI MAZHABLAR VA OQIMLAR" O'QUV KURSINING MAZMUN-MOHIYATI

Mustaqillik yillarida vijdon erkinligining ta'minlanishi diniy-ma'rifiy sohada ko'plab ijobiy o'zgarishlarga muhim asos bo'ldi. Minglab obida va qadamjolarining dindorlar ixtiyoriga berilishi, yuz minglab nusxada diniy-ma'rifiy nashrlarning chop etilishi, muqaddas ziyoratga emin-erkin hamda qulay sharoitlarda borish imkoniyati ma'naviy soha taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

Inson erkinlikni yaxshi ko'rishi tabiiy. Ammo har qanday erkinlikning ham muayyan chegarasi bor. Inson hurligining chegarasi qayerda tugaydi deyilsa, boshqa insonlar hurligiga daxl qilishni boshlashidan, deya javob berish mumkin. Muxtasar ifoda etganda, sizning ozodligingiz boshqa insonlar huquqlarining poymol qilinishiga olib kelmasligi zarur. Kishilar o'rtasidagi munosabatlar qonun asosida hal etilib, mazkur munosabatlar huquqiy asosga qurilishining va davlat hokimiyati tomonidan nazorat qilinishining boisi shunda.

Yuqoridagi so'zlar bejiz aytilgani yo'q. Aynan istiqlolning ilk yillarida vijdon erkinligi sohasida berilgan imkoniyatlarni hamma ham to'g'ri qabul qilmadi. Xususan, o'tgan asrning 90-yillarida dindorlarga yaratilgan keng sharoitni suiste'mol qilish holatlari namoyon bo'la boshladi. Bu esa diniy tushunchalarning noto'g'ri talqin etilishiga, muqaddas islom ta'limoti ko'rsatmalarini ba'zida boylik orttirish, mansab, hokimiyat orqasidan quvish kabi g'arazli maqsadlarga vosita qilinishiga olib keldi. Oqibatda, kishilar o'rtasida turli ixtilof va ziddiyatlar ko'paydi. Hatto, qonli to'qnashuvlar ro'y berdi. Din niqobi ostidagi ekstremizm va terrorizm deya baholangan bu harakatlar tinchlik va barqarorlik uchun, aholining salomatligi va kelajagi uchun jiddiy xavf-xatarga aylandi.

Diyorimiz tinchligiga tahdid solgan ekstremistik harakatlarning yuzaga kelishiga nimalar sabab bo'ldi degan savolga, asosan ikkita omilni javob tariqasida keltirish mumkin: ichki va tashqi.

O'zbekistondagi tinchlik va taraqqiyotni ko'ra olmaydigan, uni o'z ta'sir doirasiga olishga uringan xorijdagi markazlar tomonidan ekstremistik va terroristik g'oyalarning eksport qilinganini tashqi omil deyish mumkin.

Mustabid tuzum davrida dinga qarshi kurash e'lon qilingani, dahriylik siyosati yurgizilgani sabab yurtimiz aholisida diniy bilimning oz va sayoz bo'lgani, oqu qorani, hidoyat va zalolatni, mutaassiblik va bag'rikenglikni ajrata olmaslik holatining turli buzg'unchi oqimlar faoliyatini to'sishda murakkablik tug'dirganini ichki omil deya e'tirof etish mumkin.

O'zbekiston rahbariyati ekstremizm va terrorizm tahdidini o'z vaqtida anglab, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'lida jahon hamjamiyatiga namuna bo'ladigan ishlarni amalga oshirdi. Prezident Islom Karimov ko'plab ma'ruzalarida butun dunyo hamjamiyatini ogohlikka, terrorizmdek asr vabosiga birgalikda qarshi kurashishga da'vat etdi. Shuningdek, bu baloning oldini olishda kishilardagi bilim va tafakkurga asoslanish muhim ekaniga e'tibor qaratdi. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zarurligini uqtirdi.

O'zbekiston Prezidenti taklif etgan bu uslubning naqadar to'g'ri ekanini yillar isbotlamoqda. Bugun mamlakatda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhiti taraqqiyot va farovonlikning muhim tayanchiga aylangani haqiqat.

"Islomdagi mazhablar va oqimlar" o'quv kursining asosiy maqsadi ham talabalarga dinning asl mohiyati ezgulik ekanini, agar uning poklik va mo'tadillikka asoslangan ta'limoti buzib talqin qilinsa, qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini

anglatishdan iboratdir. Bu maqsadni amalga oshirish yo'lida o'quv kursi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

– islomdagi yo'nalishlar, mazhablar va oqimlarning mazmun-mohiyatini yoritish;

– yo'nalishlarning kelib chiqish sabablarini bayon qilish;

– fiqh, ijtihod va mujtahid kabi tushunchalarning shakllanish omillari va ahamiyatini ochib berish;

– mazhablar tarixini va ularning shariat ilmlari taraqqiyotidagi o'rnini tushuntirish;

– mazhablar islom olamining birdamligi va hamjihatligida, turli diyorlarda tinchlik va barqarorlik hukm surishida muhim ahamiyat kasb etib kelayotganiga e'tibor qaratish;

– diyorimizda hanafiy mazhabi ta'limoti taraqqiy etganini, bu esa necha asrlar davomida yurtimizdagi turli e'tiqod va millat vakillari o'rtasida hamjihatlik barqaror bo'lishida benazir o'rin tutganini ilmiy asoslab berish;

– oqimlar tarixi va ularning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillarni ko'rsatib berish;

– oqimlarning salbiy oqibatlarini, ularning g'arazli faoliyati ekstremizm va terrorizmga asos bo'lishini misollar asosida isbotlash;

– oqimlar faoliyatining oldini olishda, salbiy oqibatlarini bartaraf etishda ahamiyat berish lozim bo'lgan omillarni qayd etish;

“Islomdagi mazhablar va oqimlar” o'quv kursi oliy ta'limning dinshunoslik, islomshunoslik, islom huquqi, islom tarixi va manbashunosligi kabi yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada quyidagi shartli qisqartmalar ishlatildi:

s.a.v. – sollallohu alayhi va sallam

a.s. – alayhis-salom

r.a. – roziyallohu anhu, roziyallohu anhum

r.h. – rahmatullohi alayhi

## 1-BOB. ISLOMDA YO'NALISHLAR YUZAGA KELISHINING SABABLARI

- 1.1. Sunniylik mohiyati
- 1.2. Xorijiylik – ajralib chiqqan ilk yo'nalish
- 1.3. Shialikning yuzaga kelishi

### 1.1. Sunniylik mohiyati

Islomdagi yo'nalishlar soni tarixiy manbalarda turlicha berilgan. Ulardan asosiy uchasi – sunniylik, xorijiylik va shialik haqida to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Islomdagi yo'nalish deganda muayyan e'tiqodiy masala asosida birlashgan musulmonlar majmuasi tushuniladi. Masalan, sunniylik yo'nalishi sunnat va jamoat asosida, xorijiylik ajralib chiqish va qarshilik ko'rsatish, shialik esa Ali (r.a.) va uning avlodlarini haddan ortiq e'zozlash asosida birlashgan. Avvalo, sunniylik mohiyati bayon etiladi.

Payg'ambardan naql qilingan musulmon ummatining 73 firqaga bo'linib ketishi haqidagi mashhur hadisda, faqat bir yo'nalish – u zotning sunnatlarini mahkam ushlagan va sahobalari yo'lidan yurgan kishilargina najot topishi bayon qilingan. Ulamolar najot topuvchi yo'nalish bu "Ahli sunna val-jamoa" ekaniga ittifoq qilishgan. "Ahli sunna" iborasi Muhammad (a.s.) sunnatlariga ergashuvchilarni, "val-jamoa" esa musulmonlarning ko'pchiligi ortidan yuruvchilarni bildiradi. Demak, "ahli sunna val-jamoa" – sunnatga va jamoaga ergashuvchilar degan ma'noni anglatadi. Haqiqatan, bugungi kunda musulmonlarning aksari, ya'ni 92.5%i mazkur yo'nalishga mansubdir. "Ahli sunna val-jamoa" nomini qisqartirib, "sunniylik yo'nalishi" deb ham yuritiladi. Aqida borasida moturidiya yoki ash'ariya ta'limotiga, fiqhda esa to'rt mazhab: hanafiy, molikiy, shofeiyy va hanbaliy

mazhablaridan biriga mansub bo'lgan musulmonlardan tashkil topgan jamoa sunniylik yo'nalishini tashkil qiladi. Bu yo'nalish e'tiqod borasida quyidagi tamoyillarga tayangan:

1. Allohning barcha ismlari va sifatlariga.
  2. Barcha payg'ambarlarga.
  3. Farishtalarga.
  4. Muqaddas kitoblarga.
  5. Oxirat kuniga.
  6. Yaxshilik va yomonlik taqdir etilishiga.
  7. O'lgandan so'ng qayta tirilishga ishonish va til bilan iqror etish.
  8. Muhammad (a.s.)ning sunnatlariga ergashish.
  9. Sahobalarning barchasini birdek hurmat qilish.
  10. Tobeinlar ehtiromini o'rniga qo'yish.
  11. Rahbarlarga itoat etish.
  12. Musulmonlarga oqibat ko'rsatish.
  13. Jamoadan, ya'ni ko'pchilikdan ayri bo'lmaslik.
  14. Biror insonni kofirlikda ayblashga intilmaslik.
  15. O'zga din va e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikenglik ko'rsatish.
  16. Yaxshi ishlarga tavsiya etish va yomon ishlardan qaytarish.
  17. Savob ishlarga intilish va gunoh ishlardan qochish.
  18. Gunohga bee'tibor bo'lmaslik, ammo gunohkorni imonsizga chiqarmaslik.
  19. Biror insonga jannatiy deb shohidlik bermaslik va biror insonni do'zaxiy deb guvohlik bermaslik.
  20. Umid va qo'rquv mutanosibligiga rioya qilish.
- Shuningdek, choryorlarning barchasini qonuniy xalifa sifatida e'tirof etish va olti ishonchli hadislar to'plamlarini tan olish ham sunniylikdagi asosiy mezonlardan hisoblanadi.
- Bu asoslar bejiz zikr etilmadi. Bir qarashda oddiy va tushunarli bo'lgan bu tamoyillar mazmunini murakkablashtirish,



asl mohiyatidan yiroq tarzda talqin qilish oqibatida musulmonlar orasida 72 ta firqa yuzaga keldi. Masalan, mo'tazila oqimi gunoh qilgan insonni imondan chiqishini ta'kidlaydi, Alloh sifatlarining ba'zisini noto'g'ri talqin etadi, yaxshilikka buyurish yo'lida hech narsadan qaytmaslik, hatto kerak bo'lsa kuch ishlatish zarur, deb hisoblaydi.

Murjia oqimi inson har qanday og'ir gunoh qilsa-da, imoni musaffo qolaveradi deb e'tiqod qiladi. Aslida, ezgu ish qalbni qanchalik munavvar qilsa, yomonlik shunchalik dilga qorong'ulik keltirishi ma'lum haqiqat.

Xorijiyalar ham yuqoridagi tamoyillardan bir nechtasiga xilof g'oyalarni ilgari surdilar. Masalan, ular gunoh qilgan insonni kofirga chiqardilar, rahbarlarga qarshi isyonlar uyushtirdilar, qancha-qancha begunoh insonlarning qonini to'kdidilar.

Shialar sunniylikdagi sahobalarni birdek hurmat qilish tamoyilini qo'pol tarzda buzdilar. Xalifa Ali (r.a.)ga bo'lgan munosabatda haddan ortiq mutaassiblikka bordilar va hatto boshqa sahobalarni haqorat qilishdan tap tortmadilar. Oqibatda shialik, nafaqat sahobalarni hurmat etish tamoyilida, balki boshqa masalalarda ham sunniylikdan tubdan farq qiluvchi yo'nalishga aylandi. Bu borada, o'z o'rnida batafsil bayon qilinadi.

## 1.2. Xorijiylik – ajralib chiqqan ilk yo'nalish

“Xorijiy” so'zi arab tilidan tarjima qilinganda, ikki xil ma'noni anglatishini mutaxassislar naql etganlar va bu talqinlar o'zaro zid kelmaydi. Balki, ular mazmun jihatdan bir-birini to'ldiradi.

Birinchisi, “xorijiy” so'zi arab tilidagi “xaraja ala” birikmasidan olingan bo'lsa, “-ga chiqmoq” ma'nosini anglatib, biror bir inson yoki holatga qarshi chiqmoq, qarshi bosh ko'tarmoq ma'nolarini bildiradi. Binobarin, xorijiyalar rahbarga qarshi chiqqan, o'z hukmdoriga qarshi bosh ko'targan toifadir.

Mazkur ma'no tarixiy manbalarda uch xil sharhlangan. Ularga ko'ra xorijiyalar:

1. Ali ibn Abi Tolib (r.a.)ga qarshi bosh ko'targan toifa.
2. 661-750-yillar davomida hukm surgan Ummaviylar saltanatiga qarshi ichki urushlarni olib borgan guruhlar.
3. Umumiy ma'noda, barcha rahbarlarga qarshi kurashgan oqimlar.

Mazkur har uchala tavsif ham bir-birini to'ldiradi.

Ikkinchisi, "xorijiy" so'zi arab tilidagi "xaraja an" birikmasidan olingan bo'lsa, "-dan chiqmoq" ma'nosini anglatib, biror joydan yoki holatdan chiqishni bildiradi. Demak, xorijiyalar musulmonlar jamoasidan ajralib chiqqan guruhdir.

Birinchi va ikkinchi ta'riflar birlashtirilsa, quyidagi mazmun hosil bo'ladi: «Xorijiyalar – musulmonlar orasidan ajralib chiqib, rahbarlarga qarshi bosh ko'targan oqimdir».

Xorijiyalar sunniylikdan ajralib chiqishda asosan ikki masalada "Ahli sunna val-jamo'a"ga zid qarashlarni ilgari surdilar. Binobarin, xorijiylik ta'limoti nazariy jihatdan ikki asosga qurilgan:

1. Gunohkor insonni kofirga chiqarish. Masalan, ular Payg'ambar (a.s.) jannatini deb bashorat bergan Ali (r.a.)ni kofirga chiqardilar. Shuningdek, ularning iddaolarini qabul qilmagan boshqa sahobalarni ham.

2. Zolim rahbarga qarshi bosh ko'tarishni vojib deb bilish. Bunda uning zolim yoki zolim emasligini o'zlaricha hal qilishgan. Masalan, ular Ali ibn Abi Tolib va Muoviya ibn Abiy Sufyon (r.a.)ga qarshi kurash e'lon qildilar. Vaholanki, bu ikki sahoba o'z davrining muhtaram insonlaridan edi.

Yuqoridagi so'zlar quyidagi tarixiy hodisa bilan bog'liq. 657-yilda musulmonlar o'rtasida hokimiyat masalasida yuzaga kelgan ilk ixtiloflardan biri "tahkim" voqeasi bilan tugadi. "Tahkim" hukm chiqarish ma'nosini anglatadi. Bu voqeada o'zaro ixtilof qilgan ikki taraf orasidan hakamlar saylanib, ularning kelishuvi orqali barchani birlashtiradigan umumiy xulosaga kelindi. Bir tomondan Abu Muso al-Ash'ariy, ikkinchi tomondan Amr ibn Os hakamlilik qilgan ushbu voqeada, Ali va Muoviya (r.a.)

o'rtalarida yagona bitim yuzaga keldi. Unga ko'ra Ali ibn Abi Tolib Kufada, Muoviya ibn Abiy Sufyon Shomda hukmronlik qiladigan bo'ldi. Ta'kidlash joiz, mana shu hodisa tarixiy asarlarga "Tahkim voqeasi" nomi bilan kirdi. Bu hodisadan keyin sunniylikdan ikki yo'nalish – xorijiy va shia yo'nalishlari ajralib chiqdi. Xorijiyalar Ali ibn Abi Tolibning bitimga qo'shilganiga norozilik bildirdilar, shialar uning tarafini olishda haddan oshib ketdilar. Xorijiy toifasi hakamlarning kelishib hukm chiqarishidan qattiq norozi bo'lib, "hukm faqat Allohga xos", ya'ni bandasi hukm qilishi mumkin emas, degan fikrda turdi. Bir tomondan qaralganda, insonlar ustidan faqat Yaratgan Parvardigor hukm chiqaradi, hech kim birovga "sen undoq, oqibating mundoq" deb, o'zicha tamg'a yopishtirishga haqi yo'q. Ammo xorijiyalarning maqsadi bunday emasdi. "Hukm Allohga xos" deyishlaridan maqsad birdamlik emas, balki janjal chiqarish va qonli ixtilofga yo'l ochish edi. Ularning g'arazlarini anglagan Ali ibn Abi Tolib (r.a.) asrlar davomida buzg'unchi oqimlarning asl qiyofasini ochib beradigan va bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan mashhur iborani aytdi: "Botil maqsadlarni ko'zlagan haq so'z!"

Mutaassib oqimlar turli shiorlarni o'zlariga bayroq qilib oladilar. Dunyoni adolat va farovonlikka to'ldirishni, kishilarni esa to'g'ri jannatga eltishlarini e'lon qiladilar. Bu va'dalar faqat mol-dunyo to'plash va hokimiyatni qo'lga olish kabi g'arazli maqsadlar yo'lidagi iddaolar ekanini tarix va zamon takror-takror isbotlamogda.

Xorijiyalar Ali ibn Abi Tolibga qarshi bosh ko'tarish bilan kifoyalanmadilar. Balki, hakamlarning kelishuviga rozi bo'lganlarni kofirga chiqarib, o'limga hukm qildilar. Oqibatda, ko'plab kishilar, hatto ayollar va bolalar shafqatsizlarcha qatl qilindi. Xalifa Ali bu holatga chidab tura olmadi: xorijiyalarga Abdulloh ibn Abbos (r.a.) kabi sahobalarni yuborib, ularni to'g'ri yo'lga chaqirdi. Yana bir mashhur sahoba Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) ham ularga nasihat qildi. Ammo bu harakatlar zoye ketib,

isyonchilar haddan oshib, insonlarga zug'um qilishda davom etaverganidan keyin Ali ular bilan jangga qirib, Ko'fa yaqinidagi Haruro qishlog'ida to'plangan 12 mingga yaqin xorijiyning deyarli barchasini qirib tashladi. Ulardan 8 yoki 9 kishigina qochib qutuldi. E'tiborli jihati, Ali ibn Abi Tolib bunday buzg'unchilik qayta sodir etilmasin, degan maqsadda o'ldirilganlarni janozasiz ko'mishga buyurdi.

Buyuk faqih Burhoniddin Marg'inoniy o'zining mashhur "Hidoya" kitobida "Yo'lto'sarlik qilgan va rahbarga qarshi bosh ko'targan toifadan birortasi vafot etsa, unga janoza o'qilmaydi" degan hukmni bayon qilib, Ali (r.a.)ning xorijiy'larga janoza o'qimaganini isbot sifatida keltirgan.

Taniqli islom ulamolari bugungi kunda dunyoda islom nomidan unga dog' tushirishga urinayotgan, o'zlarini "chin musulmon" deya atab, boshqalarni kofirga chiqarib, ularga qarshi kurash e'lon qilgan barcha ekstremistik guruh'larni har xil nom bilan emas, balki "xorijiy" degan yagona ism bilan atash g'oyasini ilgari surganlar.

### 1.3. Shialikning kelib chiqishi

Shia so'zi lug'atda, «tarafkash» ma'nosini anglatadi. Istilohiy ma'noda shia – Ali ibn Abi Tolib va uning avlodlarini barchadan ustun qo'yish oqibatida musulmonlardan ajralib chiqqan yo'nalish hisoblanadi.

Ilk davrida sunniylikdan faqat rahbarlik masalasidagina farq qilgan shialik, bora-bora aqidaviy va fiqhiy masalalarda ham undan ajralib alohida yo'nalishga aylandi. Shialik ta'limoti sunniylikdan quyidagi masalalarda farq qiladi:

**Imomat** – shialik bo'yicha musulmonlarga faqat Ali (r.a.) va uning avlodlaridan bo'lgan diniy arbob rahbar bo'lishi mumkin.

**Ismat** – shialar o'z imomlarini begunoh, ma'sum deb hisoblashadi. Sunniylik bo'yicha ma'sumlik insoniyatdan faqat payg'ambarlarga xos hisoblanadi.

**Ilhom** – shialar o‘z imomlari haqida ular Qur’oni karimning boshqalar bilmagan botiniy ma’nosini ham biladi, bu ma’nolarni imomlarimizga Alloh ilhom qiladi, ilhom orqali ular juda ko‘p ilmlarni anglaydilar, degan fikrdalar.

**G‘aybat** – shialar o‘zlarining so‘nggi imomlari Mahdiyi Muntazarni g‘oyibona olamga ketgan va ayni paytda tirik, deb hisoblaydilar.

**Raj‘at** – shia toifasi g‘ayb olamiga ketgan Mahdiyi Muntazar vaqti kelib, albatta qaytadi, deb hisoblaydi va doimo so‘nggi imomning qaytishiga umid bilan hayot kechiradi.

**Vasiyat** – Payg‘ambar (a.s.) o‘zidan so‘ng Ali (r.a.) xalifa bo‘lishini vasiyat qilgan deb hisoblaydilar va shuning uchun ham o‘z imomlarini “avsiyo”, ya’ni vasiyat qilinganlar deb ulug‘laydilar.

**G‘adir kuni** – shialarga xos bayram bo‘lib, bu kunda ularning e’tiqodi bo‘yicha Muhammad (a.s.) o‘zidan so‘ng Ali ibn Abi Tolibni xalifa qilib tayinlagan.

**Taqiya** – o‘z e’tiqodini berkitish, oshkor qilmaslikni muhim amal deb biladilar. Ular “kimning taqiyasi bo‘lmasa, uning dini ham yo‘q”, deb hisoblaydilar.

**Mut‘a** – vaqtinchalik nikohni joiz va savobli deb biladilar.

**Motam** – har yili Muharram oyining 10 kunida 49/680-yilda Iroqning Karbalo dashtida halok bo‘lgan Imom Husayn ibn Aliga motam tutadilar. Bugungi kunda shialar uchun odatiy bo‘lib qolgan ushbu marosim, zamonaviy adabiyotda “shaxsey-vaxsey” nomi bilan yuritiladi. Bu so‘z semantik jihatdan “Oh, Husayn, voh, Husayn” deb faryod urilishining o‘zgargan shaklidir.

Shialik Payg‘ambardan so‘ng Ali ibn Abi Tolib rahbar bo‘lishi kerak degan da’vo asosida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ali ibn Abi Tolib (r.a.)ning o‘zi bu holatdan bexabar bo‘lgan. Binobarin, mazkur yo‘nalish siyosiy tarafkashlik sababli yuzaga kelganini ta’kidlash joiz.

## Asosiy tayanch tushunchalar:

**Islomdagi yo'nalish** deganda muayyan e'tiqodiy masala asosida birlashgan musulmonlar majmuasi tushuniladi

**Sunniylik yo'nalishi** – sunnatga va jamoaga ergashuvchilarni anglatadi.

Sunniylik yo'nalishiga **moturidiya** yoki **ash'ariya** aqidaviy ta'limotiga hamda to'rt fiqhiy mazhab: **hanafiy, molikiy, shofei** va **hanbaliy** mazhablaridan biriga ergashuvchilar kiradi.

657-yilda musulmonlar o'rtasida hokimiyat masalasida yuzaga kelgan ilk ixtiloflardan biri "**tahkim**" voqeasi bilan bog'liq. "**Tahkim**" hukm chiqarish ma'nosini anglatadi. Bu hodisadan so'ng sunniylikdan ikki yo'nalish – xorijiylik va shialik ajralib chiqdi.

**Xorijiylik** – musulmonlar orasidan ajralib chiqib, rahbarlarga qarshi bosh ko'targan oqimdir. Xorijiylik **asosan** ikki masalada, ya'ni gunohkor musulmonning hukmi va rahbarga itoat masalasida "Ahli sunna va-l-jamo'a"ga zid qarashlarni ilgari surdilar.

**Shia** so'zi lug'atda, «tarafkash» ma'nosini anglatadi. Istilohiy ma'noda shia – Ali (r.a.) va uning avlodlarini barchadan ustun qo'yish oqibatida musulmonlardan ajralib chiqqan yo'nalish hisoblanadi.

### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Islomdagi yo'nalishlar deganda nima tushuniladi va nechta yo'nalish mavjud?
2. Sunniylik mohiyati nimada va uning asosiy tamoyillari qaysilar?
3. Sunniylikka qaysi ta'limot va mazhablar kiradi?
4. Sunniylikdan ikki yo'nalish ajralib chiqishiga sabab bo'lgan voqea qanday nomlangan va u haqda nimalarni bilasiz?
5. Xorijiy so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari qanday?
6. Xorijiylik qanday asos ostida birlashgan yo'nalishdir?

7. Shia atamasi qanday ma'nolarga ega?
8. Shialikning asosiy tamoyili nimadan iborat?
9. Bugungi kunda xorijiy atamasini kimlarga nisbatan ishlatish mumkin?
10. Olimlar ittifoqiga ko'ra to'g'ri yo'lni tutgan deya e'tirof qilingan yo'nalish qaysi?

**Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan  
manba va adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T. : O'zbekiston, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri. –T.: Adolat, 1998.
5. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000.
6. Husnidinov Z., Abdusattorov A. Islomdagi oqimlar: xorijiyalar va shialik. O'quv-uslubiy qo'l. –T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyat-matbaa birlashmasi, 2002.
7. A.Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. O'quv qo'l. –T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyat-matbaa birlashmasi, 2002.
8. Abdulvahob Xalof. Usulul fiqh : islom qonunchiligi asoslari. –T.: Movarounnahr, 1999.
9. Abu Iso Muhammad At-Termiziy. Sunani Termiziy. –T.: Adolat, 1999.
10. Al-Hakim at-Termiziy. Hadislarning biz anglagan va anglamagan hikmatlari. Tarjimon: I.Usmonov. –T.: Movarounnahr, 2006.

11. Abdullayev A. Qur'onshunoslik. –T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.

12. Buxoriy. Sahihi Buxoriy. Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur. –T.: Movarounnahr, 2008.

13. Mansurov A. va boshq. Hadis ilmi saboqlari. O'quv qo'l. –T.: G'G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.

14. Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim Al-Bursaviy. Ahli sunnat val-jamoat aqoidi. Mas'ul muharrir va so'ngso'z mual.: Hoji Sayfiddin Sayfulloh. – T.: Movarounnahr, 1999.

15. Abdulkarim Shahrisoniy. Al-milal van-nihal. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992.

16. Abdulqohir Bag'dodiy. Al-farq baynal-firaq. –Bayrut: Al-Maktaba al-asriya, 1996.



## 2-BOB. ISLOMDA MAZHABLARNING SHAKLLANISH OMILLARI

- 2.1. Fiqh ilmining taraqqiy etishi
- 2.2. Islom fiqhi asoslari
- 2.3. Ijtihod va mujtahidlar
- 2.4. Mazhablarning yuzaga kelishi
- 2.5. Fiqhiy mazhablarga ergashish va mazhabsizlikdan saqlanish zarurati

### 2.1. Fiqh ilmining taraqqiy etishi

Islomda mazhablarning yuzaga kelishi bu bevosita fiqh tarixi bilan bog'liq. «Fiqh» so'zi lug'atda "tushunish", "fahmlash" ma'nosida bo'lib, arab tilidagi «ilm» (ya'ni, bilish) so'zidan ko'ra chuqurroq ma'noni anglatadi. Uning lug'aviy ma'nosi «biror narsani uning nozik jihatlarigacha tushunish, anglab yetish»ni bildiradi.

Istilohda esa fiqh shar'iy dalillardan far'iy hukmlar chiqarishni anglatadi. Shar'iy dalillar deganda Qur'oni karim va hadisi sharif tushuniladi. Far'iy hukmlardan murod esa ibodat va muomalotga oid hukmlardir. Sodda ifoda etganda, Qur'on oyatlarida yoki hadislarda muayyan ishni qilish yoki qilmaslik bayon qilinsa, fiqh ana shu ishni qanday holat va suratda bajarish lozimligini sharhlaydi. Masalan, islomning besh arkoni imon, namoz, ro'za, zakot va haj haqida Qur'onda oyatlar bor. Lekin, ularga oid hukmlar, xususan, namoz necha rakaat, ro'zaning sunnatlari qaysi, zakotni ado qilishda niyat shartmi shart emasmi, hajning farzlari nechta kabi savollarga fiqh ilmi orqali javob topiladi. Bu ilm bilan shug'ullangan olimlar faqihlar deb ataladi.

Faqih – fiqh ilmi bilimdoni, shariatning mohiyatini anglagan va boshqalarga tushuntirib bera oladigan olim. Zero, yana bir ta’rifda: “Fiqh – bu Alloh taolo o’z payg’ambari Muhammad (s.a.v.) orqali nozil qilgan shariatni teran fahmlamoqdir”, deyilgan.

Fiqh ilmining rivoji bevosita islom dini tarixi bilan bog’liqdir. Muhammad (a.s.) davrida kishilarda biror hukm borasida savol tug’ilsa, u zotga murojaat qilar edilar. Payg’ambar bu savolga javob berar ekan, yuzaga kelgan masalalarni qanday hal qilish yo’lini o’z sahobalariga ta’lim bergan. Bu borada quyidagi mashhur hadis rivoyat qilingan. Muhammad (s.a.v.) Muoz ibn Jabal (r.a.)ni Yamanga yuborayotganida undan so’radi:

“Agar sen biror masalani hal etishing lozim bo’lsa, qanday qilib hukm chiqarasan?” Muoz: “Allohning kitobi ila hukm chiqaraman” dedi.

- Allohning kitobidan hukm topa olmasang-chi?
- Rasululloh sunnati ila hukm chiqaraman.
- Rasululloh sunnatidan ham topa olmasang-chi?
- Masalani hal etish uchun o’z ra’yim–tafakkurim bilan bor salohiyatimni ishga solib harakat qilaman, lekin to’xtab qolmayman.

Shunda Muhammad (s.a.v.): “Rasululloh elchisini Alloh va uning rasuli rozi bo’ladigan narsaga muvaffaq qilgan Allohga hamdu sano bo’lsin”, dedi.

Mazkur hadisdan ko’rinib turibdiki, ilk islom davrida fiqh ilmiga targ’ib va tashviq qilingan. Shu o’rinda islom shariatida masalalar asosiy shar’iy manbalar bo’lmish Qur’on va hadis asosida, agar bu ikki manbada javob ochiq bayon qilinmagan bo’lsa, unda ra’y va ijmo’, ya’ni tafakkur va ko’pchilik faqihlarning birgalikda yakkilik bilan qabul qilgan qarori orqali hal etilishiga e’tibor qaratish zarur. Binobarin, fiqh ilmida asosiy manbalar bilan birga rasional tafakkurga ham keng e’tibor berilgan.

Sahobalar bir shaharda faoliyat yuritmay, turli o’lkalarga tarqalib ketganlarida fiqh ilmi ham tarqatildi.

Tashkent islom universiteti

Axborot-raqam markazi

Inv. № 21867

20 vil

turlicha taraqqiy etgan. Shariatning asosiy manbalarida aniq bayon qilingan masalalarda barcha faqihlar yakdil bo'lganlar. Lekin ra'y va qiyos orqali hukm chiqarganda, albatta, biri-biridan olisda, turli iqlim va sharoitlarda faoliyat yuritgan faqihlarning chiqargan fatvolari farqli bo'lishi tabiiy.

Payg'ambar (a.s.)dan keyin sahobalar davrida fiqh ilmi rivoj topdi. Lekin, sahobalarning adadi mashhur rivoyatga ko'ra yuz ming ekani, ularning orasida ham boshqalardan ko'ra fiqhni yaxshi biluvchilari tanilgani va biror savol tug'ilib qolsa mazkur faqih sahobalarga ko'pchilik murojaat qilganini qayd etish o'rinli. Masalan, sahobalar orasida "Abodilai arba'a", ya'ni "To'rt Abdulloh" nomi bilan tanilgan faqihlar alohida ehtiromga sazovor bo'lgan. Ular Abdulloh ibn Mas'ud, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar va Abdulloh ibn Amr ibn Os (r.a.)lar edi. Yoki xulafoi roshidindan Abu Bakr Siddiq (r.a.)ning boshqa sahobalardan ilmda ustunligi naql qilingan. Umar ibn Xattob va Usmon ibn Affon (r.a.)lar haqida ham shunday deyish mumkin. Ali ibn Abi Tolibning ilmda mohir ekani haqida esa Umar ibn Xattob: "Agar Ali bo'lmaganida Umar halok bo'lar edi", deya e'tirof etgani ma'lum. Sahobalar adadi ko'p bo'lsa-da, lekin ularning orasida ba'zilari fiqh borasida alohida tanilib, boshqalar shu sahobalarga murojaat qilganlari tarixiy manbalarda o'z ifodasini topgan.

Sahobalardan so'ng ularning izdoshlari bo'lmish tobeinlar davrida ham fiqh ilmi rivoj topdi. Aynan shu davrda turli o'lkalarda ilk fiqh maktablari yuzaga keldi. Bu, o'z navbatida, islom dinida bir qancha fiqhiy mazhablarning shakllanishiga olib keldi.

## 2.2. Islom fiqhi asoslari

Islom fiqhining birlamchi to'rt asosi borasida ulamolar ittifoq qilganlar:

**1. Qur'oni karim.** Bu Alloh taoloning o'z payg'ambari Muhammad (s.a.v.)ga nozil qilgan kitobidir. Har bir faqih biror narsaning hukmi qanday ekanini bilmog'chi bo'lsa, avvalo, Qur'onga murojaat qiladi. Undagi mavjud hukmni hech ikkilanmay qabul qiladi.

**2. Sunnat.** Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari va taqirirlaridir. Rasulullohning huzurida birov biron ishni qilgan bo'lsa va unga e'tiroz bildirmagan bo'lsalar, "taqirir" deyiladi.

**3. Ijmo'.** Bir davrda yashab ijtihod darajasiga yetgan ulamolarning muayyan masalani yakdillik ila qabul qilishlariga «ijmo'» deyiladi.

**4. Qiyos.** Biron bir masalaning javobi topilmasa, uni o'ziga o'xshash bo'lgan hamda Qur'on va hadisda yechimi aniq bayon qilingan masalaga solishtirish orqali hukm chiqarish qiyos, deb ataladi. Ushbu eslatilgan to'rt asosiy manbadan tashqari faqihlar suyanadigan yana ba'zi qo'shimcha manbalar ham bor.

E'tibor berilsa, fiqh sohasining to'rt jihati borligini anglash mumkin.

Birinchi jihat – fiqhning manbalari, asoslari. Ya'ni, Qur'oni karim, hadisi sharif, ijmo' va qiyos.

Ikkinchi jihat – mazkur manbalarni yaxshi o'zlashtirgan, ularning ma'nolarini puxta anglagan faqihlardir.

Uchinchi jihat – faqihlarning oyat va hadislarini izohlab berishi orqali yuzaga kelgan fatvo va hukmlar. Masalan, dunyoga mashhur "Hidoya" asari ana shunday masalalar to'plamidir. Yoki "Muxtasar", "Ibodati islomiya" singari shar'iy masalalar sodda va ravon bayon etgan asarlarni bu borada misol qilib keltirishimiz mumkin.

To'rtinchi jihat – har bir musulmon uchun zarur bo'lgan fiqhiy bilim va ko'nikmani hosil qilishdir. Ya'ni, ommaga tegishli holat. Inson qaysi ishni qilish yoki qilmaslik lozimligini bilishi, foyda va zararni ajrata olishi bu fiqhdir. Imom A'zam (r.h.) bu

to'g'rida shunday degan: "Fiqh bu inson o'z nafi uchun foydali va zararli holatlarni bilib olishidir". Keyinchalik uning shogirdlari bu ta'rifga "amaliy jihatdan" degan iborani qo'shdilar. Sababi, ilk islom davrida fiqh deganda aqida, tafsir, hadis, faroiz va hokazo shariat ilmlarining barcha sohalarini birgalikda tushunilar edi. Vaqt o'tishi bilan har bir soha alohida yondashuv zaruratini taqozo qilganidan fiqh boshqa shar'iy bilimlardan ajralib chiqdi. Shuning uchun ham Imom A'zamning fiqh ilmiga bergan ta'rifga shogirdlari "amaliy jihatdan" degan iborani qo'shdilar. Oqibatda fiqh istilohi faqat amaliy hukmlargagina ishlatila boshladi. Alioma Ibn Xalidning ta'rifida ham bu mazmun yaqqol namoyon: "Fiqh mukallaf bandalarning amallariga taalluqli bo'lgan Allohning vojib, mamnu', mustahab, makruh va muboh kabi hukmlarini bilmoqdir". Ko'rinib turibdiki, faqihlar bayon etgan fiqhiy masalalar asosan uch turga bo'linadi:

Birinchisi – musulmon kishi amal qilishi lozim bo'lgan hamda evaziga savob va'da qilingan hukmlar. Ular farz, vojib, sunnat va mustahab kabilarga bo'linadi.

Ikkinchisi – musulmon kishi saqlanishi lozim bo'lgan, agar qilsa, gunoh va uqubatga sazovor bo'ladigan hukmlar. Ular harom, makruh va muhsid kabilarga bo'linadi.

Uchinchi tur – mubohdir. Bu turga kiruvchi ishlarni qilish va qilmaslik barobardir. Binobarin, mubohga savob ham, gunoh ham yo'q.

### 2.3. Ijtihod va mujtahidlar

Ma'lumki, Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarning adadi chegaralangan. Hayotda sodir bo'ladigan turli muammolar, yuzaga keladigan har xil savollar sanog'i esa chegaralanmagan. Demak, har bir masalaga oyat yoki hadisdan to'g'ridan to'g'ri javob topish mushkul. Shuning uchun Qur'on va hadisda yechimi bevosita bayon qilinmagan masalalarda fiqh ilmi olimlari – faqihlar uchun ijtihod qilishga ruxsat qilingan.

“Ijtihod” so‘zi lug‘atda biror maqsadga erishish yo‘lida bor imkoniyatni sarflash ma‘nosini bildiradi. Ijtihodning istilohiy ma‘nosi faqihning butun salohiyatini Qur‘on va hadisda hukmi aniq-ravshan bayon qilinmagan masalaning yechimini topishga sarflashini anglatadi. Masalan, Qur‘oni karimda savdo-sotiq haqida sanoqli oyat kelgan. Bu boradagi hadislar soni ham ko‘p emas. Biroq, oldi-sotdi masalalarga bag‘ishlangan alohida kitoblar tasnif etilgan. Yuzaga kelgan minglab savollarga javob berilgan. Savdo haqida islom manbalarida dalillarning ko‘p emasligi e‘tiborga olinsa, olimlarning ijtihodi orqali ko‘p masalalarga yechim topilganini e‘tirof etish mumkin.

Ijtihod qiluvchi olimga «mujtahid» deyiladi. Har bir olim ham mujtahid bo‘lavermaydi. Balki mujtahid ilmning kamida beshta sohasini mukammal bilishi zarur bo‘ladi:

1. Qur‘oni karim oyatlarini, ularning ma‘nolari, nozil bo‘lish sabablarini eng nozik jihatlarigacha yoddan bilishi.

2. Hadisi shariflarni, ularning ma‘no–murodlari hamda roviylari bilan yoddan bilishi.

3. Sahoba va tobe‘inlar hamda o‘zidan oldin o‘tgan mujtahid olimlarning fatvolarini yaxshi bilishi.

4. Qiyos ilmini yaxshi bilishi.

5. Arab tilini mukammal bilishi.

Bu talablar mujtahidlikning eng quyi martabasi uchun qo‘yilgan. Ayrim manbalarda mujtahid darajasiga yetish uchun ilmning o‘n ikki xil sohasini bilish zarur deyilgan. Bunda nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar ham nazarda tutilgan. Masalan, mashhur “Hidoya” asarining tahorat kitobida inson burnidan keladigan suyuqlik ikki turga bo‘linishi, birinchi turi miyadan kelishi, ikkinchi turi ko‘krakdan kelishi, bularning qaysi biri tahoratni ketkazish-ketkazmasligi to‘g‘risida bahs boradi. Demak, mazkur masalada munozara qilgan faqihlar inson tanasida kechadigan o‘zgarishlardan, boshqacha ifoda etganda, bugungi kundagi anatomiya, biologiya kabi fan sohalaridan xabardor

bo'lganlar. Shuningdek, qiblani topish, oy kunlarini aniqlash uchun astronomiyani, meros masalalarini hal etish uchun matematikani bilish kerak bo'lgan. Al-Xorazmiy Qur'ondagi merosga oid masalalarni yechish yuzasidan hisob-kitob olib borib, algoritimga asos solgani haqidagi ma'lumot barchaga yaxshi tanishdir.

O'tmishda o'tgan har bir mujtahid o'zi yashayotgan diyor shart-sharoitini ham yaxshi bilgan va bu muhit uning fatvolarida o'z aksini topgan. Shuning uchun turli diyorlardagi mujtahidlarning ba'zi masalalar bo'yicha bergan fatvolari ham bir-biriga o'xshash bo'lmagan. Masalan, Imom Shofeiyy (r.h.) Hijozda yashayotganida bir fatvoni bergan bo'lsa, Misrga borganidan so'ng u yerdagi shart-sharoit taqozosidan kelib chiqib, boshqacha fatvo bergan. Yoki bir masala bo'yicha Iroqda yashagan Imom Abu Hanifa (r.h.) bilan Madinada yashagan Imom Molik (r.h.) ning fatvolari bir biridan farq qilgan. Har bir musulmon islom hukmlariga o'z diyorlaridagi mujtahidlarning fatvolariga muvofiq amal qilgan. Shu yo'l bilan fiqhiy mazhablar yuzaga kelgan.

#### 2.4. Mazhablarning yuzaga kelishi

Mazhab so'zi arabcha "yo'l, yo'nalish" ma'nosini bildirib, istilohda esa "biror diniy masala bo'yicha muayyan mujtahid olimning fatvosiga ergashish" ma'nosini bildiradi. Ilk islom davrida mazhablar ko'p bo'lgan. Ammo vaqt o'tishi bilan ulardan to'rttasi: hanafiy, molikiy, shofeiyy, hanbaliy mazhablari ajralib chiqqan. Bu to'rt mazhab ikki aqidaviy ta'limot: moturidiya va ash'ariya bilan birgalikda "Ahli sunna val-jamo'a" deb ataladigan sunniylik yo'nalishini tashkil etadi.

To'rtinchi hijriy asrgacha ko'plab mujtahidlar faoliyat olib borgan, har birining o'ziga xos uslubi, yo'nalishi bo'lgan va ko'plarining o'z mazhablari bo'lgan. Abdulvahhab ibn Ahmad ash-Sha'roniy (vaf. 973/1565) o'zining "al-Miyzan ash-sha'roniyya" asarida quyidagi mazhablarni zikr qilgan:

1. Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) (vaf. 32/653) mazhab.
2. Oisha (r.a.) (vaf.58/678) mazhab.
3. Abdulloh ibn Umar (r.a.) (vaf. 73/692) mazhab.
4. Umar ibn Abdulaziz ibn Marvon ibn Hakam (vaf. 101/720) mazhab.
5. Mujohid ibn Jobir (vaf. 104/722) mazhab.
6. Sha'biy (vaf. 103/721) mazhab.
7. Ato ibn Abu Raboh (vaf. 114/732) mazhab.
8. Al-A'mash Sulaymon ibn Mehron (vaf. 148/765) mazhab.
9. Imom A'zam (vaf. 150/767) mazhab.
10. Sufyon as-Savriy (vaf. 161/778) mazhab.
11. Lays ibn Sa'd (vaf. 175/791) mazhab.
12. Imom Molik (vaf. 179/795) mazhab.
13. Sufyon ibn Uyayna (vaf. 198/814) mazhab.
14. Imom Shofe'iy (vaf. 204/820) mazhab.
15. Is'hoq ibn Ibrohim ibn Rohavayh (vaf. 238/852) mazhab.

16. Imom Ahmad (vaf. 241/855) mazhab.

17. Dovud Zohiriy (vaf. 270/884) mazhab.

18. Muhammad ibn Jarir Tabariy (vaf. 310/923) mazhab.

Ushbu mujtahidlar asos solgan mazhablarning hammasi ham o'z vaqtida amalda bo'lgan. Lekin vaqt o'tishi bilan muayyan omillarga ko'ra bu mazhablarning orasidan to'rt mazhab ajralib chiqdi. Bizningcha, to'rt mazhab saqlanib qolishining asosiy sababi bu mazhablar ta'limotlari boshqa mazhablardan kuchliroq ekani emas, balki to'rt mazhab boshqa o'n to'rt mazhab ta'limotini ham qamrab olganidir. Masalan, hanafiy mazhabining shakllanishida Abdulloh ibn Mas'ud mazhabining ta'siri ko'zga tashlanadi. Zero, Abdulloh ibn Mas'ud Kufada asos solgan fiqhiy maktabni uning shogirdi Alqama davom ettirdi. Alqamadan Ibrohim Naxa'iy, Naxa'iydan esa Hammud ibn Abi Sulaymon fiqh ilmini o'rgandi. Hammud ibn Abi Sulaymonning eng yaqin va asosiy shogirdi bo'lib Imom A'zam tanildi.



Imom A'zam fiqh ilmini o'rgangan ustozlari qatorida Umar ibn Xattob izdoshlarini zikr etgan. Demak, Abu Hanifa mazhabi o'zida Ibn Umar mazhabini ham aks ettirgan degan xulosaga kelish o'rinli. Imom Molik Nofedan, Nofe' Abdulloh ibn Umardan, Ibn Umarning Rasul alayhissalomdan rivoyat qiladigan hadislar sanadi muhaddislar tomonidan "Oltin sanad" deya e'tirof etilgan. Bundan Imom Molik va Abdulloh ibn Umar mazhablari o'rtasida o'ziga xos bog'liqlik mavjud bo'lgani kelib chiqadi. Imom Shofeiyy yoshligida Sufyon ibn Uyaynaning ilmiy majlislarida ishtirok etgani ma'lum. Shu tarzda mazhablar orasidagi bog'liqlik va o'xshash jihatlar haqida ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Ibn Rajab al-Hanbaliy (vaf. 795/1393) o'zining "To'rt mazhabni inkor qiluvchilarga raddiya" asarida ko'plab mazhablar orasidan aynan to'rt mazhab saqlanib qolganini Qur'oni karimning yetti qiroatidan faqat bittasi qolganiga o'xshatadi. Ma'lumki, Payg'ambar (a.s)ga Qur'oni karim yetti xil lahjada nozil bo'lgan. Keyinchalik islom dini atrofga keng yoyilib, musulmonlarning soni ortib bordi va qiroat borasida ular o'rtasida ba'zi ixtiloflar kelib chiqqach, Usmon ibn Affon (r.a.) yetti qiroatdan faqat bittasini qoldirishga qaror qildi. Oqibatda bugun yer yuzi musulmonlari Qur'onni faqat bir qiroatda o'qiydilar. Demak, ko'plab mazhablar orasidan faqat to'rttasining saqlanib qolgani asrlar davomida insonlarni turli ziddiyatlar va ixtiloflardan himoya etishda asos bo'lgan.

## **2.5. Fiqhiy mazhablarga ergashish va mazhabsizlikdan saqlanish zarurati**

Musulmonlarning orasida hidoyat yo'lidan adashmagan, mo'tadil va bag'rikeng, musaffo e'tiqodli, pokiza diyonatli, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda "dili poku, tili pok" yo'nalish sifatida aynan sunniylik e'tirof etilgan. Zero, dil va til birligi sunniylik asosini tashkil etadi. Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, musulmon kishi dunyo va oxirat saodatiga

erishmog'i uchun aqidada ham, fiqhda ham sunniylikdagi biron-bir mazhabga mansub bo'lmog'i zarur ekan. Lekin, hamma ham bu haqiqatni birdek tan olmaydi. Tarixda ham, hozirda ham mo'min-musulmonlarni turli adashgan firqalarga chorlash holatlari uchrab turgani, bu holat hatto mazhablarni inkor qilishga olib kelgani ma'lum. Shuning uchun islomning mohiyatini to'g'ri anglagan olimlar, ta'bir joiz bo'lsa, sohaning zabardast mutaxassisleri to'rt mazhabdan biriga ergashish lozim ekanini ta'kidlashgan va mazhablarni inkor qiluvchilarga ilmiy asosda raddiyalar berishgan. Xususan, suriyalik mashhur olim Muhammad Said Ramazon Butiy "Mazhabsizlik – islom shariatiga tahdid soluvchi eng katta bid'at" deya ta'kidlab, mazkur muammoga bag'ishlangan alohida asar ta'lif etgan. Olim bu asarida mazhabsizlikni dinsizlikka olib boruvchi ko'priq, deya baholagan. Sababi, islom dinining mohiyati uning mazhablarida ifodalab berilgan. Mazhabsizlik – islomning asl ta'limotidan uzoqlashish bo'lib, dinning asl ta'limotidan yiroq bo'lish, oqibatda shu dindand judo bo'lishga olib borishi ma'lum.

Olimlar va faqihlarning asrlar davomida Qur'on hamda sunnat ma'nolarini ommaga tushuntirib berish yo'lidagi tinimsiz mehnatlari sabab mazhablar, ya'ni islom ta'limotidagi asosiy yo'nalishlar yuzaga keldi. Mazhablar mohiyati va ahamiyatini mantiq hamda tafakkur asosida quyidagicha izohlash mumkin.

Temirdan asbob-uskuna yasashni boshlagan inson, zamonlar o'tib bugun undan samolyot yasamoqda va samoda sayohat qilmoqda. "Talgo" kabi tezyurar poyezdlarda qisqa muddatda shaharlararo qatnamoqda. Endi bir odam shuncha mutaxassisning mehnatini inkor qilib, men o'z tafakkurim bilan poyezd yoki samolyot yasashni qaytadan kashf etaman va oldingilaridan zo'r qilib, mutlaqo boshqacha shaklda yasayman, ularda ishlatilgan texnologiyalarning birortasini ishlatmayman hamda o'zim yasagan jihoz bilangina osmonga uchaman yoki uzoqlarga

qatnayman desa to'g'ri bo'ladimi? Yo'q, albatta. Mazhablarni inkor qilish ham xuddi shuning o'zi.

Tayyor pishirilgan nonni yemay, har bir odam o'zi uchun bug'doy ekib, o'rib, tegirmondan o'tkazib, tandir qurib, xamir qorib, non yasab, pishirib, undan keyingina yeyishi mantiqsizdir. Toqqa hamma bir yo'ldan borib qaytaversa-yu, kimdir tayyor yo'lni tashlab, hayotini tahlikaga qo'yib, tikka tepalikka yolg'iz o'zi o'rmlashni o'ylashi asossizdir. Elektrni qaytadan kashf qilish yoki velosipedni qayta ixtiro qilishga hojat bormi?!

Ko'plab olimlar necha yillar davomida mehnat qilib, islom ta'limotini kishilar tushunadigan sodda shaklda bayon qilib bersalar-da, kimdir buni inkor qilib, o'zim yo'l topmaguncha bu olimlar yo'lidan yurmayman va Qur'on ma'nolari, hadisi shariflarning hukmlari kabi g'oyat serqirra va purma'no manbalardan o'zim uchun qayta fatvo olaman, deyishi asossizdir. Zero, dunyoning taniqli olimlari sunniylikdagi mazhablarning haq yo'l ekaniga ittifoq qilganlar va ularning bu masalada yakdil fikrda ekani bir yo' ikki emas, qariyb o'n asrdan beri davom etib kelayotgani barchaga ma'lum haqiqatdir. Endi, to'g'ri yo'l qolib, "o'zgacha" yo'lni "taklif" qilayotganlar xolis emasligi, albatta, ularda g'araz borligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

**Fiqh** so'zi lug'atda "tushunish" ma'nosida bo'lib, ilm (ya'ni, bilish)dan ko'ra chuqurroq ma'noni anglatadi. Uning lug'aviy ma'nosi «biror narsaning nozik joylarigacha tushunish, anglab yetish»ni bildiradi. Istilohda esa fiqh shar'iy dalillardan far'iy hukmlar chiqarishni anglatadi.

**Faqih** – fiqh ilmi bilimdoni, shariatning mohiyatini anglagan va boshqalarga tushuntirib bera oladigan olim.

**Ijtihod** – lug'atda biror maqsadga erishish yo'lida bor imkoniyatni sarflash ma'nosini bildiradi. Ijtihodning istilohiy ma'nosi esa faqihning butun salohiyatini Qur'on va hadisda

hukmi aniq-ravshan bayon qilinmagan masalaning yechimini topishga sarflashga anglatadi.

Ijtihod qiluvchi olimga “**mujtahid**” deyiladi. Mujtahid ilmning kamida beshta sohasini – Qur’oni karim ma’nolari, hadislar mazmuni, o’zidan ilgari o’tganlar fatvolari, qiyos va arab tilini mukammal bilishi zarur.

**Mazhab** so’zi arabcha “yo’l, yo’nalish” ma’nosini, istilohda esa biror diniy masala, muammo bo’yicha muayyan mujtahid olim fatvosiga ergashish ma’nosini bildiradi.

Abdolvahob ibn Ahmad ash-Sha’roniy (vaf. 973/1565) o’zining “al-Miyzan ash-sha’roniyya” asarida 18 mazhabni zikr qilgan.

Suriyalik olim Muhammad Said Ramazon Butiy “**Mazhabsizlik – islom shariatiga tahdid soluvchi eng katta bid’at**” deya ta’kidlab, mazkur muammoga bag’ishlangan alohida asar ta’lif etgan. Olim bu asarida mazhabsizlikni dinsizlikka olib boruvchi ko’prik, deya baholagan.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Fiqh so’zining lug’aviy va istilohiy ma’nolarini izohlang?
2. Shar’iy dalillar deganda nimalarni tushunasiz?
3. Far’iy hukm nima?
4. Faqih atamasi kimlarga nisbatan ishlatiladi?
5. Islom fiqhi asoslari va ularning ta’riflarini bayon qiling?
6. Ijtihod atamasi qaysi sohaga tegishli va uning ma’nolarini bilasizmi?
7. Mujtahid deganda kimni tushunasiz va u qaysi sohalarni mukammal bilishi lozim?
8. Mazhab so’zining ma’nolari haqida nimalarni bilasiz?
9. Mazhablar soni ular shakllanishining ilk bosqichida qancha bo’lgan va ularning asoschilari haqida ma’lumot bering?
10. Mazhabsizlik nima va u qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

## Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan manba va adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. Abdulvahhob Xalloy. Usulul-fiqh. – T.: Movarounnahr, 1999.
3. A.Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. O'quv qo'l. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.
4. Islom ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
5. Husnidinov Z.M. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. –T.: Movarounnahr, 2000.
6. Мухаммад Али ал-Кутб. Основатели четырех мазхабов. –Санкт-Петербург: ДИЛЯ, 2005. .
7. Ирмияева Т. Ю. История мусульманского мира. От халифата до блистательной поры –Челябинск: Урал LTD, 2000.
8. Abdulvahhob Zohid. Hayot al-aimma al-arba'a. –Chonju. Janubiy Koreya,. 2003.
9. Muhammad Abu Zahra. Tarix al-mazahib al-islamiya. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy,1996.

### 3-BOB. AQIDAVIY TA'LIMOTLAR

- 3.1. Aqida va kalom haqida
- 3.2. Moturidiya
- 3.3. Ash'ariya
- 3.4. Moturidiya va ash'ariya o'rtasidagi farqlar

#### 3.1. Aqida va kalom haqida

Aqida so'zining lug'aviy ma'nosi, arab tilidan tarjima qilganda "bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash" ma'nosini anglatadi. Istimohiy ma'noda aqida – musulmon kishi ishonishi va tili bilan iqror qilishi zarur bo'lgan masalalar haqida bahs yuritadigan ilmdir.

Aqida ilmi Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg'mbarlariga, oxirat kuniga, yaxshilik va yomonlikning Alloh tomonidan taqdirlanishi va o'lgandan so'ng qayta tirilishga ishonish, shuningdek, Allohning sifatlari, qazo va qadar masalalari, qabr bilan bog'liq holatlar, jannat, do'zax, sirot ko'prigi, amallarning tarozida tortilishi kabi oxiratga oid masalalardan hamda rahbarlarga itoat qilish, musulmonlar o'rtasida o'zaro oqibat, o'zga din vakillariga munosabat singari dunyoviy mavzulardan tarkib topgan.

Aqida ilmining turli nomlari mavjud: aqoid, e'tiqod, kalom, tavhid, usulud-din kabilar. Bulardan tashqari, zamonaviy tadqiqotlarda mazkur ilm sohasining ilohiyot, ilohiyotshunoslik, islom nazariyasi, islom mafkurasi, islom ideologiyasi kabi nomlari qo'llaniladi.

Islomning ilk davrida aqida alohida fan sifatida shakllanmagan edi. Shuning uchun ham Imom A'zam (r.h.) o'zining aqida borasida yozgan kitobiga "Katta fiqh" deya nom bergan. Zero, Abu Hanifa fiqh ilmini ikki qismga bo'lgan: "Al-fiqhul-akbar", ya'ni "Katta fiqh" va "Al-fiqhul-asg'ar", ya'ni

“Kichik fiqh”. Binobarin, dastlabki davrda e’tiqodga oid masalalar aqida deb emas, katta fiqh deb atalardi. Shuningdek, islom huquqshunosligiga oid amaliy hukmlar kichik fiqh deb atalardi. Keyinchalik aqida sohasi alohida nom bilan ajralib chiqdi. Shundan so’ng fiqh so’zi asosan amaliy xarakter kasb eta boshladi.

Aqidaning alohida fan sifatida shakllanishiga IX-X asrlarda imon-e’tiqod borasida yuzaga kelgan turli ixtiloflar ham muayyan darajada ta’sir ko’rsatdi. Mazkur davr olimlari oldida sof e’tiqod bilan buzg’unchi g’oyalarning orasini ajratib olish va boshqalarga ham tushuntirib berish vazifasi ko’ndalang bo’ldi. Musulmon dunyosining turli joylarida faoliyat olib borgan mo’taziliylar, qadariylar, jabariylar kabi oqimlarning “ahli sunna val-jamoa”dan ajralib chiqishiga sabab bo’lgan omil ham aqidaviy masaladagi ziddiyat edi. Masalan, qadariylar taqdir oldindan belgilangan emas qabilidagi keskin fikrlari sabab, jabariylar insonda hech qanday iroda erkinligi yo’q, u Allohning taqdirida nima yozilgan bo’lsa shuni ado qiladi, degan qarashlari bois ajralib chiqdilar va hokazo ko’plab misollarni keltirish mumkin. Ahamiyatli jihati, bu oqimlar o’z g’oyalarni isbotlash uchun naqliy dalillarning buzilgan talqiniga va aqliy dalillarga suyandilar. Oqibatda kishilar o’rtasida turli ixtiloflar ko’payib ketdi.

Oqimlarning aqida borasidagi iddaolariga ham naqliy, ya’ni Qur’on oyatlari va hadisi shariflar, ham aqliy dalillarga asoslanib raddiya berish asnosida kalom ilmi yuzaga keldi. «Kalom» so’zi arab tilidan tarjima qilinganda «gap», «jumla» ma’nosini bildiradi. Istilohiy ma’noda «kalom – aqidaviy masalalarni nafaqat naqliy, balki aqliy dalillar vositasida asoslab berish»ni anglatadi. Kalom ilmi bilan shug’ullanuvchilar mutakallimlar deb ataladi.

Islom ilmlari turli sohalarga bo’linib, o’z navbatida har bir soha mustaqil fan sifatida shakllanganidan so’ng unda turli yo’nalish va maktablar yuzaga keldi. Fiqhdagi yo’nalishlar «mazhablar» deb atalsa, tasavvufdagi yo’nalishlar «tariqatlar»

deb ataldi. Aqida ilmi sohasidagi yo'nalishlar esa «ta'limotlar» deya nom olgan.

Sunniylik yo'nalishida ikkita aqidaviy ta'limot mavjud:

1. Imom Moturidiy asos solgan moturidiya ta'limoti.
2. Imom Ash'ariy asos solgan ash'ariya ta'limoti.

### 3.2. Moturidiya

Imom Moturidiyning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy as-Samarqandiydir. Alloma tavallud topgan sana tarixiy manbalarda zikr etilmagan. Ammo so'nggi tadqiqotlar natijasida Abu Mansur Moturidiyning tavalludi milodiy 870-yilga to'g'ri kelishi asoslab berildi. U mazkur sanada Samarqandning Moturid mavzeida tug'ilgan. Yoshlikdan ilm-fanga qiziqib, Samarqanddagi hanafiy mazhabi olimlaridan ta'lim olgan. Zero, allomaning ustozlari silsilasi Imom A'zamga borib tutashadi:

**Abu Nasr Ahmad ibn Abbos Iyoziy.** Imom Moturidiy undan ta'lim olgan, keyinchalik ikkalasi birgalikda Abu Bakr Ahmad ibn Is'hoq Jo'zjoniydان ta'lim olganlar. Abu Bakr Jo'zjoniy ilmni Abu Sulaymon Jo'zjoniydان, u esa Imom A'zamning mashhur shogirdi Muhammad ibn Hasan Shayboniydan o'rgangan.

**Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy.** Imom Moturidiyga ustozlik qilgan bu zot o'z davrida Ray shahrining qozisi bo'lgan. Ibn Muqotil Roziy ham Muhammad ibn Hasan Shayboniydan ta'lim olgan, shuningdek, mashhur muhaddis Vaki' ibn Jarohdan hadis rivoyat qilgan. Moturidiyning mazkur ustozidan Imom Buxoriy va Hakim Termiziylar hadis rivoyat qilganlari e'tiborlidir.

Imom Moturidiy yashagan davrda kalom ilmida turli firqalar yuzaga kelib, ularning o'rtasida aqidaviy masalalarda keskin bahslar, ixtilof va ziddiyatlar avjga chiqqan edi. Ustozlaridan ta'lim olib, ilmida yuksak cho'qqilarni zabt etgan Moturidiy o'z faoliyatlarini sunniylik ta'limotini himoya qilishga, islomning musaffo aqidasi ni turli xuruj va hammlardan himoya qilishga



bag'ishladi. Buni undan qolgan asarlar nomi va mazmuni tasdiqlaydi.

"Kitob bayoni vahmil-mu'tazila" – "Mo'tazila toifasi vahimalarining bayoni haqidagi kitob", "Kitob ar-radd alal-qaromita" – "Qarmatiylarga raddiya keltirish borasidagi kitob". "Raddul-imoma" - "Imomiya toifasiga raddiya" va shunga o'xshash bizgacha faqat nomi yetib kelgan bir qancha asarlari borki, ular firqa va oqimlarga raddiya tarzida yozilgan.

Moturidiyning bugungi kunga yetib kelgan ikki mashhur asari "At-Tavhid" va "Ta'vilotul-Qur'on" ham asosan sunniylik aqidasi himoya qilish, uni ilmiy jihatdan asoslash va botil e'tiqodlarga raddiya berishga bag'ishlangan.

Imom Moturidiyning kishilarni birdamlikka, bag'rikenglikka chorlovchi ilmiy faoliyati sabab o'sha davrda Movarounnahrda yuzaga kelgan turli ixtiloflar barham topdi. Bu holat tinchlik va osoyishtalikning muhim omili bo'ldi. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy ta'biri bilan aytganda, Imom Moturidiy g'oyaviy birlik darg'asi sifatida tanildi. U asoslab bergan ta'limot moturidiya nomi bilan mashhur bo'lib, islom olamidagi ikki aqidaviy ta'limotning biriga aylandi. Bugungi kunda ham yer yuzi musulmonlarining eng qo'p qismini tashkil qiluvchi hanafiyler e'tiqodga oid masalalarda moturidiya ta'limotiga asoslanishadi.

Moturidiya ta'limotining dunyo bo'ylab tarqalishida u yozgan asarlar bilan bir qatorda, allomaning shogirdlari va izdoshlari faoliyati muhim o'rin tutgan:

1. **Qozi Hakim Samarqandiy** Abul-Is'hoq ibn Muhammad Ibn Zayd. 342/953-yilda vafot etgan va Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Moturidiyning yirik shogirdi, bir muddat Samarqandda qozilik qilgan. "Savodi a'zam", "Imon risolasi" asarlari mashhurdir.

2. **Abulhasan Rustufag'niy** Ali ibn Said. U hanafiy mazhabi fiqhi bo'yicha yetuk olim sifatida tanilgan. Ilmda yuksak darajaga yetib, hatto ustozlari Moturidiy bilan ba'zi masalalarda ilmiy munozaralar olib borgan. "Irshodul-muhtadiy", "Az-zavoid

val-favoid”, “Al-as’ila val-ajviba”, “Bayonus-sunnati val-jamoati” singari asarlar yozgan. 350/961-yilda vafot etgan.

3. **Abdulkarim Pazdaviy** Abu Muhammad Abdul-karim ibn Muso ibn Iso. Nasafdan bir oz uzoqlikdagi Pazda qishlog‘idan. Fiqh ilmida mashhur bo‘lgan. Avlodlaridan moturidiyaga mansub Abul-Yusr Pazdaviy, Abulhasan Pazdaviy kabi yirik ulamolar tug‘ilgan. 390/999-yilda vafot etgan.

4. **Abul-Mu’in Nasafiy** Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Mu’tamid ibn Muhammad ibn Muhammad Ibn Makhul Abil-Fazl. U 438/1046-yilda tug‘ilib, 508/1114-yilda vafot etgan. Moturidiya maktabining eng yirik namoyandalaridan, biri bo‘lib, “Tabsiratul-adilla” “Bahrul-kalom”, “Tamhid”, “Manohijul-aimma” asarlari orqali moturidiy ta’limotini asoslab bergan va uning yoyilishiga ulkan hissa qo‘shgan. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, Abul-Mu’in Nasafiy xizmatlarisiz moturidiyani tasavvur qilish mahol.

### 3.3. Ash’ariya

Ash’ariya ta’limotining asoschisi Abul-Hasan Ali ibn Ismoil Ash’ariy 260/873-yilda Basra shahrida tavallud topgan va 337/935-sanada Bag‘dodda vafot etgan. To‘liq nomi Ali bin Ismoil bin Is’hoq bin Solim bin Ismoil bin Abdulloh bin abi Burda bin abi Muso al-Ash’ariy bo‘lib, mashhur sahoba Abu Muso al-Ash’ariy (r.a.)ning avlodi hisoblanadi.

Ash’ariy ilk davrda muhaddis va faqihlarning majlislariga qatnar edi. Basra mo‘taziliylari rahbari Abu Ali Juboiydan tahsil oldi hamda aqida ilmuni o‘rgandi. Shuning uchun qirq yoshigacha mo‘taziliylar fikrida bo‘ldi. So‘ng ustoz bilan ba’zi masalalarda ixtilof qildi. Ulardan biri solih va aslah masalasidir. Abul-Hasan Ash’ariy ustoz Juboiyga: “biri yoshligida vafot etgan, ikkinchisi ulg‘ayib solih kishilardan bo‘lgan, uchinchisi esa kofir bo‘lib dunyodan o‘tgan uch aka-ukalarga qanday hukm qilasiz? Agar yosh o‘lgani Allohdan: “Meni nima uchun akam manzilasiga yetgunimcha hayotda qoldirmading?” – deb so‘rsa

Alloh unga nima deb javob beradi?” deya savol berdi. Juboiy shunday dedi: “Alloh: “Sening boshqa akang kabi kofir bo‘lib o‘tishingni bilgan edim. Senga yaxshisi yoshligingda o‘lganingdir”, deb javob beradi”. Abul-Hasan: “Agar uchinchi: “Ey, Robbim, nima uchun yoshligimda o‘ldirmading, men ukam manzilasiga rozi edim desa-chi, Alloh unga nima deydi?” deb so‘raganida Juboiyning rangi o‘chib ketdi va javob berishga ojiz qoldi. Shu kabi mo‘tazilaning boshqa masalalarida ham uning tafakkurida bir qator savollar uyg‘ondi va o‘zida sunniy yo‘nalishidagi olimlarning fikrlariga mayl sezdi. O‘z uyidan chiqmay ikki tomonlar dalillarini solishtirdi. Nihoyat, qanoat hosil qilgach, Basra jome masjidiga chiqib, minbardan turib: “Ey odamlar! Meni bilganlar biladi, bilmaganlar bilmaydi, bilmaydiganlarga o‘zimni tanishtiraman: men falonchi Qur‘onni yaratilgan deb, Alloh ko‘z bilan ko‘rilmaydi, yomon ishlarni men o‘zimcha (ya‘ni, Allohning irodasisiz) qilaman deb gapirar edim. Hozir men tavba qildim, mo‘taziliylarni rad qilishga kirishaman. Hamma dalillarni o‘rganib chiqdim. Hech narsa boshqasining ustidan kuchli bo‘lib chiqmadi, so‘ng Allohdan hidoyat so‘radim, u menga hidoyat berdi. Shuning uchun ham bir qancha vaqt sizlar bilan birga bo‘lmadim. Alloh meni mana shu yozgan aqidalarimga boshladi. Men ilgari e‘tiqod qilgan narsalarimni, shu kiyimimni yechganim kabi yechaman”, deb ustki kiyimini yechdi va o‘zi yozgan narsalarini muhaddis va faqihlar jamoasiga berdi.

Ash‘ariy mo‘taziliy va shu kabi oqimlar fikrlarini har joyda ta‘qib qilib turdi va “ahli sunna imomi”, “ahli sunna yordamchisi” degan nomga sazovor bo‘ldi.

Ash‘ariyning yozgan narsalarini o‘qib chiqqan ilm ahllarini uni o‘zlariga rahnamo qilib oldilar, o‘zlari ergashgan ta‘limotni uning nomi bilan atab, ash‘ariylar nomi bilan mashhur bo‘ldilar.

Ash‘ariy yaratgan yuzga yaqin risolalaridan quyidagilari saqlanib qolgan:

1. Maqolatul- islamiyyin.
2. Al-Luma.
3. Al-Ibana an usulid-diyana.

### 3.4. Moturidiya va ash'ariya o'rtasidagi farqlar

Imom Moturidiy va Imom Ash'ariylar ta'limotlari deyarli bir vaqtda yuzaga keldi. Bu ikki alloma zamondosh bo'lganlar. Imom al-Moturidiy asosan Samarqandda yashab, shu shaharda faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, imom al-Ash'ariy o'z ta'limotiga Iroqda (avval Basra, keyinroq Bag'dodda) asos solgan. Moturidiya va ash'ariya ta'limotlarini birlashtiruvchi jihatlar ko'p. Avvalo, har ikkala ta'limotning asoslari bir xil: Qur'oni karim, hadisi sharif. Moturidiy ham, Ash'ariy ham musulmon olamida turli aqidaviy ziddiyatlar avj olgan davrda yashadi. Ikkalasi ham bu ixtiloflarga barham berish yo'lida xizmat qildi. Islomning musaffo e'tiqodini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu borada naqliy dalillarning ma'nolarini to'g'ri anglashga e'tibor qaratdi. Aqliy dalillardan ham kezi kelganda istifoda qildi. Eng asosiysi, Abu Mansur Moturidiy va Abulhasan Ash'ariy "Ahli sunna val-jamoa"ni himoya qildilar va sunniylik yo'nalishi imomlari sifatida tanildilar. Nemis olimi Ulrix Rudolf asarida quyidagi ma'lumot keltirilgan: "Ash'ariyya va moturidiyya ta'limotlaridagi o'xshashliklar bitta raqibga qarshi bo'lganidir. Bu ikki olim mo'taziliylarga qarshi chiqqanlar".

Ikkala ta'limot ham "Ahli sunna val-jamoa"dan deb e'tirof etilgan ekan, ularning asosiy aqidaviy masalalardagi qarashlari bir xildir. Yuqorida "Sunniylik mohiyati" bobida asosiy e'tiqodiy tamoyillar bayon qilingan edi. Binobarin, bu tamoyillar moturidiya va ash'ariya ta'limotlarida ham o'z aksini topgan. Lekin, ba'zi masalalarda moturidiya va ash'ariya o'rtasida farqlar mavjud.

Tojuddin Abu Nasr Abdulvahhob Subkiy o'z asarida ikki buyuk mutakallimning ta'limotlari orasidagi o'n uchta farqni keltirgan. Mazkur farqlarga bag'ishlangan risolalardan biri olim Hasan ibn Abdulmuhsin ibn Abi Uzbaning qalamiga mansubdir. Asar "Ar-Ravza al-bahiyya fiyma baynal-asha'ira val-moturidiyya", ya'ni "Moturidiya va ash'ariya ta'limotlari o'rtasidagi saodatli bo'ston" deb ataladi. Bu mo'jaz asar birinchi marta 1904-yilda (hijriy 1322) Haydarobod (Hindiston)da nashr etilgan bo'lib,

76 sahifadan iborat. Risolada bu ikki maktab aqidasi chuqur bilishi uchun zarur bo'lgan manba va asarlar ham sanab o'tilgan, ikkala imom haqida ma'lumotlar keltirilgan. Muallifning o'zi bu haqda shunday deydi: "Bilgilki, "ahli sunna val jamoa"ning barcha aqidalari moturidiya va ash'ariya aqidalari atrofida aylanadi hamda ulardan biriga ergashgan har bir kishi aqidasi fasod va noto'g'ri yo'lga og'ishdan salomat bo'ladi". Ikki buyuk mutakallim - imom Moturidiy va imom Ash'ariy ta'limotlari o'rtasidagi ba'zi masalalarga doir farqlar asosan ikki bobga ajratilgan bo'lib, ularning bir qismi lafziy ifodadagi farqlar bo'lsa, ikkinchi qismi ma'naviy tusga egadir. Birinchi bo'limda ular ta'limotida mavjud bo'lgan ba'zi masalalardagi lafziy ixtiloflar keltirilgan. Ularning soni yettitadan iborat bo'lib, quyidagilardir:

1. Imonda istisno masalasi.

2. Jannatiy do'zaxiyga, do'zaxiy esa jannatiyga aylanishi mumkinmi?

3. Kofir kishining xayrli va savobli ishlariga ham savob beriladimi?

4. Payg'ambarlar vafotlaridan keyin ham payg'ambarlik rutbasida qoladilarmi yoki yo'qmi?

5. Iroda bilan rizolik o'rtasidagi bog'liqlik.

6. Taqlidiy imon, ya'ni biror kishiga taqlid qilib, o'zini mo'min hisoblash masalasi.

7. Kasbiy (harakat bilan topish) bilish masalasi.

Risolaning ikkinchi bo'limi imom Moturidiy va imom Ash'ariy ta'limotlari o'rtasidagi mazmuniy farqlarga bag'ishlangan bo'lib, ular quyidagi oltita masaladan iboratdir:

1. Alloh taolo o'z itoatkor bandasini azob-uqubatga solishi joizmi yoki nojoizmi?

2. Alloh taoloni bilish shar'iy vojibmi yoki aql yo'li bilan bo'ladimi?

3. Alloh taoloning fe'liy sifatleri azaliymi yoki keyin paydo bo'lganmi?

4. Alloh taoloning kalomi eshitiladimi yoki eshitilmaydimi?

5. Inson qodir bo'lmagan ishni uning zimmasiga yuklanishi joizmi yoki nojoizmi?

6. Payg'ambarlarning katta va kichik gunohlardan xoli bo'lishlari vojibmi yoki vojib emasmi?

Mana shu masalalarning barchasi bo'yicha chiqarilgan xulosalar Qur'oni karim, Muhammad (s.a.v.)ning hadislari va ko'plab mashhur allomalarning asarlaridan foydalanilgan holda aniq xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, moturidiya va ash'ariya o'rtasidagi imon ruknlari masalasida farq bo'lib, ash'ariyada: "Imon til bilan iqror bo'lish, dil bilan tasdiqlash va amal qilishdir", deb uchta ruknga bo'linadi. Moturidiy esa Abu Hanifa izidan borib, "Imon - bu til iqrori va qalb tasdig'idir. Imonning ikki ruknini ado etib, amallarni bajarmagan kishi kofir bo'lmaydi, balki faqat gunohkor bo'ladi", - degan fikrni ilgari suradi.

### Asosiy tayanch tushunchalar:

**Aqida** so'zining lug'aviy ma'nosi, arab tilidan tarjima qilganda "bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash" ma'nosini anglatadi. Istilohiy ma'noda **aqida** - musulmon kishi ishonishi va tili bilan iqror qilishi zarur bo'lgan masalalar haqida bahs yuritadigan ilmdir.

**Aqida ilmining turli nomlari** mavjud: aqoid, e'tiqod, kalom, tavhid, usulud-din kabilar. Bundan tashqari, mazkur ilm sohasining ilohiyot, ilohiyotshunoslik, islom nazariyasi, islom mafkurasi, islom ideologiyasi kabi nomlari ham zamonaviy tadqiqotlarda qo'llaniladi.

**Kalom** so'zi arab tilidan tarjima qilinganda gap, jumla ma'nosini bildiradi. Istilohiy ma'noda **kalom** - aqidaviy masalalarni nafaqat naqliy, balki aqliy dalillar vositasida asoslab berishni anglatadi.

**Moturidiya** asoschisi - 870 - 944-yillarda Samarqandda yashab o'tgan Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy as-Samarqandiydir.

**Ash'ariya** asoschisi 873-yilda Basrada tug'ilib, 935-yilda Bag'dodda vafot etgan Abul-Hasan Ali ibn Ismoil al-Ash'ariydir.

Moturidiya va ash'ariya ta'limotlari ham "**Ahli sunna val-jamo'a**"dan deb e'tirof etilgan ekan, ular asosiy aqidaviy masalalarda bir xil qarashga egadir.

Ikki ta'limot orasidagi farqlarga bag'ishlangan risolalardan biri olim Hasan ibn Abdulmuhsin ibn Abi Uzbaning qalamiga mansubdir. Asar "Ar-Ravza al-bahiyya fiyma baynal-asha'ira val-moturidiyya", ya'ni "**Moturidiya va ash'ariya ta'limotlari o'rtasidagi saodatli bo'ston**" deb ataladi.

Asarning birinchi bo'limida ikki ta'limot o'rtasidagi ba'zi masalalarga oid **yettita lafziy**, ikkinchi bo'limida esa **oltita ma'naviy** farqlar keltirilgan.

**Ash'ariya** "imon til bilan iqror bo'lish, dil bilan tasdiqlash va amal qilishdir", deya **uchta ruknga** bo'linadi.

**Moturidiy** esa Abu Hanifa izidan borib, "Imon - bu til iqrori va qalb tasdig'idir. Imonning **ikki ruknini** ado etib, amallarni bajarmagan kishi kofir bo'lmaydi, balki faqat gunohkor bo'ladi", deydi.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Aqida so'zining ma'nolari haqida nimalarni bilasiz?
2. Aqidaviy ta'limot deganda nima tushuniladi?
3. Aqidaviy ta'limotlar haqida ma'lumot bering?
4. Abu Mansur Moturidiy hayoti va faoliyati haqida so'zlab bering?
5. Moturidiyning ustoz va shogirdlari kimlar?
6. Abu Mansur Moturidiy qalamiga mansub asarlarni keltiring?
7. Moturidiya ta'limoti haqida nimalarni bilasiz?
8. Abulhasan Ash'ariy hayoti va faoliyati haqida ma'lumot bering?
9. Ash'ariya ta'limoti haqida nimalarni bilasiz?
10. Moturidiya va Ash'ariya o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering?

## **Foydalanish uchun tavsiya etilgan manba va adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Oллоh qalbimizda, yuragimizda: "Turkiston-press" axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. – T.: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.
3. Alimov U. IX–XI asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi. – T.: Movarounnahr, 2008.
4. Al-Moturidiy ta'limoti va uning X-XII asrlarda Movarounnahr madaniyatida tutgan o'рни. Ma'ruzalar to'plami. – T.: 1999.
5. Aqoid matnlari. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.
6. Ziyodov Sh. Al-Moturidiy hayoti va merosi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000
7. Oqilov S. Abu-l-Mu'in an-Nasafiy ilmiy merosi va Moturidiya ta'limoti. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
8. Rudolf, Ulrix. Al-Motruidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom Al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, Fridrix Ebert jamg'armasi, 2002.
9. Uvatov U. Imom Moturidiy merosining mohiyati. – T.: Ma'naviyat, 2000.
10. Hasanov A. Islom tarixi. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
11. Abdulkarim Shahrisoniy. Al-milal van-nihal. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992.
12. Muhammad Abu Zahra. Tarix al-mazahib al-islamiya. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1996.



## MAZHABLAR TARIXI

### 4-BOB. HANAFIY MAZHABI

- 4.1. Imom A'zam hayoti va faoliyati
- 4.2. Imom A'zam merosi
- 4.3. Imom A'zam shogirdlari va izdoshlari
- 4.4. Hanafiy mazhabi ta'limoti

#### 4.1. Imom A'zam hayoti va faoliyati

Hanafiylik asoschisi Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobitdir. U 80/699-yilda tug'ilib, 150/767-yilda vafot etgan. Ko'fa shahrida voyaga yetgan. Zirikliy "Al-A'lam" kitobida Imom A'zamning otasi Sobit haqida quyidagilarni qayd etgan: "Sobitning otasi Zutiy Ali (r.a.)ning oldiga boradi va unga hadya berib, o'g'li Sobitning haqiga duo co'raydi. Ali ibn Tolib uning va avlodlarining haqiga baraka tilab duo qiladi".

Sobit solih, xudojo'y inson bo'lib voyaga yetdi. Naql qilinishicha, Sobit birovning olmasidan bir tishlamni ruxsatsiz yegani uchun egasidan halollik so'raganida, uning imoni pok ekanini ko'rgan olma sohibi Sobitga qizini nikohlab beradi va keyinchalik bu nikoh sabab Imom A'zam dunyoga keldi.

No'mon ibn Sobit Ko'fa shahrida ilm ahllari orasida voyaga yetdi. Bilimi chuqur inson sifatida tanildi. O'z kasbi orqasidan kun kechirar edi. Chunki otasidan unga katta boylik meros qolgan edi va uni tijoratga sarf etib, daromadini ilmu ma'rifat yo'lida sarf etardi.

No'mon ibn Sobit tarixga ikki sharaflı nom bilan kirdi.

1. Abu Hanifa, ya'ni to'g'ri yo'lda sobit turuvchilar rahnamosi.
2. Imom A'zam, ya'ni buyuk imom.

Abu Hanifa yoshlik chog'idayoq Qur'oni karimni yodladi va uning ma'nolarini tushunishga intildi. Keyinchalik mantiq va kalom ilmi bilan shug'ullanib, bu borada atrofdegilardan o'zib ketdi. U Hammud ibn Abu Sulaymon (r.h.) bilan uchrashganidan so'ng fiqh ilmiga qiziqadi va Hammoddan 18 yil davomida tahsil oladi. Umri davomida 55 marta haj qildi. Har bir hajda ko'plab ilm ahllari bilan muloqotga kirishdi.

Imom A'zam (r.h.) ustozlarining adadi 4000 ga yetgani manbalarda qayd etilgan. Ulardan 8 tasi sahoba, 39 tasi tobe'in edi. Hofiz as-Solihiy esa «Uqud al-juman» kitobida: «Imom Abu Hanifa sakkiz sahobiy va bir ayoldan hadis rivoyat qilgan», deydi va ularning nomlarini keltiradi. Bular: Anas ibn Molik, Amr ibn Horis, Abdulloh ibn Anis, Abdulloh ibn Horis, Ibn Juz' az-Zubaydiy, Jobir ibn Abdulloh, Abdulloh ibn Abu Avfo, Voila ibn Asqo', Oysha bint Ajrad (r.a.).

“Bag'dod tarixi” kitobida keltirilishicha, Abu Hanifa hukmdor Abu Ja'far Mansur huzuriga kirganida uning oldida o'tirgan Iso ibn Muso hukmdor Mansurga: «Bugungi kunda dunyoning eng yetuk olimi ushbu Abu Hanifadir», dedi. Shunda Mansur Abu Hanifaga: «Ey No'mon! Ta'limni kimdan olgansan?» dedi. U : «Umarning izdoshlari orqali Umardan, Alining izdoshlari orqali Alidan, Abdullohning izdoshlari orqali Abdulloh ibn Mas'uddan oldim. Ibn Abbos davrida yer yuzida undan ko'ra olimroq kishi yo'q edi (ya'ni, ibn Abbos shogirdlaridan ham ta'lim olganliklarini aytmochilar)», dedi. Shunda Abu Ja'far Mansur: «Haqiqatan ham sen o'zingga kuchli hujjat to'plagan ekansan», dedi.

Imom A'zam (r.h.) o'z davrining ko'zga ko'ringan faqih va muhaddis olimlaridan ta'lim oldi. Jumladan, mashhur muhaddis Imom A'mashdan hadislarni o'rganar va yod olar edi. Imom A'mashning huzurida Abu Hanifa bir odamning fiqh borasidagi savoliga javob berdi. Shunda A'mash: “Nimaga asoslanib bunday javob berding?” deya so'radi. Imom A'zam: “O'zingiz rivoyat qilgan hadislarga asoslanib” deb, bir nechta hadisni sanab berdi.

Imom A'mash shogirdining zakovatiga qoyil qolib: "Ey faqihlar jamoasi, sizlar tabib, biz muhaddislar esa dorishunos ekanmiz", dedi.

Haqiqatan, oyat va hadislardan har kim ham hukm chiqara bilmaydi. Balki, bu mujtahid va faqihlarga xosdir. Afsuski, bugungi kunda islom manbalaridan o'zicha fatvo olishga intilib, mazhablarga, o'tgan olimlarning xizmatiga bepisandlik qilayotganlar turli ixtilof va ziddiyatlarga sababchi bo'lmoqdalar.

#### 4.2. Imom A'zam merosi

Imom A'zam (r.h.) ham aqidaviy ta'limotga ham fiqhiy mazhabga asos soldi. Ma'lumki, bilim sohasi vaqt o'tishi bilan fizika, matematika, ximiya kabi aniq fanlar va tarix, geografiya, huquqshunoslik kabi ijtimoiy fanlarga ajratilgan. Shunga o'xshash, Imom A'zam ham birinchi bo'lib, fiqhni boblarga bo'ldi. E'tiqod sohasida birinchi bo'lib «Al-fiqhul-akbar», ya'ni «Katta fiqh» degan kitobini yozdi. Bu kitobda islomdagi musaffo e'tiqod ta'limoti o'z ifodasini topgan. Keyinchalik Imom A'zamning mazkur asariga ko'plab sharhlar bitilgan. Ba'zi manbalarda qayd qilinishicha, mazkur «Al-fiqhul-akbar» kitobiga buyuk vatandoshimiz Imom Moturidiy (r.h.) ham sharh yozgan. Bu narsani ba'zi bir tarixchilar inkor etishadi. Lekin, Imom Moturidiy o'z ta'limotini barpo etishda Imom A'zamning e'tiqod borasidagi qarashlariga tayangani, Moturidiyning ustozlari Imom A'zam izdoshlari ekani manbalarda o'zining aniq ifodasini topgan.

«Mu'jamul-musannifin», ya'ni «Musanniflar qomusi» kitobining muallifi aytadiki, Imom Abu Hanifa (r.h.) kalom, fiqh, hadis ilmlariga tegishli bir necha kitoblar yozgan, shular jumlasidan: «Kitob as-solat» (Namoz ahkomlari kitobi), «Kitob al-Manosik» (Haj kitobi), «Kitob ash-shurut» (Shartnomalar haqida kitob), «Kitob al-faroiz» (Meros ilmi haqida kitob), «Kitob al-olim val-mutaallim» (Ustoz va shogird haqida kitob),

«Kitob al-fiqh al-akbar» (Katta fiqh kitobi), «Kitob al-vasiya» (Vasiyat kitobi) va boshqalar.

Abu Hanifaning mazkur asarlari haqida qisqacha ma'lumot:

1. «Kitob as-solat» - Abu Muqotildan rivoyat qilinganki, u aytdi: «Abu Hanifaning birinchi kitobi ushbu kitobdir».

2. «Kitob al-Manosik» - Abu Hanifa ustozı Imom A'mash (r.h.) hajga borishni niyat qilgan vaqtida unga atab yozgan. Chunki A'mash Ali ibn Mus'irni Imom Abu Hanifaga yuborib, undan hajning tartibi va hukmlari haqida kitob ta'lif qilib berishni so'ragan. Shunda Abu Hanifa bu kitobni yozib, Ali ibn Mus'irdan A'mashga berib yuborgan. Shu bois bu kitob haj manosiklari haqida yozilgan birinchi kitob hisoblanadi.

3. «Kitob al-faroiz» - Al-Muvaffaq aytishicha, meros ilmida birinchi yozilgan kitoblardandir.

4. «Kitob ash-shurut» - Imom Quduriyning ustozı shayx Abu Abdulloh aytishicha, Abu Hanifaning shartnomalar haqidagi ushbu asari bu mavzuda bitilgan birinchi kitobdir.

5. «Kitob al-olim val mutaallim» - savol va javob tariqasida bitilgan kitobdir.

6. «Kitob al-fiqh al-akbar» - sunniylik aqidasi bo'yicha bitilgan mashhur kitobdir.

7. «Kitob al-vasiya» - qozilarga pandu nasihatdan iborat bo'lib, Imom Abu Yusuf (r.h.) va boshqalarga atab ta'lif etilgan.

### 4.3. Imom A'zam shogirdlari

Imom Abu Hanifa 40 yoshida dars berishni boshladi. Uning dars halqasi har doim talabalar va muxlislar bilan gavjum bo'lib, uzoq joylardan undagi bahs-munozaralarini eshitib foydalanish uchun kelardilar. Hindistonlik mashhur olim Mahmud Hasanxon Tunkiy o'zining 60 jildlik (20 ming sahifa) qomusiy asari «Majmaul-musannifin» da Abu Hanifa (r.h.) shogirdlarining sonini 882 ta deb ko'rsatgan. Shayx Ahmad Makkiy Xorazmiyning aytishicha, Imom A'zamdand rivoyat qilgan olimlar soni 730

taga yetib borardi. Ularning hammasi musulmon o'lkalarning mashoyixi sifatida turli mintaqalarda Abu Hanifadan rivoyat qilib, u haqda so'zlab berardilar.

Imom A'zam shogirdlarining ko'pchiligi Movarounnahr va Xurosondan bo'lib, hanafiy mazhabini tarqatish yo'lida tinimsiz faoliyat olib borganlar. Ularning aksari Abu Hanifaning dars halqasida bir muddat o'tirib, uning yo'l-yo'riqlari va fiqhiy uslubini o'zlashtirgandan keyin o'z vatanlariga qaytib ketardilar, ayrimlari har doim Abu Hanifa bilan birga bo'lib, uning doimiy shogirdlari hisoblanardilar.

Asad ibn Furot rivoyatiga ko'ra, bunday shogirdlar soni 40 taga yetib borgan bo'lsa, Ibnul-Bazzoziy "Manoqib"ida ularning soni 36 ta erkak deb ko'rsatilgan. Ulardan 28 kishi qozilik vakolatiga, 6 tasi fatvo berish salohiyatiga ega edi, ikkitasi, ya'ni Abu Yusuf va Zufar ham qozilik vazifasini bajarish, ham fatvo berish bo'yicha iqtidorli olim edi.

Abu Hanifaning mashhur shogirdlari: biri – Abu Yusuf Ya'qub ibn Ibrohim al-Ansoriy (r.h.), ikkinchisi – Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy (r.h.)dir. Abu Hanifaning bu ikki shogirdi undan keyin xayrli ishlarini davom ettirib, zamonalaridagi olimlarga ustozlik qildilar. Ularning ismlari ustozlari Abu Hanifa ismlari bilan doimo birga zikr qilinadi. Abdulhalim Jundiy «Abu Hanifa ozodlik qahramoni» nomli kitobida: "Bu ikki shogird - Abu Yusuf va Muhammadlar Abu Hanifaning yetuk shogirdlaridan bo'lib, tarixda Abu Hanifaning as'hoblari nomi bilan mashhur bo'lganlar", deya qayd etgan. Muhammad ibn Hasan Shayboniy Molik ibn Anasdan ham ta'lim olgan va o'z navbatida, Imom Shofeiya ustozlik qilgan, Imom Shofeiya esa Imom Ahmad ibn Hanbalga ta'lim bergan. Demak, to'rtala mazhab Imom Muhammad orqali bir-birlariga bog'lanadi.

Abu Hanifaning ko'zga ko'ringan yetuk shogirdlaridan yana biri Zufar ibn Huzayl (r.h.) edi. Hadisga mutaxassis bo'lib,

hadislarni saralashga nihoyatda mohir edi. Biron masalaga hujjat so'ralsa, to'xtamasdan, darhol dalil keltirish qobiliyatiga ega edi.

Shogirdlaridan yana biri Hasan ibn Ziyod al-Lu'luiy (r.h.) bo'lib, Abu Hanifa vafotidan so'ng Abu Yusuf va Muhammadlardan ta'lim oldi. U Abu Hanifadan naql qilingan «Al-Mujarrad», «Qozining odobi», «Nafaqalar», «Faroiz (Meros ilmi)», «Xislatlar» kabi kitoblarini yozib tugatdi.

Imom A'zamning o'g'li Hammud ham shogirdlaridan biridir. Abu Hanifa o'z farzandining odob-axloqli qilib tarbiyalab, yetuk olim, fozil peshvo darajasiga chiqishiga sababchi bo'lgan. Hammud (r.h.) avval Ko'fa, keyin Basra shaharlarida qozilik mansabida ishladi.

Hammudning o'g'li Ismoil ham o'z otasidan bobosi Abu Hanifaning ilmini o'rgandi, shuningdek, Abu Yusuf va Hasan ibn Ziyodlardan ta'lim olib, yetuk allomalardan bo'ldi va shar'iy hukmlar bo'yicha qozilik mansabida ishladi.

Abu Hanifaning Abdulloh ibn al-Muborak (r.h.) ismli shogirdi ham taniqli olim, buyuk muhaddis va faqih bo'lib, hadis hamda fiqh ilmlarida peshvo edi. U Xurosonda birinchi bo'lib hadisni yozgan zotdir. Ibn Muborak «Az-zuhd var-raqoiq» nomli kitobning muallifidir.

Abu Hanifaning Hafs ibn Muborak (r.h.) ismli shogirdi Horun ar-Rashid davrida o'n uch yil mobaynida Ko'fada, ikki yil Bag'dodda qozilik mansabida ishlagan.

Mazkur allomalar Imom A'zam asos solgan hanafiy mazhabining shakllanishi va taraqqiy etishida ulkan xizmat qildilar.

#### 4.4. Hanafiy mazhabi ta'limoti

Imom Abu Hanifa barcha imomlarning peshvosi, faqihlarning ustoz, Imom Shofeiyy ta'biri bilan aytganda, barcha odamlar fiqhda uning boqimandalari bo'lgan zot edi. Alloh taolo unga noyob zakovat, yetuk aql, o'tkir fikr ato etgan bo'lib, har bir ishni

chuqur tahlil qilar, hech qanday shak-shubhaga o'rin qolmaydigan darajadagi aniq hujjat va dalillar asosida hukm chiqarar edi. Uning ilmi butun olamga yoyilib, olimlar ham, omma xalq ham ta'limotini zo'r e'tibor bilan o'rganib kelmoqdalar.

Imom Abu Hanifa (r.h.) o'z mazhabini bino qilishda islom shariatining asosi deb e'tirof etgan manbalarga - Qur'oni karim, sunnati nabaviya, ijmo', qiyos va sahobalarning qavllari hamda urfga suyandi: "Men, avvalo, hukmni Allohning kitobidan olaman, undan topmasam, Rasululloh (s.a.v.)ning sunnatlaridan olaman. Agar Allohning kitobidan ham, payg'ambarning sunnatlaridan ham topa olmasam, sahobalarning gapidan olaman, agarda bular ixtilof qilgan bo'lsalar, ularning so'zidan Qur'on va hadisga yaqinrog'ini olaman, ularning gapidan boshqanikini olmayman. Agarda sahobalarning so'zidan ham topa olmasam va gap tobeinlarga yetib kelsa, o'zim ularga o'xshab ijthod qilaman", dedi.

Abu Hanifa nazdida fiqhiy hukm olishda asosiy manba Qur'oni karim bo'lib, boshqa biron narsa unga barobar bo'la olmaydi, chunki u Alloh taoloning kalomi, musulmonlar uchun qat'iy hujjatdir. Shuning uchun ohod yo'li bilan kelgan hadislar Qur'oni karim hukmini nasx (bekor) qila olmaydi, chunki ohod sunnatlar Payg'ambardan yetib kelishi jihatidan hammasi zonniydir. («Sunnati ohod» deb Rasulullohdan rivoyat qilgan roviylar adadi hamma tabaqalarda mutavotir adadiga yetmagan, ya'ni uchtadan kam odam bo'lgan holda rivoyat qilingan hadisga aytiladi). Shu boisdan ham Abu Hanifa Qur'oni karim oyatiga ma'nosi zid bo'lgan hadislarni olmagan.

Abu Hanifa sunnati nabaviyani shariat ahkomlarining ikkinchi asosi deb e'tibor qilgan. Shu bilan birga qovliy sunnatni (Rasululloh so'zlarini) fe'liy sunnatdan (Rasulullohning qilgan ishlaridan) ko'ra avloroq deb qaraydi. Chunki Rasulullohning qilgan ishlari o'zlariga xos bo'lish ehtimoli mavjud. Shuningdek, mutavotir sunnat bilan ohod sunnat ma'nolari bir-biriga zid bo'lib qolsa va ularni hech bir yo'l bilan bir-biriga moslashtirish

(kelishtirish) iloji bo'lmasa, Abu Hanifa mutavotir sunnatni ohoddan muqaddam qo'ygan. Mutavotir sunnatda o'z ma'nosiga ko'ra Rasulullohdan boshlab to oxirgacha roviylar silsilasining adadlari ko'p bo'lganidan ularning yolg'onga ketishlari, adashishlari mumkin emas.

Abu Hanifa yuqorida ta'kidlaganlaridek, biron shar'iy hukm olmoqchi bo'lsa, avvalo, Allohning kalomiga - Qur'oni karimga murojaat qilgan, undan javob topa olmasa, e'tiborini sunnatga qaragan, mabodo hadislardan ham dalil topa olmasa, sahobayi kiromlar so'zlaridan dalil axtargan. Imom Saraxsiy o'zining "Usulul-fiqh" kitobida ta'kidlaganidek, Abu Hanifa sahobai kiromlar so'zini qo'yib qiyosga aslo o'tmas edi.

Abu Muti' al-Balxiy Abu Hanifadan: «Menga ayting-chi, biron masalada siz bir fikrda bo'lsangiz-da, Abu Bakr Siddiqning fikri bu masalada boshqacha bo'lsa, siz uning fikrini qabul qilib, o'z fikringizdan qaytasizmi yo yo'qmi?» deb so'radi. Abu Hanifa: «Albatta, fikrimdan qaytaman», dedi. U yana: «Ayting-chi, agar bir masalada sizning fikringiz boshqa bo'lsa va Umar ibn Xattobning fikri boshqa bo'lsa, siz o'z fikringizni qo'yib, uning fikrini olasizmi?!» deb so'radi. Abu Hanifa: «Ha, uning fikrini qabul qilaman», dedi. So'ngra u yana Usmon ibn Affon va Ali ibn Abi Tolib to'g'rilarida ham so'ragan edi, Abu Hanifa yana bularning fikrlarini ham olishini aytib: «Men barcha sahobalarning fikrini qabul qilib, o'z fikrimdan voz kechaman», dedi.

Rasululloh (s.a.v.) o'z hadislarining birida: «Mening ummatlarim xato (adashish)ga ittifoq qilmaydilar, agarda biron masalada ixtilofni ko'rsangizlar, ko'pchilik tomonida bo'lingizlar», degan. Ya'ni, qaysi davrda bo'lsa ham, biron shar'iy hukm borasida ixtilof sezilganda obro'-e'tiborli ko'pchilik tomonining fikrini ma'qullash lozim bo'ladi. Ko'pchilikning fikri «ijmo'» deyiladi va Abu Hanifa (r.h.) ham ijmo'ni shar'iy hukmlarga asos bo'lishini aytgan.



Abu Hanifa: «Agarda sahobalar biron masalada turli fikrda bo'lsalar, Qur'on va sunnatga yaqinroq bo'lgan fikrni olaman, sahobalar fikrini qo'yib, boshqasini olmayman», deganida, ijtihod etib, sahobalarning so'zlarini Qur'onga va sunnatga qiyos qilishni avvalo, Qur'onga muvofiq kelgan fikrni, agar unga muvofiq bo'lmasa, hadisga muvofiq bo'lganini olishni nazarda tutgan edi. Va agarda bu ikki asosga ham muvofiq bo'lmasa, ulardan xohlaganining fikrini qabul qilishni va ularning fikrini tashlab, o'z fikrlaricha hukm qilmaslikni bayon qilgan edi.

Abu Hanifa (r.h.) hadisi mursalni va hatto zaif hadisni ham qiyosdan ustun qo'yadilar va hatto bu darajadagi hadislar bor bo'lganda, qiyosni ishlatmaydi. Naql qilinishicha, Abu Hanifaning o'zi bu haqda: «Allohga qasamki, kim bizni qiyosni hadisdan ustun qo'yadi desa, yolg'on aytibdi va bizga tuhmat qilibdi. Hadis bo'lgandan keyin qiyosga hojat qolar edimi?!» dedi. Shuningdek, Abu Hanifa aniq, ravshan qilib: «Biz o'ta zarurat bo'lgan vaqtdagina qiyosga murojaat qilamiz. Chunki biror masalaga dalil axtarsak, biz, avvalo Qur'onga, undan keyin sunnatga va qolaversa, sahobai kiromlar fatvolariga murojaat qilamiz, agarda ushbu manbalardan dalil topa olmasak, shundagina dalili yo'q masalani o'ziga o'xshash va dalili mavjud masalaga qiyos qilamiz» deya ta'kidladi.

«Istehson» lug'atda «bir narsani yaxshi deb hisoblash» ma'nosida ishlatiladi. Ya'ni, biror narsaning yaxshisini, go'zalini, mustahkamini izlash demakdir. Alloh taolo aytadi: «Ey Muhammad, Mening bandalarimga - so'zga quloq tutib, uning eng go'zaliga ergashadigan zotlarga xushxabar bering!» (Zumar,17). Usul istilohida esa, «mujtahidning ochiq-ravshan qiyosdan maxfiy qiyosga, kulliy hukmdan juz'iy hukmga o'tishi» tushuniladi. Ya'ni, bir ishni nassga (shar'iy hukm asoslariga) qiyos etish imkoni bo'lmasa, faqih ijtihod qilib, odamlarga oson bo'lishi maqsadida istehson qoidasi bilan hukm chiqaradi. Imom

Abu Hanifa shar'iy hukm olishda istehsonga asoslanib hukm chiqarishni qabul qilgan.

~ «Urf» deb kishilar o'rganib-odatlanib qolganlari tufayli qiladigan va shariat ta'limotiga zid bo'lmagan ishlariga aytiladi. Faqihlar urfning shar'iy dalilligini e'tirof etib, uni qabul qilishgan. Abu Hanifa (r.h.) ham Abdulloh ibn Mas'uddan rivoyat qilingan quyidagi hadisga asoslanib urfni qabul qilgan. Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Musulmonlarning ko'pchiligi nimani yaxshi deb bilsa, u Alloh huzurida ham yaxshidir». Imom Ahmad ibn Hanbal (r.h.) ham urfni shar'iy dalil deb qabul qilgan.

Mana shunday asoslarga barpo qilingan hanafiy mazhabi ta'limotida barcha fiqhiy masalalar aniq va ravshan bayon qilingan. Huquqiy muammolar juda sodda ravishda o'z yechimini topgan. Har bir masalaning nozik jihatlarigacha e'tibor qilingan. Chunki, bu mazhab mujtahidlari ham diniy, ham dunyoviy fanlarni chuqur bilishgan. Masalan, musulmon kishi uchun qibla, ya'ni Makka shahridagi Ka'ba binosi joylashgan tarafni topish muhimdir. Qadimda hozirgidek turli astronomik vositalar bo'lmagan paytda Ka'ba yo'nalishini topish muammosi yuzaga kelgan. Mujtahid ulamolar bu masalani jiddiy o'rganib, Movarounnahrda hijriy-qamariy hisobiga ko'ra birinchi hamal, ya'ni 21 mart kuni va birinchi mezon, ya'ni 23 sentabr kuni quyosh aynan qibla tarafiga botishini isbot qilishgan. Yilning boshqa kunlari esa tunda doim shimolga qarab turuvchi Qutb yulduzi orqali qiblani topishni tavsiya qilishgan.

Umuman, hanafiy mazhabi mo'tadilligi, ilmiy asoslarining puxtaligi va huquqiy muammolarni osonlik bilan hal etgani kabi xususiyatlari tufayli islom olamining ko'plab hududlariga tarqaldi. Natijada mazhablar ichida katta va keng yoyilgan mazhabga aylandi

## Asosiy tayanch tushunchalar:

Hanafiylik asoschisi **Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobitdir**. U 80/699-yilda tug'ilib, 150/767-yilda vafot etgan.

Imom A'zam **ustozlarining adadi 4000** ga yetishi manbalarda qayd etilgan. Ulardan **8 tasi sahoba, 39 tasi tobe'in** edi.

No'mon ibn Sobit tarixga ikki sharafli nom bilan kirdi.

**1. Abu Hanifa**, ya'ni to'g'ri yo'lda sobit turuvchilar rahnamosi.

**2. Imom A'zam**, ya'ni buyuk imom.

Hukmdor Mansur Abu Hanifa mazhabining asoslari haqida eshitib, unga: «Haqiqatan ham sen o'zingga kuchli hujjat to'plagan ekansan» degan.

Imom A'mash shogirdi Abu Hanifaning zakovatiga qoyil qolib, fiqh ahlini sharafllovchi quyidagi mashhur iborani aytgan: "Ey faqihlar jamoasi, sizlar tabib, biz muhaddislar esa dorishunos ekanmiz".

Hindistonlik mashhur olim **Mahmud Hasanxon Tunkiy** o'zining 60 jildlik (20 ming sahifa) qomusiy asari «Majmaul-musannifin»da Abu Hanifa shogirdlari soni **882** ta deb ko'rsatgan.

Asad ibn Furot rivoyatiga ko'ra, bunday shogirdlar soni **40** taga yetib borgan bo'lsa, Ibnul-Bazzoziy "Manoqib"ida ularning soni **36 ta erkak** deb ko'rsatilgai. Ulardan **28 kishi** qozilik vakolatiga, **6 tasi** fatvo berish salohiyatiga ega edi, ikkitasi, ya'ni Abu Yusuf va Zufar ham qozilik vazifasini bajarish, ham fatvo berish bo'yicha iqtidorli olim edi.

Imom Abu Hanifa (r.h.) o'z mazhabini bino qilishda **Qur'oni karimga, sunnati nabaviyaga, ijmo'ga, qiyosga va sahobalarning qavllariga hamda urfga** suyandi

Hanafiy mazhabi mo'tadilligi, ilmiy asoslarining puxtaligi va huquqiy muammolarni osonlik bilan hal etgani kabi xususiyatlari tufayli islom olamining ko'plab hududlariga tarqaldi.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Imom A'zam qaysi yillarda hayot kechirgan?
2. Abu Hanifaning yoshlik yillari haqida ma'lumot bering?
3. Abu Hanifa ismining ma'nosi nimani anglatadi?
4. Imom A'zam ustozlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Abu Hanifa asarlari haqida ma'lumot bering?
6. "Al-fiqhul akbar" qaysi sohaga tegishli?
7. Hanafiy mazhabining asoslarini bayon qiling?
8. Hanafiy mazhabida qiyosning o'rni qanday?
9. Imom A'zam shogirdlari soni nechta va ular haqida nimalarni bilasiz?
10. Hanafiy mazhabining islom olamining ko'plab hududlariga tarqalishi sabablari nimada?

### **Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan manba va adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Oллоh qalbimizda, yuragimizda: "Turkiston-press" axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar -T.: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T. : O'zbekiston, 2008.
3. Alouddin Mansur. Imomi A'zam-buyuk imomimiz. - Toshkent: G'G'ulom nomli adabiyot va san'at nashr., 1999.
4. Begmatov A. Bir mazhab tarixi. -T.: 1997.
5. A.Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. O'quv qo'l. -T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.

6. Imomi A'zam (Abu Xanifa). Al-fiqh ul-akbar –Toshkent : Adolat, 2003.

7. Samarqandiy Vasliy. Imom A'zam tarixi: Al-kalomul-afham fi manaqibi imomi A'zam / mas'ul muharrir: Alibek Rustam. – Toshkent : Yozuvchi, 1995.

8. Муҳаммад Али ал-Кутб. Основатели четырех мазхабов. –Санкт-Петербург: ДИЛЯ, 2005.

9. Muhammad Abu Zahra. Abu Hanifa: hayotuhu va asruhu va orouhul-fiqhiya – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1997.

10. Our Greet Ancestors / responsible editor: Z.Islamov. –T.: Publishing house of Tashkent islamic university, 2002.

## 5-BOB. MOLIKIY MAZHABI

- 5.1. Imom Molik hayoti va faoliyati
- 5.2. Imom Molik merosi va izdoshlari
- 5.3. Molikiy mazhabi ta'limoti

### 5.1. Imom Molik hayoti va faoliyati

Molikiy mazhabining asoschisi Imom Molik ibn Anasdir. Abu Abdulloh Molik ibn Anas al-Asbahiy (r.h.) hijriy 93-179, milodiy 713 - 795-yillarda hayot kechirgan. Madina shahrida tug'ilib, shu yerda vafot etgan. Uning nasabi yamanlik Ziy Asbahga boradi. Katta bobosining ismi Horis Ziy Asbah bo'lgani uchun Imom Molik Asbahiy deya nisba olgan. Molikning otasi bo'lmish Anasning Abu Omir ismli bobosi Payg'ambar (a.c.)ning sahobalaridan edi. Molikning bobosi Abu Anas esa tobeinlardan bo'lib, Usmon (r.a.)ni g'usl qildirib, dafn qilishda ishtirok etganlarning biri edi.

Imom Molik (r.h.) Madinai munavvaradagi yirik ulamo va muhaddislar huzurlarida ta'lim oldi. Nofe', Al-Maqbariy, Na'im al-Mujmir, Zuhriy, Omir ibn Abdulloh ibn Zubayr, Abdulloh ibn Dinor, Ibn Munkadir, Ato ibn Raboh, Abdulloh ibn Ahmad kabilardan ilm o'rgandi.

Molik ibn Anas butun umri davomida faqat bir marotaba haj qilish munosabati bilangina Madinayi munavvarani tark qilgan. Hadis ilmi bilan ko'proq mashg'ul bo'lgan. Hadis rivoyat qiluvchi eng siqa (ishonchli) roviylardan hisoblanadi. Imom Molikning ustozlari Nofe'dan, Nofe'ning esa Abdulloh ibn Umar

(r.a.)dan rivoyat qilgan hadislar silsilasi muhaddislar o'rtalarida "oltin sanad" deb yuritiladi.

Molik ibn Anas ham muhaddis, ham faqih bo'lgan. U Hijoz o'lkasi (Arabiston yarim orolining g'arbiy sohillari)da e'tirof etilgan olim sifatida tanilib, "Imomul-Madina", "Imomu doril-hijra", ya'ni Madina shahrining imomi degan unvonga musharraf bo'lgan.

Imom Molik (r.h.) Imom Abu Hanifa va uning shogirdi Abu Yusuf bilan muloqotda bo'lgan. U Arabiston zaminida zohir bo'lgan molikiy mazhabining asoschisi bo'lib tanildi. Zotan, Molik ibn Anas asos solgan bu ta'limot Arabiston yarim oroli va Afrika mintaqasi aholisi uchun muvofiq keldi.

Imom Molik umrining 40 yilini sarflab, "Muvatto" nomli ulkan kitobni yozdi. Bu kitobda u fiqhiy masalalarga doir o'z yechimlarini bayon qilgan va ularning isboti sifatida Payg'ambar (a.s.)ning juda ko'plab hadislarini naql etgan. Bu kitobda nafaqat hadislar, balki o'sha zamondagi sahobalarning fikrlari va so'zlari ham rivoyat qilingan. Undagi hadislar adadining ko'pligi sabab ba'zi ulamolar tarafidan "Muvatto" ning fiqhga emas, balki hadisga doir kitob deb qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

Molik ibn Anas (r.h.) o'z zamonining yirik muhaddisi bo'lgan. O'sha vaqtda hadislarni jamlash harakati endi taraqqiy qila boshlagan bir paytda "Muvatto" ko'plab hadislarni o'zida jamlagan yagona kitob edi. Imom Molik madrasalarida asosan hadisdan dars berilgan, bu madrasa tinglovchilari ham muhaddislar bo'lishgan. Bu inkor etilmagan haqiqatdir. Lekin, Molik ibn Anasning boshqa faoliyati, ya'ni ijtihodini nazarga olmaslik mumkin emas. U har bir hadisni tahqiq etishda mulohaza bilan, hadisning tarixini, maqsadini mukammal o'rgangan va shundan keyin o'z nuqtayi nazarini bayon qilgan. Shu tariqa molikiy mazhabi fiqhiy qoidalari shakllangan.

Boshqa mujtahidlar istifoda qilganlaridek, Imom Molik ham molikiy mazhabi ta'limotiga islom fiqhining to'rt asosiy manbalari

Qur'oni karim, sunnat, qiyos va ijmo'dan foydalangan holda asos solgan.

Imom Molikdan o'sha davrning yirik ulamolari Imom Avzo'iy, Imom Shofeiyy, Imom Abu Hanifaning maslakdoshi va shogirdi Imom Muhammad ibn Hasan va boshqalar ta'lim olganlar.

## 5.2. Imom Molik merosi va izdoshlari

Imom Molik ko'plab asarlar yozdi. Ularning ichida eng mashhuri va ahamiyatlisi "Muvatto" kitobidir. Bundan tashqari Imom Molikning Horun ar-Rashidga yozgan 23 sahifa risolasi, Ibn Vahbga yozilgan "Qadariya firqasiga taqdir masalasida raddiya haqidagi risola", shuningdek, ba'zi bir qozilar uchun yozilgan 10 juzlik "Qozilik haqidagi kitob", G'asson Muhammadga yozilgan "Fatvo haqidagi risola" kabi asarlari bo'lgani haqida manbalarda ma'lumot beriladi.

Imom Molik shogirdlarining sanog'iga yetish mushkul: ulardan Abdulloh ibn Muborak, Ibnul Mahdiy, Abdulloh ibni Yusuf kabilar. Imom Shofeiyy Imom Molikning huzuriga kelib "Muvatto"ni yodlab bergan va ul zot "Agar bir kishi najot topsa ham mana shu bola najot topadi" degani tarixchilar tomonidan naql qilingan. Imom Muhammad ibn Hasan ham Imom Molikdan bir necha yil ta'lirn olgan. U haqda imomi Shofeiyy shunday degan ekan: "Qachonki, ulamolar zikr qilinsa, Imom Molik ular ichidagi yulduzdir". Imomi Shofeiyydan naql qilingan yana bir rivoyatda u Molik ibn Anasni o'z zamonasining eng bilimdoni deya baho bergan.

Ibn Vahb shunday rivoyat qiladi: "Madina shahrida bir jarchini quyidagacha nido qilayotganini eshitdim: "Kishilarga Molik ibn Anas va Ibn Abi Zi'bdan boshqa hech kim fatvo bermasin". Hatto o'sha davr ulamolari orasida shunday ibora yurardi: "Imom Molik Madinada bo'la turib, falonchi fatvo beryaptimi?"



Imom Shofeiy Imom Molikni Hijoz ilmni zoye bo'lishdan saqlab qolguvchilardan deb hisoblar edi. U shunday degan: "Molik va Ibn Uyayna bo'lmaganda ilm Hijozda saqlanib qolmasdi". Abdurahmon ibn Maxdiy shunday deydi: "Kishilar ergashadigan hadis ilmi imomlari to'rtta:

1. Ko'fada Sufyon Savriy.
2. Hijozda Imom Molik.
3. Shomda Imom Avzo'iy.
4. Basrada Hammud ibn Zayd.

U so'zlarini davom ettirib, yana shuni qo'shimcha qildi: "Savriy - hadis ilmining imomi, ammo sunnat ilmining emas. Avzo'iy - sunnat ilmining imomidir, hadis ilmining emas. Molik - ham hadis, ham sunnat ilmining imomidir". Zahabiy shunday deydi: "Imom Molikda men boshqa kishilarda birgalikda uchratmagan quyidagi xislatlar jam bo'lgan edi:

- 1 Umrining uzoqligi va rivoyatlarning oliy darajadaligi.
2. O'tkir zehn, fahm va chuqur bilim.
3. Rivoyatlarining ishonchligiga imomlarning ittifoq qilgani.
4. Diyonatli, adolatli, sunnatga ergashuvchi ekaniga ulamolar yakdillik bilan guvohlik bergani.

5. Fiqhda, fatvoda peshqadam va usul qoidalarining ishonchliligi. "Muvatto" kitobini sharhlagan Imom Zarqoniy shunday dedi:

"Imom Molik (r.h.) 900 shayxdan ilm o'rgandi, 70 ta imom u kishiga ruxsat bergandan so'nggina fatvo berishni boshladi. O'z qo'li bilan 100 mingta hadisni yozdi, 17 yoshida dars berishni boshlagan edi".

Savollarga judayam ehtiyotkorlik bilan javob berar edi. Bir kuni undan 80 savolning javobi so'ralganda 32 tasiga bilmayman deb javob bergani manbalarda qayd etilgan.

### 5.3. Molikiy mazhabi ta'limoti

Imom Molik umrining ko'proq qismi Madinada o'tdi. U yashagan davrda ilm boblarga bo'linmagan va yagona tartibga keltirilmagan edi. Shuning uchun ham Imom Molik (r.h.) o'z mazhabiga asos solishda qanday fiqhiy usuldan foydalanganini tarixiy kitoblardan topish mahol. Faqat keyingi davrda faoliyat ko'rsatgan molikiy ulamolar bu mazhabning usul qoidalarini shakllantirdilar. Lekin ularda Imom Molikdan tashqari, bu mazhabdagi boshqa mujtahidlarning fikrlari ham aralash holda bayon qilingan edi. Shunday bo'lsa-da, Imom Molikning asosiy asari bo'lmish "Muvatto"ga qaraganda, molikiy mazhabining asoslari quyidagilardir:

1. Qur'oni karim.
2. Sunnati nabaviya.
3. Sahobalar so'zlari.
4. Ijtihod va qiyos.
5. Istehson.
6. Al-maslaha al-mursala.
7. Urf.

E'tiborli jihati, Imom Molik ijmo'ni asos qilib olishda, asosan, Madina ahlining ijmo'ini nazarda tutgan. Negaki, Molik ibn Anas ushbu shahar ahlini payg'ambar va sahobalar yo'l-yo'riqlarini bilib olgan va unga asoslanib kelgan deb hisoblardi.

#### Asosiy tayanch tushunchalar:

Molikiy mazhabining asoschisi **Abu Abdulloh Molik ibn Anas al-Asbaxiy** (r.h.) hijriy 93-179, milodiy 713 - 795-yillarda yashagan.

Imom Molik ham muhaddis, ham faqih bo'lib, "Imomul-Madina", "Imomu doril-hijra", ya'ni Madina shahrining imomi degan unvonga musharraf bo'lgan.

Imom Molik Horun ar-Rashidga bag'ishlangan 23 sahifali risola, Ibn Vahbga yozilgan "Qadariya firqasiga taqdir masalasida raddiya" haqidagi risola, qozilar uchun yozilgan 10 juzlik "Qozilik haqidagi kitob", G'asson Muhammadga yozilgan "Fatvo haqidagi" risola kabi asarlar muallifidir. Ularning ichida eng mashhuri va muhimi "Muvatto" kitobidir.

Imom Molik Abdulloh ibn Muborak, Ibnul Mahdiy, Abdulloh ibni Yusuf, Imom Shofei, Imom Muhammad ibn Hasan kabilarga ustozlik qilgan.

Imom Zarqoniy: "Imom Molik (r.h.) 900 shayxdan ilm o'rgandi, 70 ta imom u kishiga ruxsat bergandan so'nggina fatvo berishni boshladi. O'z qo'li bilan 100 mingta hadisni yozdi, 17 yoshida dars berishni boshlagan edi", deya ta'kidlagan.

Molikiy mazhabining asoslari quyidagilardir: Qur'oni karim, sahobalar so'zlari, ijthod va qiyos, istehson, al-maslaha al-mursala, urf. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy keltirgan ma'lumotga ko'ra, Imom Molik mazhabining yana bir fiqhiy asosi o'sha davrdagi Madina ahli ko'pchiligining kelishuvidir, ya'ni Madina shahri olimlarining ijmo'idir

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Imom Molik qaysi yillarda hayot kechirgan?
2. Imom Molikning nasl-nasabi va yoshlik yillari haqida ma'lumot bering?
3. Imom Molikning ilm olishi va ustozlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Imom Molik asarlari haqida ma'lumot bering?
5. Imom Molikning mashhur asari qaysi ?
6. "Oltin sanad" nima?
7. Imom Molikning shogirdlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Molikiy mazhabining asoslarini bayon qiling?
9. Molikiy mazhabida ijmo'ning o'rni qanday ?

**Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan  
manba va adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. A.Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. O'quv qo'l. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.
3. Uinter Timoti J. (Abdulkhakim Murod) XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish) – Toshkent : Sharq, 2005.
4. Hasanov A. Islom tarixi. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
5. Husnidinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.
6. Мухаммад Али ал-Кутб Основатели четырех мазхабов. – Санкт-Петербург: ДИЛЯ, 2005. .
7. Muhammad Abu Zahra. Molik: hayotuhu va asruhu va orouhul-fiqhiya – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1997.
8. Muhammad Abu Zahra. Tarix al-mazahib al-islamiya. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1996.
9. Abdulvahob Zohid. Hayot al-aimma al-arba'a. – Chonju. Janubiya Koreya, 2003.
10. Abdulkarim Shahrisoniy. Al-milal van-nihal. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992.
11. Abdulqohir Bag'dodiy. Al-farq baynal-firaq. – Bayrut: Al-Maktaba al-asriya, 1996.

## 6-BOB. SHOFEIY MAZHABI

- 6.1. Imom Shofeiyy hayoti va faoliyati
- 6.2. Imom Shofeiyy merosi, shogirdlari va izdoshlari
- 6.3. Shofeiyy mazhabi ta'limoti

### 6.1. Imom Shofeiyy hayoti va faoliyati

Shofeiyy mazhabi asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon Shofeiyydur. U 150/767 - 204/820-yillar davomida hayot kechirdi. Nasabi payg'ambarning amakisi bo'lmish Hoshim ibn Muttalibga borib taqaladi. Shofeiyy nomi bobosi Shofi' ismi bilan bog'liqdir. Zahabiy aytishicha, Imom Shofeiyy (r.h.) Falastinning G'azo mintaqasida tug'ilgan. Ikki yoshligida otasi vafot etadi va onasi uning oliyjanob naslini saqlab qolish niyatida Makkaga qarindoshlar oldiga olib ketadi va u yerda to Qur'onni yod olib, arab tili va she'rlarini mukammal o'rgangunicha yashab qoladi. Shundan so'ng u sahroga - Huzayl qabilasiga yuboriladi. Bu qabila esa o'zining suxanzabonligi va she'riy an'anasi bilan mashhur edi. Keyinchalik Madinaga borib, Imom Molik davrasida fiqhni o'rgandi.

Imom Shofeiyy (r.h.) ilm o'rganishga judayam qiziquvchan edi. O'z davridagi taniqli olimlarning so'zlarini rivoyat qilgan. Molik ibn Anas, Muhammad ibn Hasan Shayboniy, Muhammad ibn Xolid Jundiy, Muslim ibn Xolid Zanjijy, Marvon ibn Muoviya, ulug' imomlardan bo'lmish Vake' ibn Jaroh kabi ko'plab olimlar Shofeiyya ustozlik qildilar. Makka qorisi Ismoil ibn Qustantindan Qur'onni tajvid bilan o'qishni o'rgandi. Ilm talabida ko'p safar qilar edi. Yosh paytlarida mashhur olim So'fyon bin Uyayna

majlisida ishtirok etardi. Undan tafsir yoki fatvo haqida biror masala so'rab kelishsa, Shofeiyyga o'g'irilib: "Mana shu yigitdan so'ranglar!" der edi.

Shofeiyy Imom Molik vafotidan so'ng Yamanda faoliyat olib boradi. "Aliychi"larga xayrixohlikda ayblanib, Iroqqa xalifa Horun ar-Rashid saroyiga olib kelinib so'roqqa tutiladi. U o'zini mohirona himoya qilishi va Imom A'zam shogirdi Muhammad ibn Hasan Shayboniy homiyligiga olgani tufayli-omon qoladi.

Shofeiyy hadis va fiqh borasida ulkan darajalarga erishdi. Ilm izlab juda ko'p marta safar qildi. Hamidiy aytadi: "Bir gal Shofeiyy Yamandan kelganida yonida 20 ming dinor bor edi va Makka tashqarisiga chodir qurib, to ana shu 20 ming dinorni ehson qilib, sarflagunlaricha o'sha yerda yashadi". U tilamchini yoki u kishidan biron narsani so'raganni rad qilishdan hayo etardi. Rabi' aytadi: "Imom Shofeiyy (r.h.) undan biron narsa so'ragan kishidan hayo qilar edi va u so'ragan narsasini berib yuborishga shoshilardi. Ul zotni kishilar haqini biladigan, ularga husni xulq bilan muomala qiladigan juda ham odobli kishi sifatida bilar edik".

Shofeiyy o'zining ilm olishi haqida shunday degan: "Men Qur'ondan, hadisdan, nahvdan yoki shunga o'xshash boshqa ilmlardan biror narsani o'rganadigan bo'lsam, bu o'rganish jarayonida hamisha odob - axloqqa rioya qilar edim, Madinaga kelgunimcha bu mening odatim edi. Unda men Imom Molikni ko'rdim. Ul zotdek ilmni ulug'laydigan, haybatli kishini uchratmagan edim. Odob - axloqqa bo'lgan ahamiyatim shu darajada oshdiki, Imom Molik darslarida ul kishi varaq shitirlashini eshitmasliklari uchun kitobni nihoyatda muloyimlik bilan varaqlar edim".

## 6.2. Imom Shofeiyy merosi, shogirdlari va izdoshlari

Imom Shofeiyyning ustozlari ko'p bo'lgani kabi shogirdlari ham ko'pdir. Undan Imom Ahmad ibn Hanbal, Imom Hamidiy, Abu Ubayd, Abu Savr, Robi' al-Murodiy, Imom Za'faroniy kabi

ko'plab ilm peshvolari ta'lim olganlar. Is'hoq ibn Rohavayh aytadilar: "Makkada Ahmad ibn Hanbal menga: "Bu yoqqa kel, men senga hali ko'zlaring o'xshashini umuman ko'rmagan bir kishini ko'rsataman"- deb, meni Imom Shofeiyni oldiga olib bordi. Demak, Is'hoq ibn Rohavayh Shofeiyni ta'lim olgan, Ahmad ibn Hanbal esa uning eng yetuk shogirdlaridandir.

Imom Shofeiyy (r.h.) yoshlik chog'idanoq ulamolar tomonidan kuchli zehn va zakovat sohibi deya tavsiflangan. Shofeiyy Imom Molikning oldiga borib unga u yozgan "Muvatto" kitobini yoddan aytib berganida Imom Molik shunday degan ekan: "Agar bir kishi najot topsa ham mana shu yigit bo'ladi". Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy ham Shofeiyni ko'rganida uni ulug'lab, izzat-ikrom qilar edi. Bu haqda Abu Hasan az-Ziyodiy shunday deydilar: "Imom Muhammad ibn Hasanning ahli ilmlar orasida biror kishini Shofeiychalik izzat-ikrom qilganini ko'rmadim". Ahmad ibn Hanbal shunday degan: "Biron kishi qalam yoki siyohdon ushlaydigan bo'lsa, u albatta Shofeiyni minnatdor bo'lishi kerak".

Tarixiy manbalarda Imom Shofeiyni asarlari haqida ma'lumotlar qayd etilgan. U yozgan birinchi kitob "Hujjat" deb ataladi. Unda hadis fiqhi, aynan Madina ahli fiqhi haqida so'z yuritiladi. Imom Shofeiyy (r.h.) Misrga kelganidan so'ng o'zining "Al-Umm" degan mashhur kitobini yozdi. Shuningdek, "Amalil-kubro", "Imlous-sag'ir" kabi asarlarini ham ta'lif qildi. Rabi' ibn Sulaymon aytadi: "Imom Shofeiyy bu yerda, ya'ni Misrda yashagan to'rt yil muddat ichida bir yarim ming varaq hajmi miqdorida asarlar yozdi. Bundan tashqari "al-Umm" kitobi ikki ming varaq edi va hokazo ko'plab asarlar yozdi".

### 6.3. Shofeiyy mazhabi ta'limoti

Imom Shofeiyy hijriy ikkinchi asrning o'rtalarida hayot kechirdi. Madinada Imom Molik ibn Anasdan ta'lim olib "Muvatto" kitobini yodladi. So'ng Iroqda istiqomat qilgan

chog'ida Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibni Hasan Shayboniydan fiqh ilmi bo'yicha Iroq ahli yo'nalishini o'rgandi. Bu orqali Imom Abu Hanifaning ilmini va fiqhiy usulini yod oldi. Natijada Shofeiyy (r.h.) hijozliklar ilmi bilan iroqliklar ilmini jamlashga muvaffaq bo'ldi. Ilmda yuksak martabaga erishgan Shofeiyy birinchi bo'lib fiqhiy usullarni tartibga soldi va bu borada uning ilk kitobi aynan shu edi. Imom Shofeiyy bu kitobda shunday deydi: "Ilm ikki xildir: taqlid va istinbot (ya'ni mustaqil fatvo chiqarish). Taqlid - hukm olishda Qur'oni karimga, agar undan topilmasa sunnatga, agar undan ham topilmasa, solih olimlarning ko'pchiligiga ergashishdir. Agar undan ham topilmasa, Qur'oni karim oyatlariga qiyos qilinadi. Undan ham topilmasa, ko'pchilik salafning so'zlariga qiyos qilinadi. Agar qiyos qilishda ixtilof qilishgacha borilsa, har kim o'zicha ijtihod qiladi".

Yuqoridagi so'zlardan Shofeiyy mazhabining manbalari quyidagilar ekani ma'lum bo'ladi:

1. Qur'oni karim.
2. Sunnati mutohhara.
3. Sahobalar qavllari.
4. Qiyos.
5. Ijtihod.

"Islomda huquq" kitobi mualliflari fikricha, uning davrida huquqiy istidlol, ya'ni fatvolarni dalillar bilan asoslash nihoyat darajada rivojlanadi. Payg'ambar (s.a.v.) dan rivoyat qilingan hadislarga bo'lgan chuqur ishonch ul zotga boshqa biror hadisni ochiq shaklda rad qilish imkonini bermaydi. Imom Shofeiyy faqat rivoyatga qarshi rivoyat topilgandagina bunday imkoniyatga ega bo'lardi.

### Asosiy tayanch tushunchalar:

Shofeiyy mazhabi asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbas ibn Usmon Shofeiyydir. U 150/767 - 204/820-yillar davomida yashagan.



Nasabi payg'ambarning amakilari bo'lmish Hoshim ibn Muttalibga borib taqaladi. Zahabiy aytishicha, Imom Shofeiyy Falastinning G'azo mintaqasida tug'ilgan.

Molik ibn Anas, Muhammad ibn Hasan Shayboniy, Muhammad ibn Xolid Jundiy, Muslim ibn Xolid Zanjiy, Marvon ibn Muoviya, ulug' imomlardan bo'lmish Vake' ibn Jaroh, Makka qorisi Ismoil ibn Qustantin, So'fyon bin Uyayna kabi ko'plab ulamolar Shofeiyyga ustozlik qildilar.

Imom Shofeiyydan Imom ibn Hanbal, Imom Hamidiy, Abu Ubayd, Abu Savr, Robi' al-Murodiy, Imom Za'faroniy, Is'hoq ibn Rohavayh kabi ko'plab ilm peshvolari ta'lim olganlar.

Imom Shofeiyy "Hujjat", "Al-Umm" "Amalil-kubro", "Imlous-sag'ir" kabi asarlarni tasnif qilgan.

Shofeiyy hijozliklar ilmi bilan iroqliklar ilmini jamlashga muvaffaq bo'ldi. Shofeiyy mazhabining manbalari quyidagilar:

1. Qur'oni karim.
2. Sunnati mutohhara.
3. Sahobalar qavllari.
4. Qiyos.
5. Ijtihod.

#### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Imom Shofeiyyning to'liq ismi va nasl-nasabi haqida ma'lumot bering?
2. Shofeiyy qaysi yillarda hayot kechirgan?
3. Shofeiyyning ustozlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Shofeiyy ilm olish yillarida molikiy va hanafiy mazhablarini qaysi vakillaridan ta'lim oldi?
5. Imom Shofeiyy asarlari haqida ma'lumot bering?
6. Imom Shofeiyy shogirdlari va izdoshlaridan kimlarni bilasiz?
7. Shofeiyy mazhabi ta'limoti nimalarga asoslanadi?
8. Shofeiyy mazhabida istehsonning o'rnini haqida ma'lumot bering?

## Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan

### manba va adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T. : O'zbekiston, 2008.
2. Jo'zjoniy. A. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. O'quv qo'l. -T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.
3. Hasanov A. Islom tarixi. -T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
4. Husnidinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. -T.: Movarounnahr, 2000.
5. Мухаммад Али ал-Кутб. Основатели четырех мазхабов. -Санкт-Петербург: ДИЛЯ, 2005.
6. Muhammad Abu Zahra. Ash-Shafiiy: hayotuhu va asruhu va orouhul-fiqhiya --Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1997.
7. Muhammad Abu Zahra. Tarix al-mazahib al-islamiya. -- Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1996.
8. Abdulvahob Zohid. Hayot al-aimma al-arba'a. --Chonju. Janubiya Koreya,. 2003.
9. Abdulkarim Shahrisoniy. Al-milal van-nihal. --Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992.
10. Abdulqohir Bag'dodiy. Al-farq baynal-firaq. --Bayrut: Al-Maktaba al-asriya, 1996.

## 7-BOB. HANBALIY MAZHABI

- 7.1. Imom Ahmad ibn Hanbal hayoti va faoliyati
- 7.2. Imom Ahmad merosi, shogirdlari va izdoshlari
- 7.3. Hanbaliy mazhabi ta'limoti

### 7.1. Imom Ahmad ibn Hanbal hayoti va faoliyati

Hanbaliy mazhabi asoschisi Imom Ahmad ibn Hanbaldir. U 164/ 780 – 241/855-yillarda hayot kechirgan. Ahmad ibn Hanbalning to'liq ismi – Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal ibn Hilol ibn Asad az-Zuhaliy al-Marvaziy al-Bag'dodiydir. Kelib chiqishi arablardan bo'lmish Ahmad ibn Hanbalning naslu nasabi Robia Adnoniya ismli mashhur ayol mansub bo'lgan Shaybon qabilasiga borib taqaladi. Shaybonning nasabi Nazzor ibn Ma'd ibn Adnonda Muhammad (a.s.)ning nasablari bilan tutashadi. Ahmad ibn Hanbal otasidan erta ayriladi va uning tarbiyasi bilan onasi shug'ullandi.

Abu Zahra shunday deydi: “Ahmad ibn Hanbal (r.h.) Bag'dodda o'sib voyaga yetdi va u yerda o'zining ilk ta'lim tarbiyasini oldi. Bag'dod o'sha paytda fiqh, hadis, lug'at, falsafa va boshqa ilm sohalarning ulamolari va insonlar bilan to'qinlanib turardi”.

Ahmad ibn Hanbal Bag'dod shayxlaridan ta'lim olgach, Hijoz, Yaman, Shom kabi ko'plab mamlakatlarga safar qildi. Ahmad ibn Hanbal (r.h.)ning ustozlarini sanab adog'iga yetish qiyin: Hammud ibn Xolid, Usmon ibn Umar, Muhammad ibn Yazid, Yazid ibn Horun, Abdurahmon ibn Mahdiy, Vake' ibn Jaroh, Muhammad ibn Idris ash - Shofeiyy, Ibrohim ibn Sa'd az-Zuhriy. Imom Abu Hanifaning eng yaqin shogirdlaridan bo'lmish

Imom Abu Yusufdan hanafiy fiqhini o'rgandi. Imom Shofeiyni ustoz deb bilib, undan ham fiqh ilmini o'rgandi. Shuningdek, Yamanga borib Abdurazzoq ibn Xumordan ta'lim oldi.

Mana shunday ilm muhitida o'sgan Ahmad ibn Hanbal Allohning fazli bilan fiqh va hadis imomlaridan biriga hamda butun islom olamida unga ergashiladigan mazhab sohibiga aylandi. U husni xulq sohibi bo'lib, o'ziga ham, insonlarga ham rostgo'y edi. Rivoyat qilinishicha, abbosiylar sulolasi vakili Mutavakkil o'z xodimidan Ahmad ibn Hanbalga salom aytib, 10 ming dirham berib yuboradi. U xodimga: "Sen bularni hammasini ehson qilib yubor", - deb pullarni qabul qilmaydi. Shunda xodim: "Ey, Abu Abdulloh, agar sen bu pullarni qaytarsang, hukmdor bilan o'rtalaringga nizo tushib qolishidan qo'rqaman. Senga maslahatim, bu pullarni qabul qil", -deya ularni Imom Ahmadning oldiga qo'ydi va o'zi ketdi. Tun oxirlab qolganda Imom Ahmad o'z ahli ayollarini, amakilarining o'g'illarini chaqirtirib, ularga shunday dedi: "Men bu kecha uxlay olmadim". Ular birgalikda Basra va Bag'doddagi ilm ahllaridan muhtoj kishilarning ismlarini yozib chiqdilar. Tong otgandan so'ng Ahmad ibn Hanbal (r.h.) har bir kishiga ellik dirhamdan to yuz-ikki yuz dirhamgacha berib, pullarni tarqatib yubordi. O'zida biror dirham ham qolmadi.

## **7.2. Imom Ahmad merosi, shogirdlari va izdoshlari**

Ahmad ibn Hanbal ko'plab shogirdlarga ustozlik qildi. Zero, undan katta bir jamoa hadis rivoyat qilgan. Shogirdlari sanalmish Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Muslimning o'g'li Abdulloh ibn Muslim, Abu Dovud, Abu Zar'a, Abdulloh ibn Ahmad, Muso ibn Horun va hokazo ko'plab kishilar Ahmad ibn Hanbal (r.h.) dan eshitgan va o'rganganlarini rivoyat qilganlar.

Ali ibn Madiniy shunday degan ekan: "Bizning oramizda Ahmad ibn Hanbaldan ko'proq ilmni yod biluvchi kimsa yo'qdir". Zamondoshlari Al-Qosim ibn Salom shunday deydi: "To'rt kishi mukammal ilm sohibidir. Ahmad ibn Hanbal, Ali

ibn Madiniy, Yahyo ibn Mu'in va Abu Bakr ibn Abi Shayba. Ahmad ibn Hanbal ularning eng faqihidur. Men undan ko'ra sunnatni yaxshiroq biladigan kishini ko'rmadim". U bilan safarda va vatanda birga bo'lgan sohiblari shunday deydi: "Allohga qasamki, biz Ahmad qodir bo'lgan narsaga qodir emasmiz va uning yo'lidan yura olmaymiz". Ulamolar Ahmad ibn Hanbal haqida yomon fikr bildirganlarning dini va musulmonchiligiga shubha bilan qaraganlar. Ahmad ibn Ibrohim shunday deydilar: "Kimki Imom Ahmadni yomonlayotganini eshitsangiz uning musulmonchiligiga shubha qilavering".

Imom Ahmad ibn Hanbal (r.h.) fiqh bilan birga hadisi sharifni o'rganishga berilgan bo'lib, ko'plab hadislarini yodlar edi. U yashagan davrda biror bir masala topilmas ediki, u to'g'risida Abu Hanifa, Molik, Shofeyy kabi mashoyixlar fatvo bermagan bo'lsin. Shundan bo'lsa kerak, Imom Ahmad ibn Hanbal faqat o'zi zarur deb hisoblagan ba'zi masalalar bo'yichagina ijtihod qilib fatvo bergan va o'zining fiqhiy masalalarini to'plab kitob qilishga botina olmagan. Ammo, boshqa mavzularda ko'plab kitoblar yozgan. Ibn Nadim al-Bag'dodiy Ahmad ibn Hanbal tasnif qilgan quyidagi asarlarni sanab o'tgan:

1. "Amal kitobi".
2. "Tafsir kitobi".
3. "Nosix va mansux kitobi".
4. "Zuhd kitobi".
5. "Masalalar kitobi".
6. "Fazilatlar kitobi".
7. "Manosik kitobi".
8. "Imon kitobi".

Ahmad ibn Hanbalning eng mashhur asari "Musnad" bo'lib, u o'z ichiga o'ttiz mingdan ortiq hadisni jamlagan.

### 7.3. Hanbaliy mazhabi ta'limoti

Ahmad ibn Hanbal hadisshunoslik bo'yicha katta shuhrat qozondi. Bir guruh mashhur muhaddislar, jumladan, imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Muslim ibn Hajjoj undan hadis rivoyat qilganlar. U o'ziga xos fiqhiy qarashlarga ega edi va ular bilan boshqa mazhab tarafdorlaridan ajralib turardi. Gunohi kabiralarga qo'l urgan kishi haqida mo'tazila toifasining gunoh qilgan kishi mo'min emas, degan fikrni rad qildi.

Ahmad ibn Hanbal (r.h.) o'z uslubiga tayangan holda hanbaliy mazhabiga asos soldi va uni rivojlantirishda Makkada Ibn Abbas orqali kurtaklari o'sa boshlagan ilk huquqiy maktabdan foydalandi. U Qur'on, sunnat, sahobalar so'zlari va ijmo'ga asosiy e'tiborni qaratib, qat'iy zarurat bo'lmasa qiyosdan foydalanmagan. Barcha hadislarini, hatto xabari vohid va sahobalar qavlini qiyosdan ustun qo'yardi.

Hanbaliylarga binoan fiqh asoslari beshta:

1. Qur'on va sunna matnlari.
2. Sahobalarning fatvolari.
3. Qur'on va sunnaga muvofiq bo'lsa, ayrim sahobaning qavllari.
4. Isnodi zaif yoki ohod hadislar.
5. Mutlaqo ilojisiz qolganda, qiyos bo'yicha hukm chiqarish.

#### Asosiy tayanch tushunchalar:

Hanbaliylik asoschisi **Imom Ahmad ibn Hanbal**dir. U 164/780 – 241/855-yillarda hayot kechirgan..

Ahmad ibn Hanbalning to'liq ismi - **Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal ibn Hilol ibn Asad az-Zuhaliy al-Marvaziy al-Bag'dodiydir.**

Imom Shofeiyy, Imom Abu Yusuf, Hammud ibn Xolid, Usmon ibn Umar, Muhammad ibn Yazid, Yazid ibn Horun, Abdurahmon ibn Mahdiy, Vake' ibn Jaroh, Muhammad ibn Idris ash - Shofeiyy,

Ibrohim ibn Sa'd az-Zuhriylar Ahmad ibn Hanbal (r.h.)ning ustozlaridir.

Ahmad ibn Hanbalning mashhur shogirdlari: Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Muslimning o'g'li Abdulloh ibn Muslim, Abu Dovud, Abu Zar'a, Abdulloh ibn Ahmad, Muso ibn Xorun kabilar.

Ibn Nadim al-Bag'dodiy o'z kitobida Ahmad ibn Hanbal (r.h.) tasnif qilgan quyidagi asarlarni sanab o'tgan: "Amal kitobi", "Tafsir kitobi", "Nosix va mansux kitobi", "Zuhd kitobi", "Masalalar kitobi", "Fazilatlar kitobi", "Manosik kitobi", "Imon kitobi". Uning eng mashhur kitobi "Musnad" bo'lib, u o'z ichiga o'ttiz mingdan ortiq hadisni jamlagan.

**Hanbaliylarga binoan fiqh asoslari beshta:** 1. Qur'on va sunna matnlari. 2. Sahobalarning fatvolari. 3. Qur'on va sunnaga muvofiq bo'lsa, ayrim sahobaning qavllari. 4. Isnodi zaif yoki chod hadislar. 5. Mutlaqo ilojisiz qolganda, qiyos bo'yicha hukm chiqarish.

Ahmad ibn Hanbal yashagan davrda biror bir masala topilmas ediki, u to'g'risida Abu Hanifa, Molik, Shofeiyy kabi mujtahidlar fatvo bermagan bo'lsin. Shundan bo'lsa kerak, Imom Ahmad ibn Hanbal faqat o'zi zarur deb hisoblagan ba'zi masalalar bo'yichagina ijti-hod qilib fatvo bergan va o'zining fiqhiy masalalarini to'plab kitob qilishga botina olmagan.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Ahmad ibn Hanbal qaysi yillarda hayot kechirgan?
2. Ahmad ibn Hanbalning to'liq ismi va nasl-nasabi haqida ma'lumot bering?
3. Ahmad ibn Hanbalning ilm olishi va ustozlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Ahmad ibn Hanbal ustozlari orasida mazhab asoschilari bor edimi?
5. Ahmad ibn Hanbal merosi haqida nimalarni bilasiz?

6. Ahmad ibn Hanbalning mashhur asari haqida ma'lumot bering?
7. Hanbaliy mazhabi asoslarini bayon qiling?
8. Hanbaliy mazhabi ta'limotining boshqa mazhablarga nisbatan kam tarqalganiga nimalar sabab bo'lgan?

**Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan  
manba va adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. : O'zbekiston, 2008.
2. A.Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. O'quv qo'l. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.
3. Hasanov A. Islom tarixi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
4. Husnidinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.
5. Мухаммад Али ал-Кутб Основатели четырех мазхабов. – Санкт-Петербург: ДИЛЯ, 2005. .
6. Muhammad Abu Zahra. Ibn Hanbal: hayotuhu va asruhu va orouhul-fiqhiya – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1997.
7. Muhammad Abu Zahra. Tarix al-mazahib al-islamiya. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1996.
8. Abdulvahob Zohid. Hayot al-aimma al-arba'a. – Chonju. Janubiy Koreya., 2003.
9. Abdulkarim Shahrisoniy. Al-milal van-nihal. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992.
10. Abdulqohir Bag'dodiy. Al-farq baynal-firaq. – Bayrut: Al-Maktaba al-asriya, 1996.



## OQIMLAR TARIXI

### 8-BOB. VIII-XI ASRLARDA YUZAGA KELGAN OQIMLAR

- 8.1. Xorijiylikka mansub oqimlar
- 8.2. Shialik oqimlari
- 8.3. Mo'taziliylar
- 8.4. Murjiylar
- 8.5. Qadariylar
- 8.6. Jahmiylar

#### 8.1. Xorijiylikka mansub oqimlar

Yo'nalishlarga bag'ishlangan bobda xorijiylik haqida so'z borgan edi. Shu o'rinda bir mulohaza. Oqim so'zi arab tilidagi "firqa" so'ziga ma'nodosh bo'lib, ajralib chiquvchi degan ma'noni bildiradi. Islomda oqim - firqalarga bo'linish man qilingan. Qur'oni karimda Alloh bandalarini tafriqa, ya'ni firqa-guruhlarga bo'linishdan qaytargan. E'tiborli jihati - musulmonlar jamoasidan ajralib chiqqan oqimning o'zi ham yaxlit emas. Balki, har bir oqim o'z ichidan yana turli toifa va guruhlarga bo'linishini kuzatish mumkin. Musulmonlarning 73 oqimga bo'linib ketishi, ulardan bittasidan boshqalari to'g'ri yo'ldan adashishi haqida hadis borligi ma'lum. Lekin, 73 oqim deganda barcha jihatda bir-biridan tamomila farq qiluvchi guruhlarini tushunish kerak emas. Balki, 73 oqimning asosiy qismini ichki jihatdan o'nlab kichik toifalarga bo'linib ketgan 3 oqim tashkil qiladi. Mana shu uch oqimdan biri - xorijiylikdir. Manbalarda qayd etilishicha, xorijiylik 20 toifaga bo'linib ketgan. Ularning ichidan mashhurlarini zikr qilish o'rinli:

**1. Azraqiylar.** Xorijiylarning ashaddiy toifasi. Nofe' ibn Azraqga ergashganlar. Ular o'zlariga muxolif bo'lganlarni do'zaxda abadiy qoluvchi mushrik deb hisoblashadi. Ular bilan urushish va ularni o'ldirish, hatto ayollari va bolalarini ham qatl qilish mumkin deb da'vo qiladilar. Hatto muxoliflarining bolalarini ham gunohkor va do'zaxiy deb e'lon qilganlar. Azraqiylar buzg'unchiliklari uzoq davorn etmay, ummaviylar ta'qibi ostida tugatildi.

**2. Najadot.** Najda ibn Uvaymirga ergashganlar. Ular agar kishilar kelishib yashasa, rahbarning keragi yo'q degan g'oyani ilgari surdilar. Shialarga o'xshab "taqiya"ni joiz deb bildilar. Ya'ni, o'z e'tiqodini yashirishni va o'zlari uchun munosib payt kelmaguncha uni oshkora qilmaslikni ixtiyor etdilar. Keyinchalik, oralaridan ixtilof chiqib, najadotning o'zi uch oqimga bo'linib ketdi. Ulardan biriga Abu Fadik degan kishi boshchilik qilardi va eng bebosh firqaga aylandi. Bu toifaning ustiga Abdumalik ibn Marvon qo'shin yuborib, tor-mor qildi. Najadotning boshqa guruhlar ham shu holga ro'para bo'ldi va asta-sekin yo'q bo'lib ketdi.

**3. Sufriylar.** Ziyod ibn al-Asfarga ergashganlar. Ularning qarashlari azraqiylarchalik ashaddiy bo'lmasa-da, xorijiylarning boshqa oqimlariga nisbatan keskinroqdir. Azraqiylar gunoh kabira qilgan insonni mushrikka chiqarishadi, sufriylar esa bunday qarashda emas. Sufriylar asosan hukumat qo'shiniga qarshi kurash olib borgan toifadir. Bora-bora ularning rahnamolari ham, askarlari ham jangu jadallarda yo'q bo'lib ketdi. Hozirgi davrda bu toifa mavjud emas.

**4. Iboziylar.** Abdulloh ibn Ibozga ergashganlar. Bu firqa xorijiylar ichida nisbatan yuvosh va murosachi hisoblanadi. Bu firqaga ko'ra xorijiy boshqa musulmonlar bilan oila qursa va meros olsa bo'ladi. Iboziylar hozir ham arab mag'ribida yashab kelmoqdalar.

**5. Qa'adiylar.** Arab tilidagi "qa'ada", ya'ni o'tirmoq so'zidan olingan. Qa'adiylar uyda o'tirsa-da, davlat rahbariga qarshi tashviqot qiluvchilardir. Islom tarixi bilimdonlari mazkur toifa haqida xabar berar ekan, ulamolar xorijiyilar ichida eng zararli oqim deya e'tirof etganlarini ta'kidlaydilar. Sababi, azraqiy, sufriy kabi xorijiyilarning ashaddiy toifalarini insonlar orasidan ajratib olish qiyin emas. Chunki-ular oshkora qarshilik ko'rsatishgan. Oshkora qarshilik ko'rsatganlarni topib, jazolash nisbatan oson bo'lgan. Ammo, qa'adiylar davlatga qarshi ochiq-oydin faoliyat olib bormas edilar, balki kishilar orasida yurib, hukumatni yomonlab, ig'vo va fitna tarqatardilar. Bu qilmish esa insonlarning guruhlariga bo'linib ketishiga va xalq orasida juda katta ziddiyat va ixtiloflar, hatto qonli to'qnashuvlarni kelib chiqishiga olib keladigan og'ir illatdir.

Ahmad ibn Hanbal davrida Solih ibn Hasan ibn Hay degan obid o'zining ibodati va taqvoli bilan mashhur bo'ldi. Lekin, davlatga qarshi gaplarni tarqatardi. Shunda Ahmad ibn Hanbal Solih ibn Hasanning bu ishini tanqid qilib: "U ibodat orqali topgan obro'si bilan insonlarni fitnaga ro'para qildi", deya ig'vo tarqatish qanchalik zararli ekanini ta'kidladi.

## 8.2. Shialik oqimlari

Shialikni sunniylikdan ajratgan asosiy masala imomat, ya'ni musulmonlarga kim rahbar bo'lishi edi. Aynan shu masalada shialikning o'zi ham ichki jihatdan bir qancha kichik firqalarga bo'linib ketdi. E'tiborlisi, bu bo'linish keyinchalik, nafaqat kimning imom bo'lishi borasida, balki boshqa masalalarda ham farqlanishga olib keldi.

**Sabaiya.** Abdulloh ibn Saba' tarafdorlari. Usmon ibn Affon davrida u zotga qarshi adovatni tarqatganlardan. Ibn Saba' kishilar orasida yurib, turli xil ig'vo va fitna gaplarni qo'zg'ab yurar edi. "Tavrot" da har bir payg'ambarning vasiysi, ya'ni o'zidan so'ng bir insonni vasiyat qilib qoldirishi yozilgan va bu uning

o'rinbosari bo'ladi, Ali (r.a.) ham Muhammad (a.s.)ning vasiysi hamda vasiylarning eng yaxshisi qabilidagi gaplarni tarqatar edi. Shuningdek, Iso payg'ambar qaytib kelishi kabi Muhammad (a.s.) ham hali dunyoga qaytib keladi, kabi idda'olarni odamlar orasida yoyardi. Ibn Saba' bunday mish-mishlarni tarqatishda shu darajaga chiqdiki, Alini xudo deyishgacha bordi. Ali bu gaplardan xabar topganida Ibn Saba'ni tutib, jazolamoqchi bo'ldi, lekin sahobalar kishilar o'rtasida ixtilof va ziddiyatlar ko'payib ketishini aytganidan so'ng bu fikrdan qaytdi va bu fitnāchini Madoin shahriga surgun qildi.

Ali ibn Abi Tolib (r.a.) vafotidan so'ng Ibn Saba'ning fitnasi kuchayib ketdi, u odamlarni Ali o'lmagan, balki uning suratiga kirib olgan shayton o'lgan, Ali qaytib keladi deb ishontirishga harakat qilardi. Osmondagi momaqaldiraq uning tovushi, chaqmoq esa tabassumi der edi. Saba'iylar xurofotda shu darajaga yetdilarki, agar momaqaldiraq gumburlasa, samoga qarab: "Assalomu alaykum ey, amiral-mu'miniyn" deyishgacha bordilar.

**G'urobiya.** Bu toifaning da'vosi ajablanarli. "G'urob" so'zi "qarg'a" degan ma'noni anglatadi. G'urobiyaning fikricha, Muhammad (a.s) Aliga xuddi qarg'a qarg'aga o'xshagani kabi o'xshar edi. Binobarin, Jabroil farishta vahiy olib kelishda Muhammadni Ali bilan adashtirib qo'ygan, degan idda'oni ilgari surhdilar. Bu fikrlar mantiq va haqiqatdan yiroq ekanini sunniylik yo'nalishi olimlari asoslab berishgan. Birinchidan, Ali (r.a.) va Muhammad (s.a.v.) ko'rganda adashtirib qo'yadigan darajada o'xshash bo'lishmagan. Bu tarixiy manbalarda aks etgan. Ikkinchidan, agar ular juda o'xshash bo'lgan taqdirda ham, Muhammad (a.s.)ga vahiy kelganida u kishi 40 yoshda, Ali 9 yoshda bo'lgan. 40 yoshli inson bilan 9 yoshli bolani bir xil ko'rinishli deyish ishonarli emasligi ma'lum.

**Kaysoniya.** Muxtor ibn Abiyd Saqafiy tarafdorlari. U avvalda xorijiy edi. Keyin shialar tarafiga o'tdi. Kayson Muxtorning laqabi. U o'zini Ali (r.a.)ning o'g'li bo'lmish Muhammad ibn Hanafiyaning

vakili deb e'lon qilardi. Imom Husayn o'ldirilgach, kaysoniylar uning qotilini jazolash talabi bilan faoliyatini kuchaytirdi. Muxtor Imom Husayn uchun da'vo qilishga Muhammad ibn Hanafiya haqli, u haqiqiy vasiy va Mahdiydir, men uning vakiliman, derdi. Muhammad ibn Hanafiyaga bu gaplar yetib borgach, ularni inkor qildi va Muxtorni vakil qilmagani ma'lum bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, shialarning ashaddiy tarafdorlari kaysoniylarga qo'shilib, Husaynni o'ldirganlarga qarshi kurash olib bordilar. Kaysoniylar imomlarni muqaddaslashtirish, ularni xato qilmaydigan ma'sum insonlar deb hisoblash, Muhammad ibn Hanafiya o'lmagan, u qaytib keladi deb e'tiqod qilish, hinduiylar kabi ruh bir odamdan boshqasiga ko'chib o'tadi degan ma'nodagi tanosux ta'limotiga ishonish singari qarashlari bilan sunniylikdan ajralib turuvchi shialik firqasidir. Hozirgi paytda ularning tarafdorlari qolmagan.

**Zaydiya.** Zayd ibn Ali Zaynulobidinga ergashuvchilar. Shialarning nisbatan mo'tadil va sunniylikka yaqin firqasi hisoblanadi. Ular boshqa shialarga o'xshab, sahobalarni kufirda ayblamadilar, Abu Bakr, Umar va Usmonning xalifaligini inkor qilmadilar. Zaydiylar shialarning boshqa firqalari singari Muhammad (a.s.) o'zlaridan so'ng aniq bir imomning ismini aytib tayin qilgan deb emas, balki uning sifatlarini aytgan deb hisoblaydilar. Shuningdek, shialik faqat bir imomga ergashishni lozim desa, zaydiylar bir vaqtning o'zida musulmonlar orasida ikkita imomning bo'lishini joiz deb hisoblaydilar va shialikdagi taqiyani (sharoit og'irlashgan paytda e'tiqodni sir tutishni) joiz emas, deb hisoblaydilar.

Zaydiylar gunohkorning do'zaxda abadiy qolishi va Muhammad (a.s.) dan so'ng insoniyat afzali Ali (r.a.) kabi e'tiqodlari bilan sunniylikdan farqlanadilar.

Imom Zayd ibn Alining «Majmu'» nomli kitobidagi qarashlari zaydiya fiqhining asosini tashkil qiladi. U ham boshqa faqihlar kabi birinchi o'rinda Qur'onni, keyin esa sunna, ijmo', qiyos, istehson, so'ngra aqlni shariat asoslaridan deb hisoblaydi.

Zaydiya fiqhining o'ziga xos tomonlari quyidagicha:

–ahli kitob (samoviy kitobga ega bo'lgan boshqa din vakillari: yahudiyalar, xristianlar) tomonidan so'yilgan hayvon go'shtini yeyish, ular bilan quda-andachilik qilish harom, vaholanki, sunniylikda joiz.

–mahsi(oyoq kiyim)ga mash tortish joiz emas, sunniylikda esa uning joizligi dalillar asosida isbotlangan.

Zayd ibn Ali vafotidan so'ng zaydiylar zaiflashib, boshqa shialarga aralashib ketdi va ikkiga bo'lindi. Birinchisi – avvalgilar, ya'ni Abu Bakr, Umar va Usmonning xalifaligini inkor qilmaydiganlardir. Ikkinchisi – keyingilar, ya'ni mazkur xalifalarni inkor qiladiganlar. Ular rofiziylar deb ataldi. «Rofiziy» so'zi semantik jihatdan «inkor qiluvchi» degan ma'noni anglatadi.

Hozirgi paytda zaydiylar Yamanda saqlanib qolgan va ular avvalgilar kabi e'tiqodda, deya e'tirof etilgan.

**Imomiya.** Bugungi kunda shialarning asosiy qismini tashkil etuvchi va eng ko'p tarqalgan toifasi. Imomiylarning yana bir nomi isnoashariylar, arab tilidan tarjima qilganda "o'n ikki" ma'nosini anglatadi. Ular o'n ikkita imomga e'tiqod qilganlari uchun shunday nomlanganlar. Imomiylar o'zlarini ja'fariylar deb ataydilar. Sababi, bu toifa fiqhiy masalalarda Imom Ja'far Sodiqqa ergashishni da'vo qiladi. Ushbu firqa e'tiqodicha, o'n ikki imomlik Ali ibn Abi Tolib (r.a.)dan boshlanadi, so'ng uning Fotimadan bo'lgan o'g'illari Hasan va Husaynga o'tadi va nihoyat o'n ikkinchi imom Muhammad Mahdiyga borib tugaydi.

Imomiylar e'tiqod qiladigan o'n ikki imom quyidagilar:

- 1) Ali ibn Abi Tolib (al-Murtazo);
- 2) Al-Hasan ibn Ali (al-Mujtabo);
- 3) Al-Husayn ibn Ali (ash-Shahid);
- 4) Ali Zayn al-'Abidin ibn al-Husayn (As-Sajjod);
- 5) Muhammad al-Boqir ibn Ali Zayn al-'Abidin (al-Boqir);
- 6.) Ja'far as-Sodiq ibn Muhammad al-Boqir (as-Sodiq);
- 7) Muso al-Kozim ibn Ja'far as-Sodiq (Al-Kozim);

- 8) Ali ar-Rizo ibn Muso al-Kozim (Ar-Rizo);
- 9) Muhammad al-Javod ibn Ali ar-Rizo (At-Taqiy);
- 10) Ali al-hodi Muhammad al-Javod (An-Naqiy);
- 11) Al-Hasan al-Askariy ibn Ali al-Xodi (Az-Zakiy);
- 12) Muhammad al-Mahdiy ibn al-Hasan al-Askariy (al-hujjat ul-qoimul-Muntazir).

Imomiylar e'tiqodicha, o'n ikkinchi imom Muhammad Mahdiy hali o'lmagan, balki, u 260/873-sanada g'oyib bo'lgan va oxir zamonda paydo bo'lib, yer yuzini tinchlik va adolatga to'ldiradi. Ular imomlarni xato va gunohdan ma'sum (pok) deb hisoblaydilar. Bunga sabab, ularning e'tiqodlaricha, imomlarga ilohiy ilhom keladi yoki Rasululloh (s.a.v.) o'z zamonlarida bayon etishlariga hojat bo'lmagan ahkomlar ilmini ularga qoldirganlar. Shu bois ular imomga imon keltirishni musulmonlik shartlaridan biri deb hisoblashadi. Ular imomga shunday tavsif berishadi: «Imom xatodan, adashishdan yiroq bo'lgan, to'g'ri yo'ldagi, taqvoli va Alloh qo'llagan ma'sum kishidir. Alloh va bandalarning o'rtasida hujjat bo'lishi uchun Alloh ularga shu xususiyatlarni berdi».

Imomiylar o'z imomlarini Allohning Payg'ambaridan keyingi hujjatlari deb e'tiqod qilib, ularning buyruqlari Payg'ambarning buyrug', taqiqlari Payg'ambarning taqiqi, imomlarga itoat qilish – Payg'ambarga itoat qilish, ularga bo'ysunmaslik – Payg'ambarga isyon qilish, degan fikrlarni bildiradilar. Imomiya firqasi sunniylik mazhablaridan, nafaqat e'tiqod masalalarida, balki ibodat masalalarida ham farqlanadi. Bunga bir necha misol keltirib o'tish mumkin:

1) Qur'oni k̄arimning zohiri (tashqi tomoni) va botini (ichki tomoni) bor bo'lib, insonlar faqat zohirinigina biladilar, botinini esa, imomlardan boshqa hech kim bilmaydi;

2) Mut'a nikohi (vaqtincha nikoh) qonuniy;

3.) Taloq ikki guvoh oldidagina qabul bo'ladi;

4) Ohod xabarlar qabul qilinmaydi.

**Ismoiliylar.** Shialik firqalari asosan, kimning imom bo'lishi va kimdan keyin imom bo'lishi masalasida bir-biridan farq qiladi. Bu holat sabaiylar, kaysoniylar, zaydiylar va imomiylar misolida ko'rildi. Ismoilni firqasi ham shunday. Ular imomiylardagi yettinchi imom – Muso Kozimni inkor qilishib, Ja'far Sodiqdan so'ng uning Muso Kozim ismli emas, Ismoil ismli o'g'li yettinchi imom bo'lishi kerak deb hisoblaydilar. Ja'far Sodiq o'zidan so'ng Ismoilni imom qilib tayinlagan edi, biroq uning vafoti sabab bu narsa oshkor bo'lmadi deydi. Ismoilni yettinchi imom deb hisoblagan Ismoilning Muhammad ismli o'g'li bo'lib, u yashiringan. Shuning uchun Muhammad ibn Ismoilni Maktum, ya'ni yashirin imom deb ataydilar. Bu toifa e'tiqodicha, imom yashiringan bo'lsa-da, unga itoat qilish vojibdir. Muhammad Maktumdan so'ng o'g'li Ja'far, undan so'ng Ja'farning o'g'li Muhammad Habib, keyin o'g'li Ubaydulloh Mahdiy imomdir, degan fikrni ilgari suradilar. Ma'lumki, Ubaydulloh Mahdiy 909-yilda Shimoliy Afrikada Fotimiylar davlatiga asos solgan.

Ismoiliylarning yana bir nomi botiniylardir. Sababi, ular o'z ta'limotlarini yashirishga uringanlar. Biror narsa yozsalar, uni yozgan kotibni ismini yozmaganlar. Botiniylar deb nom olishlarining yana bir sababi, o'z imomlarini botiniy ilm egasi deb hisoblashlaridir. Ular Qur'onning ko'pchilik bilishi mumkin bo'lgan zohir, ya'ni tashqi ma'nosi va faqat imomlar biladigan botin, ya'ni ichki ma'nosi bor deb hisoblaydilar.

Ismoiliy oqimining turli o'lkalarga tarqalishi va hinduiylik, buddaviylik hamda qadimgi fors e'tiqodlariga ro'para kelishi uning bir qancha mayda guruhlariga bo'linishiga olib keldi. Ularning ba'zilari hatto islom dinidan uzoqlashib ketdi. Ba'zilari esa musulmonlar orasida bo'lsa-da, o'ziga xos qarashlari bilan ajralib turdi. Mana shunday toifalardan biri tarixda o'zining ashaddiy mutaassibli va ekstremistik-terroristik harakatlari bilan ajralib chiqqan qarmatiylardir.



**Qarmatiylar.** Bahraynda vujudga kelgan. Asoschisi kufalik Hamdon Qarmatdir. Ismoiliya arboblardan Husayn al-Ahvoziy vafot qilgach, Hamdon boshqaruvni o'z qo'liga oldi. Qarmatiylar siyosiy-g'oyaviy harakati Kufa atrofida boshlanib, IX asr oxirlariga kelib tahdid soluvchi va kishilar qalbiga qo'rquv tarqatuvchi harakatga aylandi. Keyinchalik ular Basra, Kufa va Shomning ba'zi nohiyalariga hujum qildilar hamda Yaman va Bahrayn hududlariga yoyildilar. Natijada ular Bahraynda Abu Said Janobiy boshchiligida kuchli davlatga asos soldilar. Qarmatiylar o'sha davrda Abbosiylar bilan bir qancha janglar o'tkazib, zafar ham qozondilar. Haj mavsumlarida ham karvonlarga hujum qilib, bosqinchilik va talon-tarojlik bilan shug'ullanganlar. Ular faoliyatining kuchaygan davri 929-yil hisoblanadi. Shu yili Abu Tohir Sulaymon boshchiligida ular Makkaga kirib, hojilarni o'ldirib, jasadlarini zamzam qudug'iga tashladilar hamda Ka'bani buzib, "Hajarul asvad" (qora tosh)ni o'z poytaxtlari Bahraynga olib ketdilar. Ibn Kasir o'zining "al-Bidaya van-nihaya" asarida zikr qilishicha, "Hajarul asvad" qarmatiylar qo'lida 22 yildan ortiq qolib, 951-yilda qaytarilgan. Qarmatiylar faoliyati uzoq muddat davom etib, so'ngra zaiflashib, 1077-yilda butunlay yo'qolib ketgan.

**Hokimiylar va druzlar.** Ismoiliyning islom dini qarashlariga zid bo'lgan va kufr hisoblangan e'tiqodda bo'lgani haqida aniq dalillar yo'q. Biroq, ular botiniy, ya'ni yashirin e'tiqodda bo'lganlari sababli bu toifa bag'rida qarashlari islom ta'limotiga mutlaqo zid bo'lgan ba'zi toifalar shakllandi. Ulardan biri hokimiylardir. Bu toifa imomlarni muqaddaslashtirib, shu darajada haddan oshdiki, xudo imom bilan birlashib ketgan deb, imomga ibodat qilishgacha bordi. Birinchi marta shu da'voni qilgan imom Hokim Biamrillah Fotimiy bo'ldi. U Xudo men bilan birlashdi va menga ibodat qilinglar deb insonlarni kufrona e'tiqodga chorladi hamda unga ergashuvchilar hokimiylar deb ataldi. Albatta, Hokim Biamrillah so'zi qattiq nafratga duchor

bo'ldi va uning o'zi tez orada halok bo'ldi. Unga ergashgan hokimiyalar toifasi o'z peshvolarining o'lganiga ishonmay, uni mudom tirik va qaytib keladi, deb hisobladilar. Hokimiyalarga yaqin bo'lgan yana bir toifa druzlardir. Ba'zi manbalarda naql qilinishicha, Hokim Biamrillahga xudolik da'vosini uqtirgan kimsaning ismi Hamza Druziy bo'lgan. Druzlar ayni paytda ham mavjud bo'lib, ular o'z e'tiqod va hayot faoliyatlarini yashirishadi.

**Nusayriya (Alaviylar).** Hokimiyalarga Shomda qo'shnichilik qilgan yana bir toifa nusayriylardir. Ular o'zlarini ismoiliylar bilan bog'lamasa-da, qarashlarida bu toifaga yaqinligi bois, ba'zi muarrixlar ularni ismoiliylardan ajralib chiqqan deb hisoblaydilar. Nusayriylar botiniylar kabi shariatning zohiri va botini bor deb e'tiqod qiladilar. Sabaiylar kabi Ali ibn Abi Tolib o'lmagan, balki tirik deb ilohiylashtiradilar va unga ibodat qiladilar. Nusayriylarning o'zlari ushbu nomni yoqtirmaydilar va o'zlarini "Alaviylar" deb tanishtiradilar.

### 8.3. Mo'taziliylar

«Mo'tazila» so'zi ajralib chiqqan degan ma'noni anglatadi. Mashhur tobe'iy Hasan Basriydan uning shogirdi Vosil ibn Ato bir kuni gunohkorning holati haqida so'raydi. Shunda imom musulmon kishi gunoh qilgani bilan islomdan chiqib ketmasligini bayon qildi. Bu fikrdan norozi bo'lgan Vosil ustozini huzuridan chiqib ketdi. Hasan Basriy: "U bizdan e'tizol bo'ldi, ya'ni ajraldi" dedi. "I'tizol" so'zidan mo'taziliy nomi kelib chiqdi. Yana bir rivoyatga ko'ra Qatoda rahmatullohi alayhi va boshqalar ularni: "Anavilar, "mo'tazilalar" - chetga chiqqanlar", deb nomlaganlar. Mazkur oqim jamoadan chetga chiqqanlari uchun shu nomni olgan.

Mo'tazila ta'limoti besh asosga bino qilingan:

1. Adl. Alloh taolo odildir. Jabr qilmas. Alloh yaxshi ishlarnigina yaratadi. Yomonlikni yaratmaydi ham, unga hukm ham qilmaydi. Chunki, agar Alloh yomonlikni yaratib turib,

so'ngra uni qilganlarni azoblasa, bu adolatga to'g'ri kelmaydi, degan g'oyani ilgari surdilar. Ularning bu bid'ati taqdirni inkor qilishga olib boradi. Sunniylikka ko'ra, yaxshilikni ham, yomonlikni ham yaratuvchisi yolg'iz Allohdir, faqat savob ishlarni rozi bo'lib, gunoh ishlarni norozi bo'lib yaratadi. Moturidiya ta'limotida insonda iroda erkinligi mavjudligini isbot etgan. Unga ko'ra inson yaxshilik va yomonlikni tanlash ixtiyoriga ega.

**2. Tavhid.** Allohni yakkayu yolg'izligini e'tirof etish. Bu e'tiqod islomning barcha yo'nalishlarida mavjud. Lekin, mo'tazila tavhidni sunniylikdan boshqacha ta'vil etdi. Allohning kalom sifatini izohlar ekan mo'tazila Qur'onni yaratilgan degan da'voni ilgari surdi. Sunniylik ta'limoti bo'yicha Qur'on Allohning kalomi, Allohning kalomi esa yaratilgan bo'lishi mumkin emas. Kalom uning azaliy va abadiy sifatidir. Mo'taziliylar Allohni ko'rish mumkinligini ham inkor etdilar. Agar Allohni ko'rish mumkin bo'lsa, uning tavhid sifatiga futur etadi, deb hisoblaydilar. Sunniylikda esa Allohni ko'rish mumkinligi Qur'oni karim oyati bilan sobit bo'lgan.

**3. Va'd va va'iyd.** Arab tilidan tarjima qilganda va'd so'zi ijobiy ishlarni qilishga bo'lgan va'dani anglatadi, va'iyd esa jazo haqida qo'rqitishni bildiradi. Islom e'tiqodiga ko'ra Allohning va'dasi va va'iydi bor. Ya'ni, Alloh yaxshilikka mukofot va'da qilgan, yomonlikni esa jazo bilan qo'rqitgan. Ahli sunna va mo'tazila o'rtasidagi bahs shundan iboratki, sunniylikka ko'ra Alloh gunohkorni xohlasa azoblaydi, xohlasa gunohini kechiradi. Shuning uchun ham o'tganlarga rahmat va mag'firat so'rab duo qilinadi. Mo'tazila esa gunohkorni Alloh jazolashi shart, agar jazolamasa Allohning va'idi amalga oshmaydi, degan g'oyani ilgari surdilar. Bu g'oya asossiz va mantiqsiz ekani olimlar tomonidan isbotlangan. Xususan, Imom Moturidiy va Ash'ariy buni o'z asarlarida bayon qilganlar.

**4. Ikki manzila o'rtasidagi manzila.** Mo'tazila gunohi kabira qilgan odam imon manzilasi bilan kufr manzilasi o'rtasidagi

manzilada bo'ladi degan g'oyani ilgari surdi. Unga ko'ra gunohkor imonsizdir. Bu esa og'ir gap. Moturidiya ta'limotida inson og'ir gunoh qilgani bilan imonsiz bo'lib qolmaydi, deya ta'kidlangan.

**5. Amri ma'ruf va nahyi munkar.** Islom ta'limotidagi amri ma'ruf va nahyi munkar, ya'ni yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish tamoyilini mo'tazila o'zicha talqin qildi. Moturidiyaga ko'ra amri ma'ruf va nahyi munkarni inson o'z qo'l ostidagilariga qilish lozim. Lekin, mo'taziliylar inson faqat qo'l ostidagilarga emas, balki mansab jihatidan o'zidan yuqorida turuvchi rahbarlarga amru ma'ruf qilishi shart, kerak bo'lsa uni qilich bilan bo'lsa ham amalga oshirishi lozim degan iddao bilan hokimlarga qarshi urush olib borish g'oyasini ilgari surdilar. Moturidiy mazhabiga ko'ra, Qur'oni karim Niso surasining 59-oyatida aytilganidek, musulmon kishi o'z diniy va dunyoviy rahbarlariga itoat qilishi vojibdir. Ularga qarshi chiqish og'ir gunoh hisoblanadi.

#### 8.4. Murjiylar

“Murjia” so'zining lug'aviy ma'nosi “umid qildiruvchi” va “ortga suruvchi” degan ikki xil ifodadan iboratdir. Bu toifaga mansub kishilar musulmon kishi har qancha gunoh qilsa ham imoni mukammal turaveradi, gunohning imonga mutlaqo zarari yo'q degan g'oyani ilgari surdilar. Bu toifaning asoschisi va rejali ishlab chiqqan ta'limoti yo'q. Murjia o'ziga xos qarashlar majmui bo'lib, u o'zida kishilar orasida tarqalgan fikriy yo'nalishni aks ettiradi. Ya'ni, murjia bu alohida shakllangan firqa bo'lmay, balki insonlar orasida tarqalgan ta'limotdir. Lekin, ahli sunna val jamoaga ziddir. Murjia xorijiyilar bilan kurash asnosida yuzaga keldi. Xorijiyilar gunohkorni kofirga chiqardilar. Sunniy ulamolar esa, gunoh qilgani bilan musulmon kofir bo'lib qolmaydi, degan e'tiqodni himoya qildilar. Lekin xorijiyilarning buzuk aqidalarini rad qilish asnosida, bir toifa insonlar haddan oshib ketib, gunohning imonga mutlaqo zarari yo'q, inson har qancha og'ir

gunoh qilsa ham, imoni pokiza turaveradi va u jannatga kiradi degan g'oyani ilgari surdi. Boshida dil va til birligi bilan imon yuzaga keladi degan bu firqa bora-bora, musulmon kishi tili bilan kufrona gaplarni aytsa ham imondan chiqmaydi, deyishga bordi. Musulmonning qancha gunohi bo'lsa ham Alloh kechib yuboradi, deganlari uchun shu nom bilan «Murjia» – «umid qildiruvchilar» deb nomlandilar. Shuningdek, «gunoh qilgan musulmonlarning ishini ortga suramiz, Alloh O'zi bilib muomalasini qiladi», degani uchun, «Murjia» – «ortga suruvchilar» ham deyildi.

Moturidiy ta'limoti bo'yicha, gunoh bilan kishi imondan chiqmaydi, biroq dili qorayadi. Gunoh ko'paygan sari imoni zaiflashib boraveradi, aksincha savob ishlarni qilishi bilan imoni mustahkamlashadi. Gunoh qilgan mo'minni Alloh gunohini kechmasa do'zaxda gunohiga yarasha azoblanadi, keyin jannatga doxil bo'ladi. Shuning uchun gunohning imonga zarari yo'q deyish asossizdir.

Ta'kidlash kerak, murjianiing asoschisi va vakillari, kitoblari va bunday ta'limot asosida faoliyat olib borganlar haqida ma'lumot yo'q. Balki bu fikrlar majmuasi edi, xorijiyarlarga qarshi kurash asnosida yuzaga keldi va ayni paytda bu firqaga ergashuvchilar uchramaydi.

### 8.5. Qadariylar

Qadar so'zi taqdir ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, har bir insonning Alloh tomonidan belgilangan taqdiri bo'ladi. Moturidiyaga ko'ra Alloh har bir inson uchun yaxshilik va yomonlikni taqdir qilib, insonga uni tanlash huquqini berdi. Qadariya firqasi taqdir masalasida sunniylik ta'limotiga zid qarashlarni ilgari surgani uchun shunday nom oldi. Qadariylar banda o'z ishlarini qilishga qodirdir, ularni yaratuvchidir, degan da'voni ko'tarib chiqdilar. Ular har bir yaxshilik yoki yomonlik Allohning taqdir qilishi bilan bo'lishini inkor qildilar. Ularning nazdida bandaning ishi sunniylikda qayd etilganidek, Allohning

qadari, ilmi va irodasi bilan bo'lmaydi. Bu esa islom ta'limotiga zid ekani ilmiy dalillar asosida isbotlangan. Moturidiy, Tahoviy kabi ahli sunna ulamolari qadariylarni rad etib, bu borada ko'plab asarlar ta'lif etganlar.

### 8.6. Jabariylar.

Jabr, ya'ni majburlash so'zidan olingan. Bu toifa ummaviylar davrida yuzaga kelgan. Jabariylar inson taqdirida belgilangan narsani qilishga majbur, unda hech qanday erkinlik yo'q, kishi gunohni ham, savobni ham Alloh irodasi bilan qiladi. Peshonasiga nima yozilgan bo'lsa, o'sha albatta bo'ladi, degan g'oyani ilgari surdilar. Ular o'z qarashlarini beo'xshov va mantiqsiz dalillar bilan isbotlashga urindilar. Masalan, suv oqdi, daraxt gulladi, inson vafot etdi deyiladi, lekin suvda va daraxtda ixtiyor yo'q-ku, inson ham o'z irodasi bilan o'lmaydi-ku qabilidagi dalillarni keltirdilar. Bu esa kishilar o'rtasida fitna-fasod, buzuq va botil ishlarni avj oldirib, bahonasini taqdirga havola qilishga olib kelar edi. Inson yomon va yaxshi ishlarining egasi bo'lmasa, jinoyatchilar qanday jazolanadi yoki mehnatkashlar qanday mukofotlanadi? Binobarin, jabariylar fikrlari naqldan ham, aqldan ham yiroqligi ayon. Shuning uchun ko'plab ulamolar o'z asarlarida jabariylar qarashlarini rad etdilar. Bu toifa qarashlarini birinchi bo'lib, Ja'd ibn Dirham va uning shogirdi Jahm ibn Safvon aks ettirdi. Jabariylar Allohning sifatlarini inkor qildilar. Ularga qarshi yozilgan ilk asarlar sifatida Abdulloh ibn Abbos va Hasan Basriylarning risolalarini qayd etish mumkin. Jabariylar fitnasi avj olib, ular o'z yo'llaridan qaytmagach, Xolid ibn Abdulloh nomli amir jabariylar rahnamosi Ja'd ibn Dirhamni o'limga mahkum etdi. Hozirgi paytda bu toifa izdoshlari yo'qdir.

## Asosiy tayanch tushunchalar:

**Azraqiylar.** Xorijiylarning eng ashaddiy toifasi. Nofe' ibn Azraqga ergashganlar. Ular o'zlariga muxolif bo'lganlarni do'zaxda abadiy qoluvchi mushrik deb hisoblashadi.

**Najadot.** Najda ibn Uvaymirga ergashganlar. Ular agar kishilar kelishib yashasa, rahbarning keragi yo'q degan g'oyani ilgari surdilar. Shialarga o'xshab "taqiya" ni joiz deb bildilar.

**Sufriylar.** Ziyod ibn al-Asfarga ergashganlar. Ularning qarashlari Azraqiylarchalik ashaddiy bo'lmasa-da, xorijiylarning boshqa oqimlariga nisbatan keskinroqdir.

**Iboziylar.** Abdulloh ibn Ibozga ergashganlar. Bu firqa xorijiylar ichidagi eng yuvosh va murosachi hisoblanadi.

**Qa'adiylar.** Arab tilidagi "qa'ada", ya'ni o'tirmoq so'zidan olingan. Qa'adiylar uyda o'tirib, davlat rahbariga qarshi tashviqot qiluvchilardir.

**Saba'iylar.** Abdulloh ibn Saba' tarafdorlari. Ibn Saba' kishilar orasida yurib, "Tavrot"da har bir payg'ambarning vasiysi, ya'ni o'zidan so'ng bir insonni vasiyat qilib qoldirishi yozilgan va bu uning o'rinbosari bo'ladi, Ali (r.a.) ham Muhammad (a.s.)-ning vasiysi hamda vasiylarning eng yaxshisi qabilidagi gaplarni tarqatar edi.

**G'urobiya.** Bu toifaning da'vosi ajablanarli. "G'urob" so'zi "qarg'a" degan ma'noni anglatadi. G'urobiyaning fikricha, Muhammad (s.a.v.) Aliga xuddi qarg'a qarg'aga o'xshagani kabi o'xshar edi. Binobarin, Jabroil farishta vahiy olib kelishda Muhammadni Ali bilan adashtirib qo'ygan, degan iddaoni ilgari surdilar.

**Kaysoniya.** Muxtor ibn Abiyd Saqafiy tarafdorlari. U avvalda xorijiy edi. Keyin shialar tarafiga o'tdi. Kayson Muxtorning laqabi. U o'zini Ali (r.a.)ning o'g'li bo'lmish Muhammad ibn Hanafiyanning vakili deb e'lon qilardi.

**Zaydiya.** Zayd ibn Ali Zaynulobidinga ergashuvchilar. Shialarning nisbatan mo'tadil va sunniylikka yaqin firqasi

hisoblanadi. Ular boshqa shialarga o'xshab, sahobalarni kufirda ayblamadilar, Abu Bakr, Umar va Usmonning xalifaligini inkor qilmadilar. Shialarning boshqa firqalari singari Muhammad alayhissalom o'zlaridan so'ng aniq bir imomni ismini aytib tayin qilgan deb emas, balki uning sifatlarini aytgan deb hisoblaydilar.

**Imomiya.** Bugungi kunda shialarning asosiy qismini tashkil etuvchi va eng ko'p tarqalgan toifasi. Imomiylarning yana bir nomi isnoashariylar, arab tilidan tarjima qilganda "o'n ikki" ma'nosini anglatadi. Ular o'n ikkita imomga e'tiqod qilganlari uchun shunday nomlanganlar.

**Ismoiliya.** Ular imomiylardagi yettinchi imom – Muso Kozimni inkor qilishib, Ja'far Sodiqdan so'ng uning Muso Kozim ismli emas, Ismoil ismli o'g'li yettinchi imom bo'lishi kerak deb hisoblaydilar.

**Botiniylar.** Ismoiliylarning yana bir nomidir. Sababi, ular o'z ta'limotlarini yashirishga uringanlar. Biror narsa yozsalar, uni yozgan kotibning ismini yozmaganlar.

**Hokimiylar.** Imomlarni muqaddaslashtirib, shu darajada haddan oshdiki, xudo imom bilan birlashib ketgan deb, imomga ibodat qilishgacha bordi. Hokimiylarga yaqin bo'lgan yana bir toifa druzlardir.

**Nusayriylar.** Botiniylar kabi shariatning zohiri va botini bor, deb e'tiqod qiladilar. Sabaiylar kabi Ali ibn Abi Tolib o'lmagan, balki tirik deb ilohiylashtiradilar va unga ibodat qiladilar.

«Mo'tazila» so'zi ajralib chiqqan degan ma'noni anglatadi. Mo'tazila ta'limoti besh asosiy masalada sunniylik bilan ixtilofga bordi.

«Murjia» so'zining lug'aviy ma'nosi "umid qildiruvchi" va "ortga suruvchi" degan ikki xil ifodadan iboratdir. Bu toifaga mansub kishilar musulmon kishi har qancha gunoh qilsa ham imoni mukammal turaveradi, gunohning imonga mutlaqo zarari yo'q degan g'oyani ilgari surdilar.



**Qadariylar** banda o'z ishlarini qilishga qodirdir, ularni yaratuvchidir degan da'voni ko'tarib chiqdilar. Ular har bir yaxshilik yoki yomonlik Allohning taqdir qilishi bilan bo'lishini inkor qildilar.

**Jabariylar.** Jabr, ya'ni majburlash so'zidan olingan. Bu toifa ummaviylar davrida yuzaga kelgan. Jabariylar inson taqdirida belgilangan narsani qilishga majbur, unda hech qanday erkinlik yo'q, gunohni ham, savobni ham Alloh irodasi bilan qiladi, degan g'oyani ilgari surdilar. Bu toifa qarashlarini birinchi bo'lib Ja'd ibn Dirham va uning shogirdi Jahm ibn Safvon aks ettirdi.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Xorijiylikka mansub firqalar haqida ma'lumot bering?
2. Xorijiyarning boshqalarga nisbatan eng zararli firqasi qaysi ?
3. Ayni paytda xorijiyalar bormi, javobingizni asoslang ?
4. Shialik firqalarining bir-biridan farqi haqida nimalarni bilasiz?
5. Shialikdagi imomat tushunchasini izohlang?
6. Mo'tazila ta'limotining asoschisi kim?
7. Mo'taziliylarning da'volari qaysi masalalarda namoyon?
8. Murjia firqasining sunniylikdan farqlari qanday?
9. Jabariylarning yuzaga kelish sabablari haqida nimalarni bilasiz?
10. Qadariylar qanday g'oyani ilgari surdilar ?

### **Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan manba va adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Olloh qalbimizda, yuragimizda: "Turkiston-press" axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar – T. : O'zbekiston, 1999.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.

3. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv qo'l./Mas'ul muharrir A.S.Ochildiyev – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

4. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi. – T.: Akademiya, 2000.

5. Васильев. Л.С. История религий Востока. – М.: 1998.

6. “Diniy ekstremizm va fundamentalizm: tarixi, mohiyati va bugungi xavfi” maxsus kursni o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar. – T., 1999.

7. Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. – T.: Ma'naviyat, 2000.

8. Karimov. A. Diniy mutaassiblikning tarixiy ildizlari va zamonaviy ko'rinishlari. – T.: “Movarounnahr”, 2011

9. Hasanov A. Islom tarixi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

10. Aqoid matnlari. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006

11. Husnidinov Z., Abdusattorov A. Islomdagi oqimlar: xorijiyalar va shialik. O'quv-uslubiy qo'l. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.

12. Большаков О.Г. История Халифата. – Москва: Восточная литература, 1998.

13. Калинин Т.М. Сведения ранних ученых Арабского Халифата : тексты, переводы, комментариев. – Москва: Наука, 1988.

14. Farid Ahmed, Publisher: Muhammad Abdur Rab, Muslim Ummah in the contemporary world, 2004

15. Abdulkarim Shahrisoniy. Al-milal van-nihal. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992.

16. Abdulqohir Bag'dodiy. Al-farq baynal-firaq. – Bayrut: Al-Maktaba al-asriya, 1996.

## 9-BOB. XVIII–XX ASRLARDA SHAKLLANGAN OQIMLAR

- 9.1. Vahhobiylar
- 9.2. Al-ixvon al-muslimun
- 9.3. Hizbut–tahrir
- 9.4. Salafiyalar
- 9.5. Nurchilar
- 9.6. Akromiylar
- 9.7. Zamonaviy xorijiyalar

### 9.1. Vahhobiylar

Vahhobiylik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan oqimdir. Uning aseschisi Muhammad ibn Abdulvahhob 1703–1798-yillarda hayot kechirgan. Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining Uyayna degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abdulvahhob ibn Sulaymon mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Ibn Abdulvahhob yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. Misr, Suriya, Iroq, Eron mamlakatlariga safar qilgan. Tarixiy manbalar uning qaysar, janjalkash va ixtilof chiqarishga moyil kimsa ekanini ta'kidlaydi. Ibn Abdulvahhob o'z faoliyatini ochiq-oshkora otasining vafotidan so'ng 1730-yillarda boshlaydi. Ammo uning g'oyalari olimlar tomonidan rad qilindi. Ma'lumki, Arabiston yarim orolida hanbaliy mazhabi keng tarqalgan. Bu mazhab vakillari vahhobiylik g'oyalarini tanqid qildilar va ularga qarshi kitoblar ta'lif etdilar. Vaziyat bunday tus olganini ko'rgan Ibn Abdulvahhob o'z g'oyalariga hammaslak va homiy qidira boshladi. Dir'iya shahri amiri Muhammad ibn Sa'ud bilan tanishuvi bois mutaassib g'oyalarini targ'ib qilishi uchun qulay imkon topdi. Sababi, Ibn Sa'ud boshqa amirlar

bilan kurashib, Markaziy Arabistonda ustunlikka erishishga intilar, Ibn Abdulvahhob ta'limoti esa uning bu maqsadi yo'lida g'oyaviy qurol vazifasini o'tar edi. 1745-yili Muhammad ibn Abdulvahhob Dir'iya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi va ikkovi birgalikda o'sha paytda arab diyorida hukmron bo'lgan usmonli turk hokimiyatiga qarshi kurash olib bordilar.

Ma'lumki, sunniylik ta'limotiga ko'ra davlat hokimiyatiga qarshi chiqish man etiladi va begunoh insonlarni o'ldirish esa og'ir hisoblanadi. Bunday sharoitda vahhobiylar qanday yo'l tutdilar? Ular mazhablarga ergashgan sunniylarga tuhmat qildilar, ularni shirk va kufrda ayblab, bu ayblovlarini urush va janjal uchun vosita qildilar. Oqibatda, qancha-qancha kishilar qatag'onga uchradi.

Ibn Sa'ud esa bunday yurishlardan foydalanib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirdi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792-yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi olib borgan urushlar dastlab Najdning birlashtirilishi, 1932-yilda esa Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylik ta'limoti diniy masalalarni har kim Qur'on va sunnatdan mustaqil olishi kerak, bu borada mazhablarga ergashishning hojati yo'q deb da'vo qildi. Ular barcha muxoliflarini bid'atchilikda, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar.

Afsuski, vahhobiylik bugungi kunda ham kishilar o'rtasida ixtilof va ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo'layotgan oqimdir. Oqim tarafdorlari sunniylik yo'nalishining Imom Moturidiy va Imom Ash'ariy kabi hidoyat peshvolarini tanqid qiladilar. Ularga ergashganlarni adashgan deya e'lon qiladilar. Bu ayblov bilan qancha-qancha olimlarni xatokorga chiqaradilar. Shuningdek, bu toifa hanafiy, molikiy, shofeiyy va hanbaliy mazhabiga ergashganlarni ham adashganga chiqaradi.

Ba'zilar vahhobiylarni hanbaliy mazhabi bilan bog'lamoqchi bo'ladilar. Aslida, hanbaliy mazhabi olimlari bu firqaga qarshi

raddiyalar keltirganlar, asarlar ta'lif etganlar. Vahhobiylarni hanbaliy mazhabida deyishning ikkita oqibati bor:

Birinchi, hanbaliy mazhabini sunniylikdan chiqarishga olib keladi. Vaholanki, islom ulamolari bu mazhabni qolgan uch mazhab qatorida "Ahli sunna val jamoa"dan ekaniga ittifoq qilishgan.

Ikkinchi, vahhobiylarni sunniylik yo'nalishiga yaqin qilib ko'rsatadi va bu ularning faoliyati avj olishiga sabab bo'ladi. Chunki, sunniylik yo'nalishi mo'tadil va islomning asl mohiyatini aks ettiruvchi ta'limot sifatida ma'lum va mash'hurdir.

## 9.2. Al-ixvon al-muslimun

"Al-Ixvon al-muslimun" – "Musulmon birodarlar" firqasi 1928-yili Misrning Ismoilিয়া shahrida tashkil etilgan. Asoschisi Hasan Abdurahmon al-Banno. U musulmon o'lkalarda islom davlatini barpo qilish g'oyasini ilgari surdi va bu yo'lda hech narsadan qaytmaslik, hatto o'zini qurbon qilish darkorligi haqida da'vo qildi. "Har bir musulmon o'zini qurbon qiladigan va evaziga hech nima talab qilmaydigan Allohning askaridir", degan mutaassibona fikrni uqtirmoqchi bo'lgan Banno o'z qarashlarini "Fannul-mavt" – "O'lim san'ati" asarida ifoda etdi va mazkur asarda ilk marta o'zini o'zi qurbon qilish shaklidagi jangarilik amaliyotini oqlab fatvo berdi. U asos solgan "al-Ixvon al-muslimun": "Alloh– bizning maqsadimiz, Qur'on–qomusimiz, Payg'ambar–bizning yetakchimiz, jihod–bizning yo'limiz va Alloh yo'lida qurbon bo'lish bizning eng oliy orzuyimizdir" degan mazmundagi keekin va mutaassib g'oyani ilgari surdi.

Islom musaffo ta'limotini o'zida aks ettirgan sunniylik yo'nalishida bunday qarashlarning qanchalik haqiqatdan yiroq va zalolat ekani o'z ifodasini topgan.

**Birinchi**dan, musulmon kishi islom davlatini qurishga intilishi lozimligi haqida na Qur'oni karim va na hadisi sharifda bironta ishorat mavjud emas. Islomga amal qilish, shariatga

muvofig ish qilish haqida takror-takror ko'rsatmalar bor, lekin buning uchun islom davlati barpo qilish zarurligi haqida, agar islom davlati bo'lmasa ibodatlar qabul bo'lmasligi to'g'risida hech qanday asos mavjud emas. Balki, musulmon kishi o'zi yashayotgan hududdagi rahbarlarga itoat qilishi va har bir ishni mavjud qonunlar asosida amalga oshirishi ta'kidlangan.

**Ikkinchidan**, davlat qurish bahonasida mavjud hukumatlarga qarshi bosh ko'tarish, guruhlar tuzish, jangarilik qilish islom ta'limoti, bu ta'limotni o'zida aks ettirgan hanafiy mazhabi, moturidiya qarashlariga tamomila ziddir.

**Uchinchidan**, shariat bo'yicha inson o'ziga ham, o'zgalarga ham zarar yetkazishi, ozor berishi haromdir. Binobarin, o'zini o'zi o'ldirish imonsizlikka yo'ldir. Hanafiy mazhabi ulamolari o'zini o'zi qatl qilgan kishiga, hatto janoza namozi o'qish mumkin emas deya fatvo berishgan. Zero, Alloh insonni baxt-saodat uchun yaratgan, bandasi o'z-o'zini o'ldirishi uchun emas.

**To'rtinchidan**, Hasan al-Banno dunyo ulamolari, mazhab vakillari e'tirof etgan mujtahid yoki muftiy darajasidagi olim emas. Vaholanki, hanafiy mazhabi ta'limoti bo'yicha fatvo berishga musulmon diyorida rasman tayin qilingan yoki ulamolar kengashi tomonidan saylangan muftiygina haqli. Al-Banno ko'targan ziddiyatli masalalar islom dini mohiyatiga zid ekanini ko'zga ko'ringan ulamolar, sunniylik yo'nalishi faqihlari bayon etganlar.

Lekin, afsuski, Hasan al-Banno qarashlari asosida shakllangan "Al-ixvon al-muslimun" davlat tepasiga faqat shafqatsiz kurash, jihad yo'li bilan kelish mumkin va bu maqsadga erishish yo'lida har qanday to'siqlarni yengish kerak degan g'oya asosida bir necha o'n yildan beri faoliyatini to'xtatgani yo'q. Shuning uchun ham soha mutaxassislari tomonidan Hasan al-Banno islom niqobidagi ekstremizmning "otasi" deb atalgan. Keyinchalik "Al-ixvon al-muslimun" dan "Al-Jamoa al-islomiya", "Jundulloh", "At-Takfir val-hijra", "Al-Jihad", "Al-Qoida", "Hizbut-tahrir al-islomiy", "Akromiyalar" va "Hizb an-Nusra" kabi ekstremistik

va terroristik tashkilotlar ajralib chiqqani yuqoridagi fikrning tasdig'idir. XX asrning 60-yillarida unga g'oyaviy rahnamolik qilgan Sayid Qutb bu tashkilotni faollashtirishga harakat qildi. "Arab jamiyati "johiliya" davriga qaytib, ma'naviy tanazzulga uchradi, bunday vaziyatda asl dindorlar jamiyatdan ajralib, alohida jamoalar tuzishlari hamda johiliyaga aylangan jamiyatni islomlashtirish uchun "jihod" olib borishlari lozim" degan Sayid Qutb (1906–1966) o'zining "Yo'ldagi belgilar" nomli kitobida "jihod" tushunchasini dinsizlarga hatto, uning talqiniga qo'shilmagan musulmonlarga qarshi kurash ma'nosida qo'llagan. Bundan tashqari, Sayyid Qutb ilk marta dunyoviy hukumat va o'ziga qo'shilmagan musulmonlarga nisbatan "takfir" (kofirlikda ayblash)ni qo'llagan holda islomga umuman yot bo'lgan – "fitna" (amaldagi davlat tuzumiga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'tarish amaliyoti)ni yoqlab chiqdi. Shunisi diqqatga sazovorki, hozirda faoliyat yuritayotgan qator diniy-ekstremistik tashkilotlar uchun ham bunday yondashuv mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Sayid Qutb g'oyalarining naqlga ham, aqlga ham to'g'ri kelmasligi kundek ravshan:

**Birinchi**dan, musulmon diyorini johiliya, ya'ni islomdan mutlaqo uzoq bo'lgan jaholat o'lkasi deb atashlik asossizdir. "Ahli sunna val-jamo'a" ulamolari bir odamda 100 alomat bo'lsa, uning 99 tasi kufrga dalolat qilsa-yu, bittasi imonga dalolat qilsa, uni musulmon deb umid qilish haqidagi qarashlarni bayon etganlar. Islom ta'limotining mohiyati ham insonlardan imon umid qilish, ularga rahmat va marhamat yo'llarini ko'rsatishdan iborat, musulmonman deganga ezgulikni bildirish o'rniga, uni imonsiz va johilga chiqarib, yana kurash e'lon qilishda hech qanday ma'no va mantiq yo'q.

**Ikkinchi**dan, islom ta'limotini jamiyatga yetkazib berishlariga qandaydir noqonuniy tuzilgan jamoalar emas, balki davlat rahbari va uning ruxsati bilan faoliyat yurituvchi muftiy va imomlar mas'uldir. Har bir rahbar qo'l ostidagilar uchun mas'ul

ekani haqidagi hadisdan kelib chiqadigan bo'lsak, inson o'zidan yuqori tashkilotlar uchun mas'ul emasligi ma'lum bo'ladi.

**Uchinchi**dan, "jihod" masalasi, bu ham ikkinchi masala bilan bog'liq, ya'ni mamlakatda urush va tinchlik masalalarini hal etish vakolati faqat davlat rahbariga berilgan. Davlat rahbarining iznisiz biror kimsa boshqaga nisbatan urush yoki qotillikka kirishishi shariatga ham sharoitga ham mutlaqo zid ishdir. Demak, musulmon kishi har bir ishni qonun bilan belgilangan vakolat doirasida amalga oshirishi darkor.

**To'rtinchi**dan, "fitna", ya'ni qo'zg'olon masalasi. Hanafiy mazhabi va moturidiya ta'limotiga ko'ra davlatga qarshi qo'zg'olon ko'tarish man etilgandir. "Sahihi Buxoriy"ning sharhi "Fathul-boriy"da keltirilishicha, Makkada Hajjoji Zolim nomi bilan tarixga kirgan Hajjoj ibn Yusuf hokim bo'lgan paytda qancha insonlarga jabru zulm qildi. Lekin, o'sha paytda hayot bo'lgan Anas ibn Molik kabi sahobalar uning bu qilmishlariga sabr etdilar. Chunki, sahobalar islomning rahbarga itoat qilish haqidagi ta'limotini yaxshi bilardik va unga amal qilishar edi.

### 9.3. Hizbut-tahrir

"Hizb at-tahrir al-islomiy" – ("Islom ozodlik partiyasi"). Tashkilotga 1953-yilda Taqiyuddin Nabahoniy (1909–1979) tomonidan asos solingan. Dastavval, o'ziga Falastinni ozod qilishni maqsad qilgan Nabahoniy, keyinchalik musulmon davlatlarini birlashtiruvchi xalifalik davlatini qurishni bosh maqsad deb e'lon qildi. Ta'limot nazariyasi Nabahoniy va uning izdoshi Abdul Qaddim Zallumning "Islom nizomi", "Islom davlati", "Xalifalik", "Islomiy olamga qaynoq nidolar", "Hizbut-tahrir tushunchalari", "Demokratiya – kufr nizomi" va "Siyosiy ong" kabi asarlarida bayon etilgan.

Yurtimizda "hizbchilar" faoliyati 90-yillarda sezila boshladi. Xalq orasida "xalifachilar" deya nom olgan bu firqa diyorumiz musulmonlari asrlar davomida amal qilib kelgan hanafiy mazhabi



ta'limotiga zid g'oyalarni odamlar ongiga singdirishga urindi: yagona xalifalik barpo etish farzligi, xalifalik davlati qurilmaguncha juma namozi va ba'zi boshqa ibodatlar farz bo'lmisligi, dunyoviy davlatda yashayotgan insonlarning qilayotgan solih amallari qabul bo'lmisligi, davlatga qarshi bo'lgan guruhlar tuzish, "baytul-mol" tashkil etish, "tabarru'ot" solig'ini joriy etish kabi asossiz g'oyalar bilan afsuski, ilmi oz va sayoz bo'lgan ba'zi johilu g'ofil kimsalarning ongi zaharlandi. "Hizbut-tahrir" da'volari taniqli ulamolar tomonidan qattiq tanqid qilindi. Ularga ilmiy va mantiqiy asosda raddiyalar berildi. Mazkur raddiyalarning ba'zilari quyidagilar:

**Xalifalik masalasi.** "Hizbchilar" da'vo qilishicha 1924-yilgacha xalifalik bo'lgan. Endi aynan uni qayta tiklash kerak, deyдилar. Vaholanki, islom avvalida xalifalik bor yo'g'i 30 yil davom etgani, undan so'ng amirlik va podshohlklar faoliyat yuritgani ma'lum haqiqat. Garchand, ummaviylar, abbosiyalar, usmonlilar sulolalari xalifalik deb atalgan bo'lsa-da, ular mohiyatan amirlik va podshohlklar edi. Bu sulolalarning ilk islom davrida 30 yil davom etgan xalifalikka mos kelmaydigan jihatlari ko'p edi. Shuningdek, "ahli sunna val jamoa"ning to'rt mazhabiga tegishli bironta manbada musulmon kishi xalifalik qurishi lozimligi haqida ma'lumot yo'q. Aksincha, har bir imonli inson o'zi yashayotgan davlat qonun-qoidalariga rioya qilish vojibligi ta'kidlangan.

**Yagona xalifa ostida birlashish.** Bu ham shariat mo'minlar zimmasiga yuklagan amal emasligi ma'lum. Sababi, 657-yilda sahobalar orasida "Tahkim" voqeasi sodir bo'lib, undan so'ng xalifalik hokimiyati ikkiga bo'lingan: Ali ibn Abi Tolib Ko'fada va Muoviya ibn Abi Sufyon Shomda hukmron bo'ldi. Agar musulmonlar uchun bitta rahbar bo'lishi shart bo'lganida, Ali ibn Abiy Tolib, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Mas'uddek islom ilmini dunyoga tarqatgan zotlar hokimiyatning bo'linishiga yo'l qo'ymagan bo'lar edilar.

**Xalifalik qurilmaguncha ba'zi ibodatlar farz bo'lmisligi.** Ibodatlarining farz bo'lishi Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar bilan sobit bo'lgan. Biron ibodatni ado qilish shartida uni aynan xalifalik ostidagina bajarish zarurligi sobit bo'lmagan. Bu borada hatto zaif xabar ham yo'q. Binobarin, Alloh farz qilgan ibodatlarni farz emas deya da'vo qilayotgan "hizbchilar" o'zlarini undan ham ustun qo'ymoqchimilar?

**Dunyoviy davlatda yashayotgan insonlarning qilayotgan solih amallari qabul bo'lmisligi.** Payg'ambar alayhissalom "Ilmni Xitoydan bo'lsa ham talab qiling" dedi. Xitoyga borgan insonning ibodati qabul bo'lmisligi haqida hech narsa deyilmadi-ku? Agar Xitoyga ilm izlash uchun borgan insonning ibodati bekor bo'lsa, nega bu haqda insonlarga ibodatni ta'lim bergan Payg'ambar hech narsa demadi? Xitoyning musulmon mamlakati emasligi ma'lum-ku.

**Har kim o'zicha "Baytul-mol" tashkil etib, kishilardan mablag' yig'ishi.** "Baytul-mol" bugungi kunda davlatning g'aznasiga to'g'ri keladigan tushuncha. Musulmon mamlakatlarda davlat g'aznasi "Baytul-mol", ya'ni "Molu dunyo uyi" deb atalgan. Aholidan tushadigan zakot, ushr, fitr sadaqa va boshqa soliqlar unga to'planib, davlat manfaatlari yo'lida sarf etilgan. Bu masala davlat miqyosida hal etilgan. Unga davlat rahbari va tegishli mutasaddilar mas'ul bo'lgan. Lekin, biror kimsa noqonuniy guruh tuzib, uni ta'minlash uchun o'zicha "baytul-mol" tashkil etishi va boshqalardan bu maqsad uchun zakot va sadaqalarni yig'ishi va uni botil maqsadlarini amalga oshirishi uchun sarflashi shariatga ziddir.

**"Tabarru'ot".** Bu "hizbchilar" "kashf" etgan va bironta shar'iy manbalarda ko'rsatilmagan moliyaviy soliqdir. "Hizbut-tahrir" rahbarlari o'z a'zolaridan shunday yo'l bilan mablag' yig'ib, uni o'zlari, oilalarini ta'minlash uchun va turli fasod ishlari uchun sarf etishga urinishadi. Bu esa shar'an harom amalligi o'z isbotini topgan. Birovning hisobiga yashash, nohaq yo'llar bilan kishilar

molini yeyish Qur'on oyatlari va hadisi shariflar bilan qattiq man etilgan. Hanafiy mazhabi ulamolari insonning haqi Allohning haqidan ham ustunligini ta'kidlashgan. Zero, Alloh taolo hech kim va hech narsaga muhtoj emas. U o'z haqidan kechib yuborishi mumkin. Ammo inson ehtiyojmand mavjudot. Uning haqiga tajovuz qilish og'ir jinoyat.

Hozirgi zamon islom ulamolari "Hizbut-tahrir"ni ohod hadislariga, qabr azobiga, sirot ko'prigiga ishonmasligi uchun "Ahli sunna val-jamo'a" safidan chiqqan deb hisoblaydilar.

"Hizbut-tahrir" 1960-70-yillarda bir necha bor hukumatga nisbatan fitna tayyorlashda qatnashganidan so'ng uning faoliyati Iordaniya va Misrda, keyinroq Suriya, Iroq, Liviya, Tunis va deyarli barcha musulmon davlatlarida, 2003-yildan Rossiya va Germaniyada ham man qilindi.

#### 9.4. Salafiylar

Sunniylik yo'nalishi to'rt fiqhiy mazhab: hanafiy, molikiy, shofeyi va hanbaliy hamda ikkita aqidaviy ta'limot: moturidiy va ash'ariydan iborat ekaniga dunyo olimlari ittifoq qilganlar. Sunniylik asrlar davomida islom mohiyatini aniq va to'liq aks ettirgan yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Biroq, ba'zi "ilm ahli" orasida bu e'tirofqa qo'shilmagan kimsalar ham vaqti-vaqti bilan uchrab turganini qayd etish lozim. Ya'ni, sunniylik mazhablariga ergashishni inkor qilgan holda har bir inson Qur'on va hadisdan o'zi mustaqil fatvo olishi mumkin, degan qarashdagi kishilar. Ularning bu iddaolari oqibatida "salafiylik" oqimi yuzaga keldi. Shu o'rinda mutaassib oqim va fiqaralar islom ta'limotida mo'tabar bo'lgan tushunchalar ma'nosini soxtalashtirib, ularni o'zlariga shior qilib olishlarini ta'kidlash joiz. Masalan, vahhobiylar islom e'tiqodining bosh g'oyasi bo'lgan tavidni vasf etishda, uning asl mohiyatidan uzoq bo'lgan talqinlarni kiritishga urindilar va bu talqinlarga qo'shilmaganlarni kofir va mushrikka chiqardilar. Shialar butun islom olami uchun hurmatli bo'lgan "ahli bayt",

ya'ni Muhammad (s.a.v.) oilalari va avlodlarini ehtirom etishda mo'tadillik chegarasidan chiqib ketdilar va o'zlarining ko'pchilik ulamolar tomonidan rad etilgan noto'g'ri talqinlarini zo'r berib targ'ib etishga urindilar. Salafiyalar ham shunday. Aslida "salafi solihlar" deganda sahobalar, tobeinlar, ular bilan zamondosh bo'lgan yoki ularga ergashgan ulug' imomlar va ulamolar tushuniladi. Salafi solihlarsiz islom va uning ta'limotini tasavvur etish mushkul. Lekin o'zini salafiy deb atayotgan kimsalar biror mazhabni tan olmay, salaflar yo'lidan yurishlarini da'vo qiladilar. Bu oqimning nomi shundan kelib chiqqan. Qizig'i, o'zini salafiy deb hisoblayotganlar salafi solihlar davrida yuzaga kelgan to'rt mazhabni tan olmay, ulardan 500-600 yil keyin yashagan Ibn Taymiya va Ibn Qayyim Javziyning fikrlariga ergashadilar. Demak, ular aslida salafiy emas, balki bu nomga da'vogarlar xolos. Taqiyuddin Ibn Taymiya mazkur salafiylikning ilk targ'ibotchisi va g'oyaviy rahnamosi sifatida tanilgan. Lekin, uning ta'limoti ixtilof va ziddiyatlarga bois bo'lgani sabab o'sha davr ulamolari tomonidan tanqidga uchragan. XVIII asrda Muhammad ibn Abdulvahhob Ibn Taymiya qarashlarini jonlantirdi, ulardan kelib chiqqan holda vahhobiylik oqimiga asos soldi. Binobarin, salafiylik g'oyalari aynan vahhobiy oqimi tomonidan rivojlantirildi. Bugungi kunda bu ikki oqim bir-biri bilan bog'lanib ketganligidan ularni ayri holda tasavvur qilish qiyin. Zotan, salafiylik qarashlari bilan tanishganda ularning vahhobiylik g'oyalari bilan yaqin ekani namoyon bo'ladi.

*Birinchi*dan, salafiyalar Qur'on va sunnatdan har kim mustaqil fatvo olishi mumkin deb hisoblashadi. "Ahli sunna val-jamo'a" ta'limoti bo'yicha oyat va hadislardan hukm chiqarish faqat mujtahid darajasidagilar vakolatiga tegishli hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, aqida masalalarida sunniylikning ikki mazhabi moturidiya va ash'ariyaga xilof qarashlarni ilgari suradilar. Xususan, Allohning ism va sifatleri borasida ixtilof qiladilar.

*Uchinchidan*, salafiyar taassubi shu darajaga bordiki, o'tgan ulug' imomlardan kimki moturidiy va ash'ariy ta'limotiga mansub bo'lsa, uni adashgan va xatokorga chiqarib, bu borada kitoblar ta'lif qildilar. Axir, biz salaflarga ergashamiz deyilsa-yu, lekin amalda o'zidan oldin o'tgan solih salaf imomlarni, ulamolarni tanqid qilishdan, ularni adashganga chiqarishdan toymasa, bu mantiqsizlikni ayni o'zi emasmi?!

*To'rtinchidan*, to'rt fiqhiy mazhabdan biriga ergashib, qolganlarini hurmatda bo'lgan mo'min-musulmonlarni "mazhabiy" deb atab, mutaassib va adashganga chiqaradilar. Vaholanki, yer yuzi musulmonlarining 92,5 foizi sunniylikdagi to'rt mazhabdan biriga mansubdir.

Aytib o'tilgan ixtiloflardan ma'lumki, salaf solihlarga ergashishni da'vo qilayotgan, o'zini salafiy deb atagan toifa aslida sunniylik yo'nalishiga va uning asoschilari bo'lmish salafi solihlar ravishiga zid ish qiladigan soxta da'vogarlardir.

## 9.5. Nurchilar

Bu oqimning kelib chiqishi va atalishi turkiyalik Badiuzzamon Said Nursiy faoliyati bilan bog'liqdir. Oqim maqsadi – mavjud hokimiyatga qarshi chiquvchi mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat.

"Nurchilar" o'tgan asrning 90-yillarida yurtimizda turk liseylari va o'quv markazlarini tashkil etish orqali faoliyat yuritishga harakat qildilar. Boshida "xolis" ko'ringan maqsadning oqibati asta-sekin ko'rina boshladi. "Nurchilar" ta'siriga tushgan yoshlar boshqa mo'min-musulmonlardan o'ziga xos qarashlari va xatti-harakatlari bilan ajrala boshladi. Jumladan, o'ziga ta'lim bergan "nurchi" muallimini haddan ortiq ehtirom qilish, uning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishga intilish, ularni e'zozlashda yurtimiz musulmonlari asrlar davomida amal qilib kelgan hanafiy mazhabi va moturidiya ta'limoti asoslariga xilof qilish, diniy qarashlarni o'zi yashayotgan diyor ulamolaridan emas, balki faqat

“nurchi” o‘qituvchisidan olish kabi holatlar bu oqimning ijtimoiy xatarini belgilab berdi.

Nurchilik oqimi sunniylik yo‘nalishiga quyidagi masalalarda xilof qiladi:

**Birinchi**dan, mo‘min-musulmonlarning orasida ixtilof qo‘zg‘aydigan alohida firqa tuzish shar‘an man etilgan ishdir. Qur‘oni karim va hadisi sharif mazmuniga ko‘ra turli guruhlariga bo‘linish qaytarilgan ishdir.

**Ikkinchi**dan, Said Nursiy dunyo ulamolari to‘monidan e‘tirof etilgan mujtahid yoki alloma emas. Uning fikrlarini dastur va shior qilib olish joiz emas. Aksincha, uning qarashlarida ziddiyat va chalkashlik borligi mutaxassislar tomonidan ta‘kidlangan.

**Uchinchi**dan, haqiqatni faqat bir millat vakillariga mansub deb, faqat shu millat olimlari yozgan kitoblarni ushlab olish mutaassiblikdan boshqa narsa emas. Chunki, islom dini musulmonlar jamoasiga ergashishni buyuradi, bunda bir millatni boshqa millatdan, bir xalqni boshqasidan ustun yoki zaif ko‘rilmaydi. Agar bunday holat yuzaga keladigan bo‘lsa, qancha-qancha ixtilof va ziddiyatlar kelib chiqishi tabiiy.

**To‘rtinchi**dan, mavjud hokimiyatga qarshi chiqish, noqonuniy yo‘llar bilan unga egalik qilishga intilish moturidiya ta‘limoti va hanafiy mazhabiga zid ish ekani ma‘lum. Mavjud davlat hokimiyatiga qarshi targ‘ibot olib boruvchi kishilar tarixda xorijiytlarning “qa‘adiy” guruhiga mansub bo‘lib, ular xorijiytlarning eng zararlisi deya e‘tirof etilganini ta‘kidlash o‘rinli.

Yuqoridagi misollar “nurchilik” oqimining xatarli va ijtimoiy xavfli ekanini isbotlaydi.

## 9.6. Akromiylar

“Akromiylar” guruhi asoschisi Akrom Yo‘ldoshevdir. U Abduvali Mirzaev singari salafiylik va mazhabsizlik g‘oyalarini targ‘ib etgan kimsalardan ta‘lim oldi va oqibatda dunyo ulamolari tomonidan adashgan firqa deya e‘tirof etilgan “Hizbut-tahrir”

a'zosiga aylandi. Maqsadi rahbarlikka va hokimiyatga intilish bo'lgan A. Yo'ldoshev bora-bora "hizb" rahnamosi A. Qosimov bilan kelisha olmay, "Hizbut-tahrir" dan chiqdi. Lekin uning g'oyalari asosida o'zining "akromiylar" oqimiga asos soldi. U o'z qarashlarini 12 darsdan iborat bo'lgan "Imonga yo'l" risolasida bayon etgan. Mazkur risola sabab "akromiylar" xalq orasida "imonchilar" degan nom bilan atalgan.

A.Yo'ldoshev mavjud qonuniy hukumatni ag'darish va hokimiyatni qo'lga olish uchun "sirli", "moddiy", "ma'naviy", "uzviy maydon" va "oxirat" yoki "to'ntarish" deb nomlangan 5 bosqichli harakat dasturini ishlab chiqdi. Bu beshta bosqichning har biri islom ta'limotiga zid ekanini ta'kidlash joiz:

**Birinchi**, sirli – hokimiyatga qarshi chiquvchi guruhlarini tuzish, xoh mahfiy, xoh oshkora bo'lsin shar'an man qilingan ishdir. Akromiylarning "sirli" bosqichi shialikdagi "taqiya" hamda xorijiyilarning "qa'adiya" guruhiga o'xshab ketadi va sunniylik ta'limotiga xilofdir.

**Ikkinchi**, moddiy – "akromiylar" a'zosi o'z daromadining yigirma foizini "Baytul-mol", ya'ni oqim manfaatlari yo'lida tashkil etilgan g'aznaga topshirishi. Bu shar'an mutlaqo man etilgan ish. Qonunga xilof tarzda hech kim o'zicha g'azna yoki jamg'arma tashkil etishi mumkin emas. Sunniylik ta'limoti bo'yicha inson tamagirlik bilan, o'zgalarning hisobiga hayot kechirishi haromdir. Shuning uchun ham islom ilmlari bo'yicha dunyoga mashhur bo'lgan allomalarning ham o'z kasblari bo'lgan va shu kasblari sabab kun kechirganlar. Imom Abu Hanifa tijorat, Qaffol Shoshiy qulfsozlik, Bahouddin Naqshband matoga gul bosish bilan shug'ullangan va hokazo ko'plab misollarni keltirish mumkin. Mehnat qilish ham qarz, ham farz. Lekin, qandaydir guruhlar tuzib, bu orqali o'zgalarning hisobiga tirikchilik qilishni maqsad qilish jinoyatdir.

**Uchinchi**, ma'naviy -- oqim a'zolari o'zlarining buzg'unchi maqsadlari yo'lida birlashtirishga shunday nom berganlar.

Aslida, qo'poruvchilik va qotillikda yer yuzini xarob qilishdan boshqa nima ma'no bor? Alloh Qur'onda ezgulik va taqvo yo'lida hamkorlik qilishga hamda gunoh va adovat yo'lida hamkorlik qilmaslikka buyurgani ma'lum va mashhurdir. Begunoh insonning qonini to'kish insoniyatning qatliga teng ekani oyati karimada bayon etilgan. Islom so'zi isyon emas—itoat, urush emas—tinchlik ma'nosini bildirishi kundek ravshan. Demak, "akromiylar" targ'ib etgan "ma'naviy" bosqich, aslida tubanlikdir.

**To'rtinchi**, uzviy maydon – bu aqlga ham, naqlga ham to'g'ri kelmaydigan ishdir. Akromiylar "uzviy maydon" orqali davlat tuzumining o'zlari uchun kerakli joylariga o'z a'zolarini joylashtirish va to'ntarishga tayyorgarlik ko'rishni maqsad qiladilar. Inson qo'poruvchilik niyatida biron ishni qilsa jazoga mustahiq bo'lishi ko'plab tarixiy va mantiqiy dalillar bilan isbotlangan.

Davlat hokimiyatiga qarshi inqilob qilish va urush qilish orqali biror xalq baraka topmagan. Aksincha, har tomonlama orqaga ketgan. Buni o'tgan va hozirgi asrlarda dunyoning turli mamlakatlarida sodir bo'lgan jarayonlar, jumladan "rangli inqiloblar" takror va takror isbot etdi.

**Beshinchi**, oxirat yoki to'ntarish – "akromiylar" bu bosqichni hokimiyatni qo'lga kiritish uchun so'nggisi deb hisoblaydilar. Davlat hokimiyatiga qarshi chiqish, bu maqsadda turli guruhlar tuzish islom ta'limotida og'ir gunoh hisoblanadi. Davlatga qarshi chiqish sunniylik yo'nalishida "bog'iylik" deb atalib, bu faoliyat bilan shug'ullangan kimsalarga oliy jazo belgilangani va ularga o'lgandan so'ng janoza o'qimaslikka hanafiy mazhabining "Hidoya" kabi mo'tabar kitoblarida fatvo berilganini ta'kidlash o'rinli.

Shuningdek, A.Yo'ldoshev "Imonga yo'l" risolasida imon masalasini yurtimizda azaldan an'anaviy hisoblanib kelgan hanafiy mazhabi va moturidiya ta'limotiga zid tarzda talqin qilgan. Masalan, kitobda "Imon komil bo'lishi uchun, tilda aytilgan narsa



amalda tasdiqlanmog‘i shartdir”, degan ta‘kid bor. Vaholanki, moturidiya ta‘limoti bo‘yicha imonning sharti ikkita: Allohning birligiga va Muhammad alayhissalomning payg‘ambarligiga til bilan iqror bo‘lib, dil bilan tasdiqlashdir. “Akromiylar” imonning ta‘rifiga amalning shart sifatida qo‘shishdan maqsadlarini anglash qiyin emas. Odatda, mutaassib firqalar mazkur masalani imoni va iqrori bo‘lsa-da, islom arkonlariga amal qilmaganlarni kofirga chiqarish va unga qarshi jazo e‘lon qilish maqsadida ishlatishadi. Buning zamirida esa hokimiyat uchun kurash yotibdi.

2005-yil 13 mayda Andijon shahrida bo‘lib o‘tgan hodisalar, “akromiylar” firqasining davlatga qarshi bosh ko‘tarishi, shahar hokimiyatiga va ichki ishlar idorasiga hujum qilib, bir qancha begunoh odamlarni o‘ldirganlari ularning asl maqsadlarini oshkor qildi. Allohga shukrki, buzg‘unchilar fitnasi tezda to‘xtatildi, Yurtboshimizning qat‘iy sa‘y-harakati va og‘ir vaziyatda qabul qilgan oqilona qarorlari sabab, vodiyda yuzaga kelgan juda katta xavf-xatarning oldi olindi. Binobarin, “akromiy” bo‘ladimi, “hizbiy” bo‘ladimi, “salafiy”mi yoki boshqasimi, bunday guruhlarining tahdidlaridan hamisha ogoh va hushyor bo‘lish, ularga qarshi tura oladigan, bunday kasalliklarni bartaraf qiladigan immunitetga ega bo‘lish har bir imonli insonning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

### **9.7. Zamonaviy xorijiyalar**

XX asr fan taraqqiyoti, informasion texnologiyalar, kosmonavtika asri bo‘lishi bilan bir qatorda, bir emas ikkita jahon urushi, dunyoga hukmronlik qilish uchun manfaatlar to‘qnashuvi asri bo‘ldi. Ammo musulmon olami dunyoda bo‘layotgan shuncha o‘zgarishlarga qaramay hamon o‘zaro ixtilof va ziddiyatlar girdobida qolmoqda. Afg‘oniston, Pokiston, Falastin, Iroq kabi mamlakatlarida kunda-kunora sodir etilayotgan terroristik harakatlar har bir ongli va imonli insonni tashvishga qo‘yishi tabiiy.

2007-yil 14-15 avgust kunlari Toshkentda o'tkazilgan "O'zbekistonnig islom sivilizasiyasi rivojiga qo'shgan hissasi" nomli xalqaro anjumanga tashrif buyurgan turli xalqaro tashkilot vakillari, din arboblari va muftiylaridan iborat mehmonlarning bir guruhini davlatimiz rahbari Islom Karimov qabul qildi. Ular bilan muloqot chog'ida Yurtboshimiz bugungi kunda musulmon olamida ro'y berayotgan o'zgarishlarni chuqur tahlil etib, hal etilishi lozim bo'lgan bir qancha muammolarni, xususan, musulmonlar orasida tarqoqlik va qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaslik, ta'lim-tarbiya sohasiga alohida e'tibor berish, qashshoqlik va kambag'allikka qarshi kurashish kabilarni ta'kidladi.

Haqiqatan, ayni paytda islom olamiga tahdid solayotgan eng katta xavf bu mutaassiblik, jaholat va dangasalikdir. Bu uch ildiz o'zaro tutashib, ekstremizm va terrorizmni oziqlantirmoqda. Zotan, mutaassiblik haqiqatni inkor etishga, ya'ni jaholatga yetaklaydi. Bu ikki salbiy illat dangasalikka, o'zgalarning hisobiga hayot kechirish, yaratuvchanlik emas, buzg'unchilik bilan shug'ullanishga olib boradi. Bejizga islom ta'limotida ilm olish farz, mehnat qilish farz deyilmagan.

Ba'zi ommaviy nashrlarda dunyoda mavjud 500ga yaqin terroristik tashkilotlarning 80 foizi islom nomidan ish ko'rishini ta'kidlanadi. Ammo Yandex.ru internet qidiruv tizimida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, mavjud terroristik tashkilotlarning umumiy soni 223ta bo'lib, ulardan 26 tasi, ya'ni 11 foizi o'zini islom dini bilan bog'liq qilib ko'rsatadi. Wikipedia.org internet-ensiklopediyasi ma'lumotlariga qaraganda, terroristik tashkilotlar soni 122ta bo'lib, ulardan 45tasi, ya'ni 37.5foizi islom dini nomidan ish ko'rishini da'vo qiladi. Agar so'nggi ikkala ma'lumotni o'rtachasini oladigan bo'lsak, 24 foiz natija hosil bo'ladi.

Yuqoridagi boblardan birida, faqat jamiyatdan ajralib chiqish emas, balki o'zaro tafriqaga borish, parokanda bo'lish mutaassib

oqimlarga xos ekani haqida soʻz bordi. Binobarin, islom nomidan ish koʻruvchi jangari toifalarning har biri ayri holda yuzaga kelgan emas, balki bir qancha yirik terroristik harakatlardan ajralib chiqqanlardir. Masalan, “Al-ixvon al-muslimun”dan “Al-Jamoa al-islomiya”, “Jundulloh”, “At-Takfir val-hijra”, “Al-Jihad”, “Hizbut-tahrir al-islomiy” va “Hizb an-Nusra” kabi oqimlar ajralib chiqdi. “Hizbut-tahrir”dan “Akromiylar” alohida boʻlib ajraldi.

“Al-Qoʻida” tashkiloti ayni paytda turli terroristik oqimlar uchun asos vazifasini oʻtamoqda. Zero, “al-qoʻida” soʻzi arab tilidan tarjima qilganda “asos” maʼnosini anglatadi. Mazkur terroristik tashkilot xalqaro miqyosda faoliyat olib borib, dunyodagi turli ekstremistik va terroristik oqimlar bilan aloqalar oʻrnatganini va yer yuzining turli nuqtalarida muttasil qoʻporuvchilik harakatlarini amalga oshirib, qancha-qancha insonlarning umriga zomin boʻlayotganini taʼkidlash joiz. 2011-yil Pokistonda xavfsizlik kuchlari tomonidan oʻtkazilgan harbiy amaliyot chogʻida “Al-Qoʻida” yetakchisi Usoma bin Lodin oʻldirilgani eʼlon qilindi. Ammo, mazkur terroristik tashkilot hamon yer yuzidagi barqarorlik va tinchlikka tahdid solmoqda.

“Al-Qoʻida” bilan bevosita aloqada boʻlgan yana bir oqim Afgʻonistonda Mulla Umar boshchiligida yuzaga kelgan “Tolibon” harakati boʻlib, u ham oʻz navbatida, bir qancha ekstremistik va terroristik guruhlarini birlashtirgan. Internetda nashr etilgan maʼlumotlarga qaraganda, mazkur harakat ayni paytda 100 ga yaqin guruhga boʻlinib ketgan.

Salafiylik oqimi haqida yuqorida toʻxtalgan edik. Mazkur oqim qarashlari ham bugungi kunda yuzlab toifalarga asos boʻlmoqda. Masalan, 90-yillarda Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlikka tahdid solgan “Adolat”, “Tavba”, “Islom uygʻonish partiyasi”, “Oʻzbekiston islom harakati” kabilar aynan salafiylik qarashlari asosida yuzaga keldi. Bu guruhlar aholi orasida “salafiylik” gʻoyalari targʻib etib, mavjud konstitusion tuzumga qarshi targʻibot-tashviqot ishlarini olib borish va islom davlatini

tiklash shiori ostida hokimiyatni kuch bilan egallashni maqsad qildi.

Mazkur mutaassib, jangari oqimlarning barchasini asosan ikkita xususiyat birlashtirib turadi:

**Birinchidan.** Ular o'z yo'llariga yurmagan musulmonlarni turli bahonalar bilan kofirga chiqaradilar. Bundan ikkita maqsadni ko'zlashadi: o'z saflariga qo'shilganlarni boshqalardan izolyasiya qilish, ya'ni ajratib olish va safdoshlarini boshqalarga nisbatan adovat ruhida tarbiyalash.

**Ikkinchidan.** O'z saflariga qo'shilmaganlarga qarshi urush e'lon qilish. Buni o'zlaricha, jihad deb nomlaydilar, va holanki, bunday behuda urushlar islomda "bog'iylik" deb ataladi. Uni yurt va millatning himoyasi uchun qo'llaniladigan jihad tushunchasiga aloqasi yo'q.

Yuqoridagi ikki xususiyat musulmonlar orasidan ilk ajralib chiqqan isyonkor yo'nalish xorijiytlarning sifatlari edi. Binobarin, taniqli olim va mutaxassislar "Al-Qo'ida", "Turkiston islom harakati", "Tolibon" "Hizbulloh" kabi o'zini turli nomlar bilan atayotgan ekstremistik va terroristik guruhlarini yagona nom ostida "xorijiytlar" deb atashni taklif qildilar. Agar mazkur mutaassib guruhlar faoliyatiga nazar tashlansa, ularning bugungi olib borayotgan qo'poruvchilik harakatlari VIII asrda faoliyat olib borgan "xorijiytlar" dan farq qilmasligini ko'rish mumkin.

### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

**Vahhobiylilik** – XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan oqim. Uning asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhobdir.

**Vahhobiylilik** ta'limoti diniy masalalarni har kim Qur'on va sunnatdan mustaqil olishi kerak, bu borada mazhablarga ergashishning hojati yo'q deb da'vo qildi va bugungi kunda ham kishilar o'rtasida ixtilof va ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

**“Al-Ixvon al-muslimun”** – “Musulmon birodarlar” firqasi 1928-yili Misrning Ismoiliya shahrida tashkil etilgan. Asoschisi Hasan Abdurahmon al-Banno. Mazkur oqim qarashlari ko‘plab diniy-ekstremistik tashkilotlar uchun ham mafkuraviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda

Hozirgi zamon islom ulamolari **“Hizbut-tahrir”** ni ohod hadislariga, qabr azobiga, sirot ko‘prigiga ishonmasliklari uchun ularni **“Ahli sunna val-jamoa”** safidan chiqqan deb hisoblaydilar

**“Hizbut-tahrir”** 1960 – 70-yillarda bir necha bor hukumatga nisbatan fitna tayyorlashda qatnashganidan so‘ng uning faoliyati Iordaniya va Misrda, keyinroq Suriya, Iroq, Liviya, Tunis va deyarli barcha musulmon davlatlarida, 2003-yildan Rossiya va Germaniyada ham man qilindi

**Salafiyalar taassubi** shu darajaga bordiki, o‘tgan ulug‘ imomlardan kimki moturidiy va ash‘ariy ta‘limotiga mansub bo‘lsa, uni adashgan va xatokorga chiqarib, bu borada kitoblar ta‘lif qildilar.

**Nurchilar** oqimi asoschisi Badiuzzamon Said Nursiydir. Oqim maqsadi – mavjud hokimiyatga qarshi chiquvchi mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat.

Mo‘min-musulmonlarning orasida ixtilof qo‘zg‘aydigan alohida firqa tuzish shar‘an man etilgan ishdir. Qur‘oni karim va hadisi sharif mazmuniga ko‘ra turli guruhlariga bo‘linish qaytarilgan ishdir.

**“Akromiylar”** guruhi asoschisi Akrom Yo‘ldoshevdir. U **“Hizbut-tahrir”** g‘oyalari asosida o‘zining **“akromiylar”** oqimiga asos soldi. O‘z qarashlarini 12 darsdan iborat bo‘lgan **“Imonga yo‘l”** risolasida bayon etgan A.Yo‘ldoshev mavjud qonuniy hukumatni ag‘darish va hokimiyatni qo‘lga olish uchun **“sirli”**, **“moddiy”**, **“ma‘naviy”**, **“uzviy maydon”** va **“oxirat”** yoki **“to‘ntarish”** deb nomlangan 5 bosqichli harakat dasturini ishlab chiqdi. Bu beshta bosqichning har biri islom ta‘limotiga ziddir.

Davlatga qarshi chiqish sunniylik yo'nalishida "bog'iylik" deb atalib, bu faoliyat bilan shug'ullangan kimsalarga oliy jazo belgilangan va ularga o'lgandan so'ng janoza o'qimaslikka hanafiy mazhabining "Hidoya" kabi mo'tabar kitoblarida fatvo berilgan.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Vahhobiylik oqimining zararli oqibatleri haqida nimalarni bilasiz?

2. "Al-Ixvon al-muslimun" firqasi haqidagi fikrlaringizni bayon qiling?

3. Sizningcha, "Al-Ixvon al-muslimun"ning eng katta xatari qaysi?

4. "Hizbut-tahrir"ning islom ta'limoti mohiyatiga xilof qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

5. "Hizbut-tahrir" faoliyatiga bildirilgan munosabatlarni bayon qiling?

6. Salafiylikning sunniylikdan farqi nimada ?

7. Salafiyarning salbiy oqibatlarini bayon qiling?

8. Akromiyalar qanday firqa?

9. Akromiyalarning islom ta'limotiga zid qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

10. "Bog'iylik" haqida ma'lumot bering?

11. «Zamonaviy xorijiyalar» iborasini izohlang?

12. Bugungi kunda xalqaro tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi terroristik tashkilotlarning necha foizi islom dini nomidan ish yuritishini da'vo qiladi?

## **Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan manba va adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. : O'zbekiston, 2008.

2. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv qo'l. Mas'ul muharrir A.S.Ochildiyev. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

3. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi. – T.: Akademiya, 2000.

4. Jo'rayev Sh. Buzg'unchi da'vatchilar. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.

5. Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. – T.: Ma'naviyat, 2000.

6. Meliqo'ziyev J. Halokat tuzog'i. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.

7. Karimov. A. Diniy mutaassiblikning tarixiy ildizlari va zamonaviy ko'rinishlari. – T.: “Movarounnahr”, 2011

8. Sherмухамедов К. Jaholat to'ri. -- T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.

9. Hasanov A. Islom tarixi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

10. Abdullatif qori, Hoshimjon qori. Zalolatga ketmang: Hizbut-tahrir fitnasidan ogoh bo'ling. – Toshkent: Movarounnahr, 2003.

11. Мирский Г. И. Исламизм, транснациональный терроризм и ближневосточные конфликты. – Москва, 2008.

## **10-BOB. O‘ZBEKISTONDA BARQARORLIKKA TAHDID SOLUVCHI OQIMLAR FAOLIYATINING OLDINI OLISHDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR**

10.1. Mustaqillikning ilk yillarida turli oqimlarning ijtimoiy barqarorlikka tahdidi

10.2. “Jaholatga qarshi ma’rifat” g’oyasi ostida ixtiloflarga barham berilishi, birdamlik va barqarorlikning ta’minlanishi

### **10.1. Mustaqillikning ilk yillarida turli oqimlarning ijtimoiy barqarorlikka tahdidi**

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi vijdon erkinligini ta’minlash borasida keng imkoniyatlar, dindorlarning o‘z e’tiqodlari taqozosi bilan hayot kechirishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. 1992-yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining moddalari bilan vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar huquqi qonuniy asosda mustahkamlandi. Sobiq Ittifoq konstitusiyasida ham vijdon erkinligi aks ettirilgan edi, biroq hayotda buning tamomila aksini ko‘rish mumkin edi. Mustabid tuzum dinga qarshi kurash e’lon qilgani, uning hududi dahriylikka chorlovchi e’lonlar bilan to’ldirilgani ma’lum haqiqat.

1991-yil 14 iyunda hali Ittifoq tarkibida ekanimizda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi ma’naviy hayotimizda ulkan voqea bo’ldi. Minglab masjidlar, ziyoratgohlar musulmonlar ixtiyoriga topshirildi. Qur’oni karim ma’nolari va hadisi shariflar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. O‘nlab madrasalarda diniy ta’lim yo‘lga qo’yildi. Ota-bobolarimiz uchun asr armoni bo‘lgan haj ibodatiga yurtimiz fuqarolari qulay sharoitlarda qatnay



boshladilar. O'zbekiston aholisi bunday o'zgarishlardan mamnun edi. Chunki, barchaning fikrida islom faqat ezgulik dini, unga e'tiqod qiladiganlar doimo yaxshilik qilishni ko'zlaydilar, ularning qo'lidan aslo yomonlik kelmaydi, degan qarash shakllanib kelayotgan edi. Haqiqatan ham islom tinchlik va ezgulik dini. Biroq...

Biroq mustaqillik arafasida, o'z hududimiz va chegaralarimizga o'zimiz ega bo'lishimiz uchun harakatlar bo'layotgan bir paytda ba'zi xorijlik da'vatchilar paytdan foydalanib qolishga urindilar. Xalqimizning soddaligi, diniy ilmi oz va sayozligini hisobga olib, g'arazli maqsadlarini amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Chunki, odamlarimiz kim dindan gapirsa, uning diniy bilimini zo'r hisoblab, tashqaridan kelgan ba'zi "xolis"larni ochiq chehra bilan kutib oldilar. Afsuski, ular ta'bir joiz bo'lsa, "tuzimizni yeb, tuzlig'imizga tupurib ketdilar". Bu gap og'ir tuyular. Ammo diyorimizga turli ekstremistik va terroristik g'oyalarni ko'tarib kelganlarning qilmishlarini boshqacha ta'riflash qiyin. "Qars ikki qo'ldan chiqadi". Fuqarolar orasida mutaassib g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydigan ilmsiz va johil kimsalar ham topilgani vaziyatni yanada murakkablashtirdi.

O'zbekistonda diniy erkinlikni suiste'mol qilish nimadan boshlandi degan savolga ibodat masalasi'dagi ixtiloflardan deya qat'iy javob berish mumkin. Ilk ixtilof namozda bosh kiyim kiyish masalasidan boshlangani ma'lum. Mutaassib g'oyalarga berilgan "ahli ilm"lardan biri: "do'ppi bu o'zbeklarning milliy kiyimi, uni namozga aloqasi yo'q", deb bergan "fatvo"si sabab, keksa yoshdagi namozxonlar va bu "fatvo"ga amal qilgan yoshlar o'rtasida ko'plab masjidlarda ziddiyatlar kelib chiqdi. To'g'ri, do'ppi o'zbek xalqining milliy kiyimi, ammo u shunchalik xalq hayotiga singib ketgan ediki, keksa yoshdagilar do'ppisiz namoz u yoqda tursin, ovqat yeyishdan, hatto "holi joy"ga kirishdan ham hayo qilishgan, shar'iy jihatdan qaralganda, hanafiy mazhabi manbalarida beuzr holatda bosh kiyimsiz namoz o'qish makruhligi qayd etilgan edi.

Shunday ekan, buni bila turib, nega masjidlarda ixtiloflarga yo‘l qo‘yildi? Ziddiyat faqat do‘ppi masalasida edimi? Yo‘q. Namozda oyoqni kerib turish, “omiyn” lafzini baqirib aytish, farzdan so‘ng sunnatni o‘qimay ko‘pchilikni bostirib o‘tib, chiqib ketish kabi kutilmagan yangiliklar ibodatlarga kiritila boshlandi va bu ishlarning barchasi diyorimiz musulmonlari asrlar davomida amal qilib kelayotgan ta‘limotga qarshi qaratilgan edi.

Hanafiy mazhabini tushungan va uni himoya qilgan masjid imomlari va ilm ahllarining sa‘y-harakatlarini ham e‘tirof etish lozim. Ularning faoliyati oqimlarning xatarini bir muncha kamaytirishga muayyan darajada sabab bo‘ldi. Biroq, diniy sohaning bunday vakillari kam edi. Namozni qaysi mazhabda o‘qishning ahamiyati yo‘q yoki bizga mazhabning nima keragi bor degan “olimlar” mutaassib oqimlarning tegirmoniga suv quydilar. Chunki, masjidlarda ibodat borasida boshlangan ixtilof bora-bora o‘zining ijtimoiy xatarini namoyon qildi. Keyinchalik, siyosiy murakkabliklarga sabab bo‘ldi va hatto mavjud davlat hokimiyati uchun jiddiy xatarga aylandi.

Qaysi joyda kishilar ongida “g‘oyaviy bo‘shliq” paydo bo‘lsa, u xoli qolmasligi, balki o‘rnini boshqa g‘oyalar egallashi tabiiy. Ekstremistik guruhlar, avvalo, yurtimiz musulmonlari asrlar davomida amal qilib kelgan hanafiy mazhabiga hujum qildilar. Maqsadlari shu yo‘l orqali ixtiloflarni ko‘paytirish va o‘z g‘oyalari bilan kishilar ongini zaharlash edi. Haqiqatan, ba‘zi ilmsiz musulmonlarning Imom A‘zam mazhabi ta‘limotini anglamasliklari, boshqalarining esa oqimlar safsatalariga aldanishlari oqibatida yurtimizda yagona hanafiy mazhabining o‘rnini o‘nlab bid‘atchi guruhlar egallashni da‘vo qildilar: “vahhobiylar”, “salafiylar”, “Tavba”, “Adolat”, “tablig‘chilar”, “O‘zbekiston islom harakati”, “hizbchilar”, “akromiylar”, “nurchilar”, “ma‘rifatchilar”, “shohidiylar”. Bu holat o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsata boshladi.

1991-yil dekabr oyida Namangan shahri hokimiyati binosi Tohir Yo'ldosh va Juma Namangoniy boshchiligidagi mutaassib olomon tomonidan bosib olindi. O'zbekiston rahbari I.Karimovning jasorati, olomon orasiga yorib kirib, maqsadni dadil ifoda etib, amalga oshirgan oqilona sa'y-harakatlari sabab Namangandagi notinchlikning oldi olindi. Asta-sekin barqarorlik qo'lga kiritildi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov 1997-yilda chop etilgan "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida diniy mutaassiblik va aqidaparastlik tahdidini aniq dalillar misolida isbotlab berdi va fuqarolarni bu balodan ogoh bo'lishga chaqirdi. Din sohasida yuzaga kelayotgan turli murakkabliklarning oldini olish maqsadida Parlament tomonidan 1998-yil 1 mayda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Qonun yurtimizda faoliyat yuritayotgan barcha diniy muassasalarni qaytadan ro'yxatga olishni ko'zga tutgan edi. Buning oqibatida turli mutaassib oqimlar tomonidan "uya"ga aylantirilgan diniy tashkilotlar maskani va faoliyatini qonun nazorati ostiga olish, zarur bo'lsa ularni bartaraf qilish ishlari olib borildi.

Ammo, xorijlik "xolis"lar tuzdonimizga tupurib ketgan zaharni yalagan ba'zi kimsalar, xususan, fikri tor va ongi g'o'r ayrim yoshlar ekstremistik g'oyalaridan osonlikcha voz kechganlari yo'q. Ular o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun qulay fursat poylashdi. Oqibatda, 1999-yil 16 fevralda O'zbekiston Prezidentiga suiqasd uyushtirildi. Ayni paytda Toshkentning bir nechta nuqtalarida portlashlar uyushtirildi. Qancha begunoh insonlar qurbon bo'ldi. Baxtimizga Alloh Yurtboshimizni o'z panohida asradi.

Prezident ekstremizm va terrorizm islom ta'limotiga yot tushuncha ekanini o'zining "Olloh qalbimizda va yuragimizda" asarida bayon etdi. Mutaassib guruhlar domiga tushib qolgan

yoshlarning bizga begona emasligini, ular ham shu yurt fuqarolari ekanini e'tiborga olishga va ularni tarbiya qilishga chaqirdi. Islom ma'rifatiga katta e'tibor qaratishda davom etib; 1999-yil 7 aprelda Vazirlar Mahkamasi huzurida Toshkent islom universitetini ta'xis etish haqidagi Farmonga imzo chekdi.

Diniy soha taraqqiyoti uchun yaratilgan imkoniyatlarni qadriga yetmagan, bu imkoniyatni suiste'mol qilishga uringan kimsalar afsuski, o'zlarining iddaolaridan voz kechmadilar. Oqibatda 2003-yil mart va iyul oylarida Toshkent va Buxoro shaharlarida qo'poruvchilik harakatlari amalga oshirildi. 2005-yil may oyida Andijonda "akromiylar" tomonidan amalga oshirilgan hokimiyatga qarshi xuruj esa terrorizmning diyorumizdagi so'nggi talvasasi bo'ldi.

Oqqan daryo oqaveradi, it huradi, karvon o'taveradi. "Tog'ga kalla qo'yib uni buzmoqchi bo'lgan nodon, tog'ning yemirilishini emas, avvalo, o'z boshining parchalanishini o'ylasin", deydi mashoyixlar. O'zbekiston xalqi o'zining dono rahnamosi boshchiligida turli tahdidlar va qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tdi.

## **10.2. "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi ostida ixtiloflarga barham berilishi, birdamlik va barqarorlikning ta'minlanishi**

O'zbekiston qadimdan bag'rikenglik, ilmu ma'rifat, madaniyat va taraqqiyot diyori bo'lib kelgan. Shuning uchun ham bu yurtda diniy nizolar bo'lmagan. Bu xalq o'z tarixi davomida keskin va mu'taassib fikrlarni qabul qila olmagan. Bu xalqning Moturidiy singari farzandlari ixtilof va ziddiyatlarga qarshi kurashib, "To'g'ri yo'lga boshlovchi rahnamo" sifatida tanilgan. Bu xalqning Buxoriy singari farzandlari butun olamga soxta va haqiqiy hadislarini ajratib bergan. Bu xalq farzandining Qur'on oyatlarining ma'nolarini sharhlash borasida bitgan "Kashshof" tafsiri bo'lmasa, ba'zi oyatlarning nozik ma'nolari

ochilmay qolardi, deydi dunyo ulamolari. Bu xalq farzandining “Hidoya” asarini bugun Sharq G‘arbda islom huquqi borasida asosiy qo‘llanma sifatida yodlashmoqda va o‘rganishmoqda. Bu xalq farzandining “Dil ba yoru dast ba kor” degan tabarruk so‘zi dunyoning barcha qit‘alari musulmonlarining sevimli shioriga aylangan. Qadimdan bu diyor xalqi ma‘rifatni sevgan, ardoqlagan va boshqalarni ham unga chorlagan.

Mustaqillikning ilk yillarida Vatanimizga tahdid solgan turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi bu el ma‘rifiy yo‘l bilan kurashdi. Yurtboshisi timsolida “G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurash olib borish” lozimligini bayon qildi. Jahon xalqlariga terrorizmning xatarli oqibatlarini ayon qildi.

Beshigida ne-ne allomalarni voyaga yetkazgan bu xalq, “sog‘lom, kuchli, bilimli va dono” avlod uchun g‘am yedi. Yangi-yangi Buxoriy va Termiziylarni, Ibn Sino va Xorazmiylarni tarbiya etish sari dadil qadam qo‘ydi.

Bugun O‘zbekistonda 16 diniy konfessiya, 130dan ortiq millat erkin faoliyat olib borayotgani, 2000 dan ortiq masjid, 10 ta ta‘lim muassasasi mo‘min–musulmonlar ixtiyorida ekani bu diyorda vijdon erkinligi to‘la kafolatlanganining yorqin dalili, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G‘ijduvoni, Burhoniddin Marg‘inoniy, Xoja Ahror Valiy, Qaffol Shoshiy kabi allomalarning ziyoratgohlari obod etilgani va asarlari nashr qilingani ma‘rifiy soha taraqqiyotining muhim omili bo‘ldi. Bu borada erishilgan yutuqlarni dunyo tan oldi. 2007-yilda nufuzli xalqaro tashkilot – Islom Konferentsiyasi Tashkiloti (IKT)ning Ta‘lim, fan va madaniyat bo‘yicha Boshqarmasi – ISESCO tomonidan Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e‘lon qilinishi O‘zbekistonda diniy-ma‘rifiy sohada erishilgan yutuqlarning navbatdagi in‘ikosi bo‘ldi.

Ma‘rifat nuri jaholat zulmatini parchalaydi. Imon ziyosi mutaassiblik zimistonini bartaraf qiladi. Bugungi O‘zbekiston

barcha sohalarda taraqqiyot yo‘lidan ilgarilamoqda. Ammo, erishilgan yutuqlar osonlik bilan qo‘lga kiritilmaganini, buning ortida qancha-qancha insonlarning fidokorona mehnati, yurt uchun chekkan zahmati yotganini unutmashlik darkor. Bu hushyorlik chekka-chekkalarda fursat poylayotgan xavflardan ogoh bo‘lishga chorlaydi. Bu ogohlik bizni dunyoda sodir bo‘layotgan turli bo‘hronlar, murakkab vaziyatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

**1991-yil 14 iyunda** “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ma’naviy hayotimizda ulkan voqea bo‘ldi.

**1992-yil 8 dekabrda** qabul qilingan mustaqil O‘zbekiston Konstitusiyasining moddalari bilan vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar huquqi qonuniy asosda mustahkamlandi.

Biroq mustaqillik arafasida, o‘z hududimiz va chegaralarimizga o‘zimiz ega bo‘lishimiz uchun harakatlar bo‘layotgan bir paytda ba’zi xorijlik da’vatchilar paytdan foydalanib qolishga urindilar. O‘zbekistonga ekstremizm va terrorizm tahdidi xavf sola boshladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov 1997-yilda chop etilgan “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” nomli asarida diniy mutaassiblik va aqidaparastlik tahdidini aniq dalillar misolida isbotlab berdi va fuqarolarni bu balodan ogoh bo‘lishga chaqirdi.

Din sohasida yuzaga kelayotgan turli ixtilof va ziddiyatlarning oldini olish, ekstremizm va terrorizm xavfini to‘xtatish maqsadida Parlament tomonidan **1998-yil 1 mayda** “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning **yangi tahriri** qabul qilindi.

**1999-yil 16 fevralda** Toshkentda, **2003-yil mart va iyul oylarida** Toshkent va Buxoro shaharlarida qo‘poruvchilik harakatlari amalga oshirildi. **2005-yil may oyida** Andijonda

“akromiyalar” tomonidan amalga oshirilgan hokimiyatga qarshi xuruj esa terrorizmning diyorimizdagi so‘nggi talvasasi bo‘ldi.

O‘zbekiston xalqi o‘zining dono rahnamosi boshchiligida turli tahdidlar va qiyinchiliklarni mardonavor yengib o‘tdi.

Bugun O‘zbekistonda 16 diniy konfessiya, 130dan ortiq millat vakillari xotirjam hayot kechirayotgani, 2000 dan ortiq masjid, 10 ta ta‘lim muassasasi mo‘min–musulmonlar ixtiyorida ekani bu diyorda vijdon erkinligi to‘la kafolatlanganining yorqin dalilidir.

2007-yilda nufuzli xalqaro tashkilot – Islom Konferentsiyasi Tashkiloti (IKT)ning Ta‘lim, fan va madaniyat bo‘yicha Boshqarmasi – ISESCO tomonidan **Toshkent shahrini islom madaniyati poytaxti** deb e‘lon qilinishi O‘zbekistonda diniy-ma‘rifiy sohada erishilgan yutuqlarning navbatdagi inikosi bo‘ldi.

#### **Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan manba va adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1992.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2011.

3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. – T.: O‘zbekiston, 2008.

4. Karimov I. A. Olloh qalbimizda, yuragimizda: “Turkistonpress” axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar – T.: O‘zbekiston, 1999.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri. – T.: Adolat, 1998.

6. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari. O‘quv qo‘l/ Mas‘ul muharrir A.S.Ochildiyev – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

7. Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. – T.: Ma’naviyat, 2000.

8. Rahmatov O. Ogohlik - muqaddas burch. – T.: Movarounnahr, 2000.

9. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik: uning ildizi qayerda? Maqsadi nima? Unga qarshi qanday kurashish kerak? – T.: Yangi asr avlodi, 2000.

10. Sultonmurod Olim. Milliy mafkura - xalq tayanadigan kuch. – T.:Ma’naviyat, 2000.

11. Yusupov O. Istiqlol va milliy g’oya. – T.: Ma’naviyat, 2000.

12. Islom ziyosi o’zbekim siymosida. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.

13. Fevral voqealari: 1999-yil 16 fevral, Toshkent / To’plovchilar: S.Ostonov, J.Razzoqov, R.Shog’ulomov. – Toshkent: O’zbekiston, 1999.

14. Zakurlayev A., G’oyalar kurashi. – Toshkent: Movarounnahr, 2000.

15. Mualliflar jamoasi:Abduhalimov B., Qayumov A., Hasanov S. va boshq., Tuzuvchi: Rahimjonov D., Mas’ul muharrir: Islomov Z., Ma’rifat – tinchlik asosi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007.

16. Материалы международной конференции «Межрелигиозное согласие-важное условие углубления демократических процессов в странах Центральной Азии (на примере Республики Узбекистан)». Ташкент, 2002.

17. Our Greet Ancestors / responsible editor: Z.Islamov. – T.: Publishing house of “Tashkent Islamic university”. 2002.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Mustaqil O’zbekistonda vijdon erkinligi ta’minlanishining huquqiy asoslarini bayon qiling?



2. Konstitusiyaning qaysi moddalarida din va diniy tashkilotlar maqomi haqida soʻz boradi?

3. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi Qonun haqida nimalarni bilasiz?

4. Diniy ekstremizm va terrorizm xavfining yuzaga kelish sabablari nimada ?

5. Oʻzbekistondagi tinchlik va barqarorlikka tahdid solgan terrorchilik harakatlari haqida nimalarni bilasiz?

6. Yurtimizda ekstremizm va terrorizmning oldini olishda qaysi tamoyil asos qilib olindi?

7. Bugungi kunda diyorimizdagi turli din va konfessiya vakillari faoliyati toʻgʻrisida maʼlumot bering?

8. Nufuzli islom xalqaro tashkiloti tomonidan 2007-yilda Toshkentni islom madaniyati poytaxti deb eʼlon qilinishining omillarini bayon qiling?

## Foydalaniladigan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

### ASOSIY ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.

2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T. : O'zbekiston, 2008.

4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda : “Turkiston-press axborot” agentligi muxbirining savollariga javoblar – T. : O'zbekiston, 1999.

5. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.

6. O'zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunining yangi tahriri. – T.: Adolat, 1998.

7. “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari” O'quv qo'l./Mas'ul muharrir A.S.Ochildiyev – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

8. A.Jo'zjoniy. “Islom huquqshunosligi” o'quv qo'l. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003.

## QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Abu Iso Muhammad At-Termiziy. Sunani Termiziy. – T.: Adolat, 1999.
2. Al-Hakim at-Termiziy. Hadislarning biz anglagan va anglamagan hikmatlari. Tarjimon: I.Usmonov. – T.: Movarounnahr, 2006.
3. Abdullayev A.G' Qur'onshunoslik. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.
4. Abdulvahob Xalloy. Usulul- fiqh. – T.: Movarounnahr, 1999.
5. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi. – T.: Akademiya, 2000.
6. Alimov U. IX-XI asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi. – T.: Movarounnahr, 2008.
7. Al-Moturidiy ta'limoti va uning X-XII asrlarda Movarounnahr madaniyatida tutgan o'рни. Ma'ruzalar to'plami. – T.: 1999.
8. Alouddin Mansur. Imomi A'zam-buyuk imomimiz. – Toshkent: G'G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.
9. Aqid matnlari. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.
10. Begmatov A. Bir mazhab tarixi. – T.: 1997.
11. Buxoriy. Sahihi Buxoriy. Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur. – T.: Movarounnahr, 2008.
12. "Diniy ekstremizm va fundamentalizm: tarixi, mohiyati va bugungi xavfi" maxsus kursni o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar. – T., 1999.
13. Jo'rayev Sh. Buzg'unchi da'vatchilar. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.
14. Abdullatif qori Hoshimjon qori. Zalolatga ketmang: Hizbut-tahrir fitnasidan ogoh bo'ling. – Toshkent: Movarounnahr, 2003.

15. Zakurlayev A., G'oyalar kurashi. – Toshkent: Movarounnahr, 2000.

16. Ziyodov.Sh. Al-Moturidiy hayoti va merosi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.

17. Imomi A'zam (Abu Xanifa). Al-fiqh ul-akbar – Toshkent: Adolat, 2003.

18. Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. – T.: Ma'naviyat, 2000.

20. Islom ziyosi o'zbekim siymosida, – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.

21. Islom ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.

22. Karimov. A. Diniy mutaassiblikning tarixiy ildizlari va zamonaviy ko'rinishlari. – T.: Movarounnahr, 2011.

23. Mansurov A. va boshq. Hadis ilmi saboqlari. O'quv qo'l. – T.: G'G'ulom nomli. adabiyot va san'at nashriyoti. 1999.

24. Mualliflar jamoasi: Abduhalimov B., Qayumov A., Hasanov S. va boshq., Tuzuvchi: Rahimjonov D., Mas'ul muharrir: Islomov Z., Ma'rifat – tinchlik asosi. –T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007.

25. Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim Al-Bursaviy. Ahli sunnat val-jamoat aqoidi. Mas'ul muharrir va so'ngso'z mual.: Hoji Sayfiddin Sayfulloh. – T.: Movarounnahr, 1999.

26. Meliqo'ziyev J. Halokat tuzog'i. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.

27. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston. 2000.

28. Oqilov S. Abul-Mu'in an-Nasafiy ilmiy merosi va Moturidiya ta'limoti. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

29. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik: uning ildizi qayerda? Maqsadi nima? Unga qarshi qanday kurashish kerak? – T.: Yangi asr avlodi, 2000.

30. Rahmatov O. Ogohlik – muqaddas burch. – T.: Movarounnahr, 2000.

31. Samarqandiy Vasliy. Imom A'zam tarixi: Al-kalomul-afxam fi manaqibi imomi A'zam / mas'ul muxarrir: Alibek Rustam. – Toshkent: Yozuvchi, 1995.

32. Sultonmurod Olim. Milliy mafkura - xalq tayanadigan kuch. – T.: Ma'naviyat, 2000.

33. Uvatov U. Imom Moturidiy merosining mohiyati. – T.: Ma'naviyat, 2000.

34. Uinter Timoti J. (Abdulkhakim Murod) XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish) – Toshkent : Sharq, 2005.

35. Ulrix Rudolf. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom Al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, Fridrix Ebert jamg'armasi, 2002.

36. Fevral voqealari: 1999-yil, 16 fevral, Toshkent / To'plovchilar: S.Ostonov, J.Razzoqov, R.Shog'ulomov. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.

37. Shermuhamedov K. Jaholat to'ri. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.

38. Yusupov O. Istiqlol va milliy g'oya. – T.: Ma'naviyat, 2000.

39. Hasanov A. Islom tarixi. / – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

40. Husnidinov Z., Abdusattorov A. "Islomdagi oqimlar: xorijiyalar va shialik" o'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002.

41. Abdulvahhab Zohid. Hayot al-aimma al-arba'a. – Chonju. 2003.

42. Muhammad Abu Zahra. Tarix al-mazahib al-islamiya. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1996.

43. Abdulkarim Shahrisoniy. Al-milal van-nihal. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmia, 1992.

44. Abdulqohir Bag'dodiy. Al-farq baynal-firaq. – Bayrut: Al-Maktaba al-asriya, 1996.
45. Muhammad Abu Zahra. Abu Hanifa: hayotuhu va asruhu va orouhul-fiqhiya – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1997.
46. Muhammad Abu Zahra. Molik: hayotuhu va asruhu va orouhul-fiqhiya – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1997.
47. Muhammad Abu Zahra. Ash-Shafiiy: hayotuhu va asruhu va orouhul-fiqhiya – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1997.
48. Васильев Л.С. История религий Востока. – М.: 1998.
49. Мухаммад Али ал-Кутб Основатели четырех мазхабов. – Санкт-Петербург: ДИЛЯ, 2005.
50. Большаков О.Г. История Халифата. – Москва: Восточная литература, 1998.
51. Калинина Т.М. Сведения ранних ученых арабского халифата : тексты, переводы, комментарий. – Москва: Наука, 1988.
52. Мирский Г. И. Исламизм, транснациональный терроризм и ближневосточные конфликты. – Москва, 2008.
53. Ирмияева Т. Ю. История мусульманского мира. От халифата до блистательной поры – Челябинск : Урал LTD, 2000.
54. Материалы международной конференции “Межрелигиозное согласие-важное условие углубления демократических процессов в странах Центральной Азии (на примере Республики Узбекистан)”. – Тошкент, 2002.
55. Our Greet Ancestors / responsible editor: Z.Islamov. – T.: Publishing house of “Tashkent Islamic university”. 2002.
56. Farid Ahmed, Publisher: Muhammad Abdur Rab, Muslim Ummah in the contemporary world, 2004.

## Mundarija

Kirish. "Islomdagi mazhablar va oqimlar" o'quv kursining mazmun-mohiyati.....	3
<b>1-Bob. Islomda yo'nalishlar yuzaga kelishining sabablari .....</b>	<b>6</b>
1.1. Sunniylik mohiyati.....	6
1.2. Xorijiylik – ajralib chiqqan ilk yo'nalish.....	8
1.3. Shialikning kelib chiqishi .....	11
<b>2-Bob. Islomda mazhablarning shakllanish omillari .....</b>	<b>16</b>
2.1. Fiqh ilmining taraqqiy etishi.....	16
2.2. Islom fiqhi asoslari.....	18
2.3. Ijtihod va mujtabidlar .....	20
2.4. Mazhablarning yuzaga kelishi .....	22
2.5. Fiqhiy mazhablarga ergashish va mazhabsizlikdan saqlanish zarurati.....	24
<b>3-Bob. Aqidaviy ta'limotlar .....</b>	<b>29</b>
3.1. Aqida va kalom haqida.....	29
3.2. Moturidiya .....	31
3.3. Ash'ariya .....	33
3.4. Moturidiya va ash'ariya o'rtasidagi farqlar .....	35
<b>4-Bob. Hanafiy mazhabi, Mazhablar tarixi .....</b>	<b>40</b>
4.1. Imom A'zam hayoti va faoliyati .....	40
4.2. Imom A'zam merosi.....	42
4.3. Imom A'zam shogirdlari .....	43
4.4. Hanafiy mazhabi ta'limoti.....	45
<b>5-Bob. Molikiy mazhabi .....</b>	<b>53</b>
5.1. Imom Molik hayoti va faoliyati .....	53
5.2. Imom Molik merosi va izdoshlari.....	55
5.3. Molikiy mazhabi ta'limoti.....	57
<b>6-Bob. Shofeiyy mazhabi.....</b>	<b>60</b>
6.1. Imom Shofeiyy hayoti va faoliyati .....	60
6.2. Imom Shofeiyy merosi, shogirdlari va izdoshlari .....	61
6.3. Shofeiyy mazhabi ta'limoti.....	62
<b>7-Bob. Hanbaliy mazhabi .....</b>	<b>66</b>
7.1. Imom Ahmad ibn hanbal hayoti va faoliyati.....	66
7.2. Imom Ahmad merosi, shogirdlari va izdoshlari .....	67
7.3. Hanbaliy mazhabi ta'limoti .....	69

Oqimlar tarixi .....	72
<b>8-Bob. VIII-XI asrlarda yuzaga kelgan oqimlar .....</b>	<b>72</b>
8.1. Xorijiylikka mansub oqimlar .....	72
8.2. Shialik oqimlari .....	74
8.3. Mo'taziliylar .....	81
8.4. Murjiylar .....	83
8.5. Qadariylar .....	84
8.6. Jabariylar .....	85
<b>9-Bob. XVIII-XX asrlarda shakllangan oqimlar .....</b>	<b>90</b>
9.1. Vahhobiylar .....	90
9.2. Al-ixvon al-muslimun .....	92
9.3. Hizbut-tahrir .....	95
9.4. Salafiyalar .....	98
9.5. Nurchilar .....	100
9.6. Akromiylar .....	101
9.7. Zamonaviy xorijiyalar .....	104
<b>10-Bob. O'zbekistonda barqarorlikka tahdid soluvchi oqimlar faoliyatining oldini olishda amalga oshirilgan ishlar .....</b>	<b>111</b>
10.1. Mustaqillikning ilk yillarida turli oqimlarning ijtimoiy barqarorlikka tahdidi .....	111
10.2. "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi ostida ixtiloflarga barham berilishi, birdamlik va barqarorlikning ta'minlanishi .....	115
Foydalaniladigan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati .....	121



# **ISLOMDAGI MAZHABLAR VA OQIMLAR**

**O'QUV QO'LLANMA**

**“Toshkent islom universiteti”  
nashriyot-matbaa birlashmasi  
Toshkent – 2012**

**Muharrir: Bobomurod Eraliev**

**Musahhah: Umida Insonboyeva**

**Dizayner: Inur Karadjaev**

**Sahifalovchi: Zulxumor Ulug'bekova**

**Bosishga 2012-yil 31 avgustda berildi.  
Bichimi 84×108 1/32 Shartli b.t. 8. Nashr t. 8,5.  
Adadi 60 dona. Buyurtma № 70  
Bahosi shartnoma asosida.**

**“Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa  
birlashmasi bosmaxonasida chop etildi.  
100011. Toshkent sh. A.Qodiriy, 11.**

